- referatda mavzu doirasida mustaqil mushohada yuritish, ijodiy fikrjash qobiliyatini namoyon eta olmasa – 0-8.1 ball
- referatda bayonda ilmiylik va mantiqiylik saqlanmasdan, ko`p ilmiy xatolik va mantiqiy chalkashliklarga yo`l qoyilsa – 0-5.4 ball
- referatda mavzu materialining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida tasavvurga ega bo`lmasa – 0-5.4 ball
- referatda mavzu doirasida o`z tasavvurlari va bilimlarini bayon qila olmasa – 0-5.4 ball
- referat himoyasida berilgan 2 savolga javob bera olmasa – 0-5.4 ball
- referatda ilmiy adabiyotlar bilan ishlash, ulardan havolalar keltirish malakasiga ega bo`lmasa – 0-2.7 ball
- referatda mavzuni yoritishda internet tarmog`idan olingan ma`lumotlarga murojaat qilingan bo`lmasa – 0-2.7 ball
- axborotni to`plash, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish malakasi bo`lmasa –0-2.7 ball
- referat himoyasida tinglovchilar bergan 3 savoldan 1 tasigasa to`liq javob bera olsa –0-2.7 ball
- referatda imlo qoidalariga rioya qilmasa -0-2.7 ball

ORALIQ NAZORAT

2.1. Oraliq baholash yozma tarzda 1 marta o'tkazilib, bunda 3ta savolga javob berish so'raladi. Savollar 34, 33, 33 ballda baholanadi.

- Agar savol mohiyati to'la ochilgan bo'lib, mavzu bo'yicha talabanning tanqidiy nuqtai nazari bayon qilingan, javoblar to'liq, aniq, ijodiy yondashgan holda yozilgan, fikrlar asosli, ixcham, to'g'ri va ravon bayon etilgan bo'lsa - 28-34 ball;
- Savol mohiyati to'la ochilgan, asosiy faktlar to'g'ri bayon qilingan, savolga to'g'ri javob berilgan, lekin ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, ayrim fikr va xulosalar to'liq yoritilmagan bo'lsa - 23-27 ball
- Savolga umumiy tarzda javob berilgan, ammo chalkashliklarga yo'l qo'yilgan, kamchiliklar ko'proq bo'lsa, imlo qoidalariga to'la rioya etilmagan bo'lsa - 18-22 ball.
- Savol mohiyati umuman ochib berilmagan, qator imlo xatolariga yo'l qo'yilgan bo'lsa - 0-17 ball.

JN+ON

a) 86-100 ball uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- xulosa va qaror qabul qilish;
- ijodiy fikrlay olish;
- mustaqil mushohada yurita olish;
- olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo'lish.
- mavzu bo'yicha tushunchasini ingliz tilida bayon etish.

b) 71-85 ball uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- mustaqil mushohada yurita olish;
- olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo'lish.
- mavzu bo'yicha tushunchasini rus tilida bayon etish.

v) 55-70 ball uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo'lish.

g) quyidagi hollarda talabanning bilim darajasi 0-54 ball bilan baholanishi mumkin:

- aniq tasavvurga ega bo'lmaslik;
- bilmaslik.

YAKUNIY NAZORAT

3.1. Yakuniy baholash yozma tarzda 1 marta o'tkazilib, bunda 3ta savolga javob berish so'raladi. Savollar 34, 33, 33 ballda baholanadi.

- Agar savol mohiyati to'la ochilgan bo'lsa, javoblar to'liq, aniq, ijodiy yondashgan holda yozilgan, fikrlar asosli, ixcham, to'g'ri va ravon bayon etilgan bo'lsa - 28-34 ball;
- Savolga umumiy tarzda javob berilgan, ammo ba'zi kamchiliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, ayrim fikr va xulosalar to'liq yoritilmagan bo'lsa - 23-27 ball.
- Savolga javob berilgan, ammo chalkashliklarga yo'l qo'yilgan, imlo qoidalariga to'la rioya etilmagan bo'lsa - 18-22 ball;
- Savol mohiyati umuman ochib berilmagan, qator imlo xatolariga yo'l qo'yilgan bo'lsa - 0-17 ball.

4. FAN BO'YICHA O'QUV-USLUBIY MATERIALLAR

4.1. Ko'rgazmali va boshqa uslubiy o'qitishning texnik va kompyuter vositalari

Darslik, majmua, uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, ovozli yozuv, video ko'rsatuvlar.

4.2. Mashg'ulotlarda qaysi turdagi zamonaviy pedtexlogiya qo'llanishi to'g'risida uslubiy ko'rsatma

Muammoli o'qitish texnologiyasi – bu rivojlantiruvchi o'qitish texnologiyasi bo'lib, faol bilim o'rttirish jarayonini rag'batlantiradi va fikrlashning mantiqiy ketma-ketlik stilini shakllantiradi. Bu texnologiya oliy maktabda eng samarali texnologiyalardan biri hisoblanadi. Muammoli o'qitish mohiyati o'qituvchi tomonidan talabalarning o'qishida muammoli vaziyatlarni tashkil etish va o'quv (yaxshisi, hayotiy) masalalar, muammolar va savollarni yechish yo'li bilan yangi bilimlarni o'zlashtirish faoliyatini boshqarishdan iborat.

«**Bumerang**» texnologiyasi orqali dars jarayonida yoki turli adabiyotlardan, tarixiy manbalar, matnlar bilan mustaqil ishlash jarayonida talabalarning o'rganilgan materialni yaxshi eslab qolish imkonini beradi, og'zaki nutqni rivojlantiradi va o'z fikrini erkin bayon eta olish malakalarini shakllantiradi, shuningdek, bir dars davomida barcha talabalarni baholash imkonini beruvchi texnologiya hisoblanadi. «Bumerang» texnologiyasidan yangi mavzuni o'rganish jarayonida foydalanish mumkin. «Bumerang» texnologiyasining texnologik tavsifi quyidagicha ekanligini ko'rsatish mumkin: da'vat, anglash, fikrlash hamda sharhlash bosqichlari.

«**STOL O'RTASIDAGI RUCHKA**» **USULI.** Guruhda bahs-munozaralar olib borishdagi samarali usullardan biri. Stol o'rtasidagi ruchkani aylantirgan holda har bir talaba bahs-munozaraga o'z hissasini qo'shib, ikkinchi marta esa, faqatgina barcha qatnashchilar ruchkasi stol o'rtasida joylashgandagina so'z olishi mumkin bo'ladi. Bahs - munozaraga qaysi talaba qanday hissa qo'shganligi to'g'risida esa, o'qituvchi ruchkani tanlab olish orqali bilib oladi.

«**Qarorlar shajarasi**» **metodi** bir qadar murakkab mavzularni o'zlashtirish, ma'lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul hamda to'g'risini topishga yo'naltirilgan texnik yondashuvdir. Ushbu metod, shuningdek, avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qaror (xulosa)lar mohiyatini yana bir bora tahlil etish va uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

BURCHAKLAR USULI. Muhokama etilayotgan muammo bo'yicha o'zining nuqtai-nazarini bildirish imkoniyati beriladi. Ishtirokchilar ikki-uch guruhga bo'linadilar va dars mavzusi bo'yicha bahs yuritib, ishtirokchilar orasidan, agar kimdir o'z fikrini o'zgartirsa, guruhni almashtirishga ruxsat beriladi.

«**AQLIY HUJUM**» **METODI.** Mazkur metod talabalarning mashg'ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda

bir xil fikrlashdan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish yechish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rgatish uchun xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbek sovet adabiy tanqidi tarixi. 1-tom. Toshkent. 1987. 3-30 betlar.
2. N.Xudoyberganov, A.Rasulov. O'zbek sovet adabiy tanqidchiligi. Toshkent. 1990.
3. O.Sharafiddinov. Haqiqatga sadoqat. Toshkent. 1989. 367-398 betlar.
4. X.Yoqubov. Tanqid va adabiyotshunoslik tarixiga bir nazar (Adabiyotimizning yarim asri. 1-kitob. Toshkent. 1967. 339-408 b.)
5. Safarov O, Yo'ldoshev B, Ahmedova Sh. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. Buxoro. 2003.
6. Rahmonov B. O'zbek adabiy tanqidchiligi. Toshkent. 2005.
7. Nazarov B, Rasulov A, Ahmedova Sh, Qahramonov Q. O'zbek adabiy tanqidi tarixi. Darslik. –Toshkent, “Tafakkur qanoti” , 2012, 395 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Karimov I. YUksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T.: “Ma'naviyat”, 2008
2. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. T.: «Yangi asr avlodi», 2004
3. Valixo'jaev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi (X-XIX asrlar). T.: «O'zbekiston», 1993.
4. Nazarov B. O'zbek adabiy tanqidchiligi. T.: «FAN», 1979.
5. Rasulov A. Tanqid, tahlil, baholash. T.: “Fan”-2006
6. SHarafiddinov O. Dovondagi o'ylar T.: «Ma'naviyat», 2004.
7. Behbudiy M. Tanqid saralamoqdur. \ Mahmudho'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. T.: «O'zbekiston», 1997.
8. Бопеев Ю. Искусство интерпретации и оценки. М.: «Советский писатель», 1981
9. Karimov B. XX asr o'zbek adabiyotshunosligida talqin muammosi (Qodiriyshunoslik misolida) filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.: 2002
10. Karimov B. Jadid munaqqidi Vadud Mahmud, T.: 2000
11. Navoiy A. Majolis-un-nafois (Asarlar 20 tomlik. 13 tom.) T.: «Fan», 1997
12. Normatov U. Qodiriy bog'i. T.: «Yozuvchi», 1995
13. Проблемы теории литературной критики. Изд МГУ, 1980

- 14.Rasulov A. Tanqidchilik ufqlari. T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1995
- 15.Rasulov A. Badiiylik –bezavol yangilik. T.: 2002.
- 16.CHo'lpon va tanqid (nashrga tayyorlovchi Karimov B.), T.: «Adabiyot jamg'armasi», 2004
- 17.Teroiya literatury v2-tomax. Tom I. Moskva Akadema. 2004
- 18.Xudoyberganov N. Badiiy tahlil sehri. T.2008
- 19.SHarafiddinov O. Ijodni anglash baxti, T.: «SHarq», 2004
- 20.O'zbek sovet adabiy tanqidi tarixi. (ikki tomlik), 1-2-tomlar, T.: «Fan», 1982
- 21.Qo'shjonov.M. Saylanma (ikki jildlik), T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1981-1982
- 22.Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. T.: «Xalq merosi» nashriyoti, 2004
- 23.Qahramonov Q. Adabiy tanqid va bolalar adabiyoti. T.: «Fan» 1991
- 24.Rahmonov B. O'zbek adabiy tanqidchiligi. T.: «YAngi asr avlodi», 2004
- 25.Safarov O., Yo'ldoshev B., Ahmedova SH.. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. BuxDU nashriyot, 2003
- 26.G'afurov I.Mangu latofat. T.:–“SHarq” NMAK, 2008


FOYDALANISH UCHUN INTERNET SAYTLARI.

1. www.literature.uz.
2. www.ots.uz.
3. www.poetika.lv.
4. www.c-cafe.ru.
5. www.peoples.ru/art/literature.
6. www.ziynet.uz.
7. www.ta'lim.uz
8. www.talant.spb.ru.wald.html.
9. www.inter-pedagogika.ru.
10. www.obrozavaniye.ru.
11. www.wings.ru
12. www.ppf.uni.udm.ru
13. www.search.re.uz
14. www.pedagog.uz
15. www.ref.uz

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

O'ZBEK ADABIY TANQIDCHILIGI TARIXI

MA'RUZALAR MATNLARI



Urganch – 2012

1 - MAVZU
FANNING NAZARIY MASHG'ULOTLARI MAZMUNI
“O'ZBEK ADABIY TANQIDCHILIGI TARIXI” FAN SIFATIDA

REJA:

Ma'ruza mashguloti ta'lim texnologiyasining modeli

O`quv vaqti: 80 minnut	Talaba soni
O`quv mashg`ulotining tuzilishi Ma' ruza rejasi	1.Adabiy tanqidning ob' ekti, maqsadi, vazifasi, 2.Fan va san' atga aloqadorligi. 3.Adabiy tanqid adabiyotshunoslikning qismi ekanligi
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi : Talabalarda O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi fanining taraqqiyoti, predmeti, maqsadi va vazifalari xususida tushuncha hosil qilish.</i>	
Pedagogik vazifalar: YAngi mavzu bilan tanishtirish, mavzuga oid ilmiy atamalarni ochib berish, asosiy maslalar bo`yicha tushunchalarni shakllantirish.	O`quv faoliyatining natijalari: Talabalarda psixologiya fanining predmeti, metodlari va tarmoqlari xaqida tasavvurga ega bo`ladilar, asosiy ma' lumotlarni kospektlashtiradilar.
Ta' lim usullari:	BBB, “Klaster” , ma' ruza
O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli	Ommaviy
Ta' lim vositalari	Slaydlar, plakat, jadval
Qayta aloqa	Savol javob

usullari va vositalari	
-------------------------------	--

O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi

Ishlash bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni		
	O`qituvchining		Talabaning
1 bosqich 1.1 O`quv xujjatlarini to`ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min). 1.2 O`quv mashg`ulotiga kirish (10min)	1.1 O`zbek adabiy tanqidchiligi tarixi haqida ma`lumotlar beriladi. O`quv mashg`ulotiga kirish davomida dastlab talabalarga BBB jadvali taklif etiladi va uning <i>Bilaman, Bilishni xoxlayman</i> grafalari to`ldiriladi. Jadvalning ikkita grafasi to`ldirilganidan so`ng ma`ruza boshlanadi.		
	<i>Bilaman</i>	<i>Bilishni hohlayman</i>	Tinglashadi. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. O`zbek adabiy tanqidchiligi tarixi fani bo`yicha dastlabki tushunchalarini ifodalovchi ma`lumotlarni BBB jadvaliga tushiradilar
2 bosqich Asosiy 50 min	2.1. Jadvalning ikkita grafasi to`ldirilganidan so`ng ma`ruza boshlanadi. O`zbek adabiy		Konspekt yozishadi, tinglashadi, Adabiy tanqidning fan sifatida

	tanqidchiligi tarixi faning taraqqiyot bosqichlari. Fan taraqqiyoti davomida tanqid predmeti haqida tushunchalarni o`zgarib borishi. 2.2. Ilmiy-badiiy tafakkur tarixida XX asrning o' ziga xos xususiyatlariga izox berish. 2.3. Tanqid fanining shakllanishi, janrlari, mavzu doirasi Jadval yordamida tushuntirish olib borish.	shakllanishi rejasi bo`yicha doskada klaster tuzishadi.</b></p> <p><b>Mavzu bo`yicha savollar beradilar.
3 bosqich. YAkuniy natijalar 15 min.	3.1 Mavzu bo`yicha xulosa qilish. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi ning shakllanishi, predmeti, metodlari va tarmoqlari yuzasidan umumlashtiruvchi fikr bildiriladi.</b></p> <p><b>3.2 Talabalarga BBB jadvalini bilib oldim grafasini to`ldirish	O`rganilgan mavzu bo`yicha olgan ma' lumotlarni BBB jadvalini yakuniy grafasiga tushiradilar.

	taklif etiladi, va o`quv mashg`ulotning maqsadiga erishish darajasi taxlil qilinadi 3.3 Mavu yuzasidan o`quv vazifasi beriladi. Amaliy mashgulotga tayyorlanish	
--	--	--

Adabiy tanqid - adabiyotshunoslik tizimidagi fanlardan biri. U insonning voqelikka estetik munosabatini ifodalash va adabiyotning uni badiiy kashf etish xususiyatini anglashga qaratilgan tafakkur shakllaridan biri hamdir. Adabiy tanqid adabiyotning doimiy hamrohi bo'lib, o'zining takomil tarixi va muayyan bosqichlariga ega. U SHarq adabiyotshunosligida dastlab qadim adabiy-estetik qarashlar bag'rida paydo bo'lib, arabcha "naqada" ("nkd") so'zi bilan aloqadordir. Asl narsani yasamadan, yaxshini yomondan ajratish ma'nosini anglatgan bu so'z pulni saralashga, keyinchalik badiiy ijoddagi fazilat va nuqsonlarni ajratishga nisbatan ishlatilgan. Natijada adabiy asarlardagi kamchiliklarni bayon etuvchi soha - "ilmi na- qada" deb atala boshlangan. SHuning uchun ham IX-X asrlardan boshlab XIX asrdagi o'zbek adabiy-tanqidiy qarashlari shu nom bilan atalib kelingan.

O'zbek adabiy tanqidi ilmi naqadadan boshlanib mustaqil fan darajasiga - adabiyotshunoslikning muhim sohasiga aylandi. Bu tarixiy-adabiy jarayonda tanqid adabiyot tarixi va adabiyot nazariyasi hamda boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan mustahkam aloqada rivojlanib keldi, uning mohiyati va vazifalari to'la shakllandi. Adabiy tanqid - "harakatdagi estetika" (V.Belinskiy) bo'lib, muayyan adabiy jarayonning va undagi badiiy ijodning yutuq va nuqsonlarini, umumiy rivojlanish tamoyillarini, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganuvchi fandir. U tarixiy-ijodiy xarakterga ega bo'lib, ma'lum davr adabiy-estetik talablari asosida adabiy jarayonning etakchi tendentsiyalarini aniqlashga, ijodkorlar asarlaridagi ijobiy va salbiy jihatlarni xolisona taxlil asosida baholab yutuqlarni yanada takomillashtirishga hamda keng kitobxonlarning estetik didi va ma'naviy kamolatiga ko'maklashishga da'vat etilgan. Adabiy tanqid o'zining bu asosiy vazifasini milliy va jahon adabiyotshunosligi hamda adabiy-estetik qarashlaridagi tajribalarini ijodiy o'zlashtirish va o'z ulushari bilan boyitib borish orqali to'la ado eta oladi. U joriy adabiy-tarixiy jarayon haqida va undagi adabiy-asarlar haqida hukm chiqarganda ma'lum darajada adabiyot tarixining xulosalariga suyanadi, ularni konkret davr xarakteriga ko'ra baholaydi va yangi ijobiy hodisalar asosida go'zallik haqidagi ta'limotni boyitishga xizmat qiladi.

Adabiy tanqidning mohiyati estetikaning badiiy adabiyotga oid qismi-adabiyotshunoslik bilan qiyos qilganda yanada yorqin ko'rinadi. Ya'ni adabiyotshunolsik- ilmiy tafakkurga, adabiy tanqid esa ilmiy va badiiy tafakkurga asoslanib, ham fan, ham san'atga dahldordir. Adabiyotshunoslik asosan o'tmish adabiy merosini asosiy ob'ekt qilib olsa, adabiy tanqid joriy adabiy jarayon haqida fikrlaydi, adabiyotshunoslik akademizmga va bilvosita (o'tmish jarayoni va undagi asarlar) aktuallikka tayanadi, adabiy tanqid esa tezkorlikka va bevosita aktuallikka

suyanadi, adabiyotshunoslik asosan soha mutaxassislariga qarata yo'nalgan bo'lsa, adabiy tanqid keng ommaga qaratiladi. Umuman adabiyotshunoslik estetikani, adabiy tanqid esa adabiyotshunoslikni boyitadi. Bu xususiyatlar adabiyotshunoslik bilan tanqidni bir hodisa sifatida qarashga yoki ularni butunlay bir-biridan ajratishga asos bo'la olmaydi. Zero, adabiy tanqid adabiy jarayon va eng yangi asarlar haqida hukm chiqarar ekan, bu xulosalar adabiyotshunoslikka hissa bo'lib qo'shiladi. Badiiy adabiyotning umumiy qonuniyatlarini kashf etishda adabiyot nazariyasi adabiy tanqid xukmidan foydalanadi. Adabiy tanqid ham, o'z navbatida, adabiyot tarixi fani xulosalariga tayansa, ikkinchi tomondan, adabiyot nazariyasi yutuqlaridan bahramand bo'ladi, ayni choqda adabiyotshunoslikning har ikkala qismi uchun ham zarur xulosalar chiqaradi. Adabiy tanqidning universal va hozirjavobligi shundaki, u badiiy ijodni rivojlantirishga, adabiy-badiiy tafakkurni yangi xususiyatlar bilan boyitishga va kitobxonlarda go'zallik tuyg'usini tarbiyalashga xizmat etadi. Albatta tanqid tarixi adabiyot tarixining takrori bo'lmasligi kerak. "Adabiyot va san'at tarixida tanqidga oid material ikkinchi o'rinda turgani kabi, tanqid tarixida ham adabiyot tarixining materiali faqat yordamchi o'rinni egallashi mumkin" (O'zbek sovet adabiy tanqidi tarixi. tom. Toshkent. 1987. 25-26 betlar). Zero, tanqid tarixini badiiy ijod, so'z san'atimiz tarixidan ajratib olib o'rganish, tadqiq qilish mumkin emas. Chunki ular o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, har birining takrorlanmas qiyofasi, uslubi, o'ziga xos konuniyatlari bor. Shunday ekan, badiiy ijod va tanqidni farqlamay va birining o'rniga ikkinchisini qo'yib bo'lmaydi-ular voqelikni kashf etishda turli vosita, qurolar va vazifalarga egadir. Bular adibga ham, munaqqidga ham adabiy asarni idrok etish imkonini beradi. Lekin bunda san'atkor - badiiy boylik yaratuvchi, munaqqid esa adabiy tanqidchi, ilmiy-badiiy idrok etuvchi sifatida namoyon bo'ladi. Munaqqid yaratgan boylik yozuvchi yaratgan boylik asosida paydo bo'lib, uning ilmiy-estetik qimmatini belgilashga qaratiladi.

SHu bilan birga adabiy tanqidni alohida hodisa sifatida olib o'rganish uning adabiyotshunoslik, badiiy ijod, falsafa, estetika kabi fanlar bilan uzviy aloqadorligini aniqroq ko'rsatib beradi, o'ziga xos fikrlash tarzini yorqinroq namoyon qiladi. Tanqid ham, san'at ham ijtimoiy ong shakllari sifatida voqelikni anglashga qaratilgan. Lekin tanqid falsafiy-estetik anglashga, san'at esa obrazli tafakkur asosida bevosita anglashga asoslanadi. har ikkalasining mazmuni mushtarak bo'lsa ham shakllar har xildir. Bu jarayonda ular tabiiyki, nazariyani chetlab o'ta olmaydilar. Zero, Belinskiyning uqdirishicha, nazariya go'zallik qonunlarining sistemali va garmonik birligidir, ammo uning bir kemptik tomoni bor - u ma'lum vaqt doirasida qolib ketadi, tanqid esa beto'xtov harakat etadi, fan uchun yangi materiallar, yangi ma'lumotlar yig'adi. Boshqacha aytganda, badiiy ijodning asosiy qonuniyatlarini nazariy aniqlab, haqqoniy ekanini tasdiqlab berish adabiy tanqidning vazifasidir.

Tanqidning muhim vazifalaridan yana biri - tanqidning har bir konkret tarixiy davrdagi ijtimoiy-estetik roli, uning izlanishlari va badiiy kashfiyotlarini anglash va baholashdir. Bunda adabiyot tarixi va nazariyasidagi xususiyatlar albatta hisobga olinadi. SHu jihatdan oqimdagi adabiy tanqid adabiyot nazariyasiga yaqinlashsa, badiiy asarni o'rganish, taxlil qilish tamoyillariga ko'ra adabiyot tarixiga yondosh keladi. Bunday yaqinlik adib va munaqqidga xos fikrlash tarzidagi farqlarni inkor etmaydi. CHunonchi, izchil ilmiy mantiq munaqqid qarashlarida ustivor bo'lib, u fikrni kitobxonga etkazish uchun obrazlilikka murojaat etadi. Ilmiy mantiqning qay darajada izchilligi, teranligi, his-tuyg'uga boyligi munaqqid bilimi va salohiyatiga bog'liq. Munaqqid shaxsi- u yaratgan tanqidiy asarning adabiy jarayonga ta'siri va originalligi bilan tayinlanadi. Tanqidchilik o'z mohiyatiga ko'ra yaratish, kashf etish xususiyatini namoyon qilib, adabiy jarayondagi barcha ijobiy va salbiy o'zgarishlarning sabablarini ochib tashlash orqali badiiy ijod ravnaqiga, estetik ong rivojiga ta'sir ko'rsatish yo'lidan bormoqda. Bunda tanqidchi iste'dodi, talanti hal qiluvchi omildir. Bunday talant tarkibidagi uch jihatdan "birinchisi adabiyotdagi go'zallikni, g'oyaviy va badiiy boylikni his qila bilishdir. Tanqidchilik talanti tarkibiga kiruvchi yana bir element fikrlash qobiliyatidir. Tanqidchi o'qigan narsalarini chuqur taxlil qila bilishi, asardagi voqea va hodisalarni xarakterni hayot hodisalari bilan hayotdagi jonli odamlar bilan taqqoslay bilishi va taqqoslardan jamiyat hayoti uchun zarur hamda foydali xulosalar, umumlashmalar chiqara olishi kerak. Nihoyat, tanqidchilik uchinchi elementi sifatida

so'z san'atiga nisbatan ehtirosli,otashin muhabbatni aytish mumkin"(O.SHarafiddinov. Talant-xalq mulki.Toshkent. 1979. 174-176 betlar).

Adabiy tanqidning ilmiy va badiiy tafakkurning sintezi sifatidagi yuqorida bayon etilgan umumiy xossa va tamoyillari o'zbek adabiy tanqidiga ham xosdir. Lekin ularning voqe bo'lish tarzi va shakllari milliy badiiy ijod va adabiy jarayondagi xususiyatlar bilan bog'liq.CHunonchi,o'zbek adabiy-badiiy tafakkuri XX asrga qadar qorishiq holdagi estetik qarashlar shaklida bo'lib, yaxlit tizimni tashkil etmagan edi. XX asrga qadar adabiyot va san'at qonunlari kashf etilib, tanqid qator xalqlar,jumladan ruslarda tom ma'nodagi fan darajasiga ko'tarilgan edi (V.Belinskiy,N.Dobrolyubov, N.CHernishevskiy asarlari). SHuning uchun asrimizning 20-yillarida shakllangan o'zbek adabiy tanqidi o'tmishdagi adabiy-tanqidiy qarashlarga va jahon hamda rus estetikasi, tanqidchiligi an'analari va tajribasi asosida mustaqil fan sifatida maydonga keldi. Binobarin, XV asrgacha to'plangan adabiy-tanqidiy fikrlar, so'ngra buyuk Navoiy boshlab bergan o'zbek tanqidchiligi nishonalari tanqidning chinakam fan bo'lishi uchun etarli emasdi. Darhaqiqat, o'zbek mumtoz adabiyoti davrida adabiyotshunoslik tarkibida amal qilgan estetik fikrlar, janr va shakllar (tazkira, faxriya, manoqib- holat, debocha va boshqalar) adabiy tanqidning ilk kurtaklari bo'lib, adabiyotning ijtimoiy-estetik mohiyati,ijodkorning adabiy jarayonda va jamiyat ma'naviy hayotida tutgan o'rni, asarda shakl va mazmun, badiiy ijod tabiatidagi xosliklar kabi muhim masalalar haqida izchil ilmiy ta'limot darajasiga ko'tarila olmadi,tanqidiy ruhdagi maqolalar esa asosan axborot xarakterida bo'lib, badiiy asarlar keng taxlil etilmadi. Lekin adabiy tanqid ibtidosi bo'lgan bunday qarashlarning tanqidning fan sifatida shakllanishidagi ahamiyatini rad etib bo'lmaydi,mumtoz qarashlar ilk manba bo'ldi va XX asrdagi tarixiy-madaniy sharoit, yangi o'zbek adabiyotining yutuqlari hamda adabiy jarayon uni mustaqil sohaga aylantirdi.

O'zbek adabiy tanqidi fani deyarlik sakson yillik tarixga ega. U shu davr mobaynida, boshqa fanlar qatori, o'z ob'ekti, metodologiyasi, metodi va qiyofasiga ega bo'ldi, mazmun va shakl jihatdan sayqal topdi va takomillashdi. XX asr o'zbek adabiyoti va joriy adabiy jarayon uning asosiy ob'ektidir. Metodologiya va metod sohasida turlicha tamoyillarga amal qilingan bo'lsa ham bugungi tanqid fanining metodologik asosini mustaqillik mafkurasi, badiiy ijod va estetikaga oid ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi. Tanqidning o'z ob'ektini ilmiy o'zlashtirish, tadqiq etish jarayoni bilan bog'liq qonuniyatlar, usullar silsilasini tashkil etuvchi metod mohiyati esa realizm, xaqqoniylik bilan belgilanadi. SHu bilan birga, tanqid metodologiyasi va metodi xususidagi qarashlar inson tafakkuridagi yangilanish jarayoni bilan bog'liq ravishda o'zgarib borishi tabiiydir. Bunda adabiy tanqidga xos o'zak xususiyat uning ilmiy va badiiy tafakkur hosilasi hamda kishilarni estetik va ma'naviy komillik ruhida tarbiyalash vositasi ekani saqlanib qoladi. Bugungi o'zbek adabiy tanqidi fani ana shu yo'ldan dadil bormoqda.

TAYANCH TUSHUNCHALAR

Adabiy tanqid – adabiy asar va adabiy jarayonni baholovchi fan harakatdagi estetika – adabiy tanqidga G.Belinskiy ta'rifi.

Munaqqid – adabiy tanqidchi.

Ilmiy va badiiy bilish – voqelikni anglash shakllari.

Tahlil – tanqidiy faoliyat asosi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Adabiy tanqidning adabiyotshunoslik bilan mushtarak va farqli jihatlari qaysilar?
2. Adabiy tanqidning maqsadi va vazifalarini bilasizmi?
3. O'zbek adabiy tanqidi fanining shakllanishidagi omillarni aniqlang.
4. Adabiy tanqidchi talantining elementlarini ta'riflab bering.

5. Adabiy tanqidning ob'ekti, metodologiyasi va metodini bilasizmi?

A D A B I Y O T L A R

1. O'zbek sovet adabiy tanqidi tarixi. 1-tom. Toshkent. 1987. 3-30 betlar.
2. N.Xudoyberganov, A.Rasulov. O'zbek sovet adabiy tanqidchiligi. Toshkent. 1990.
3. O.SHarafiddinov. haqiqatga sadoqat. Toshkent. 1989. 367-398 betlar.
4. X.YOqubov. Tanqid va adabiyotshunoslik tarixiga bir nazar (Adabiyotimizning yarim asri. 1-kitob. Toshkent. 1967. 339-408 b.)
5. Safarov O, YO'ldoshev B, Ahmedova SH. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. Buxoro. 2003.
6. Rahmonov B. O'zbek adabiy tanqidchiligi. Toshkent. 2005.

2-Ma'ruza

MAVZU: FANNI O'QITISHDA YANGI ILMIY-NAZARIY QARASHLAR

Ma'ruza mashg'uloti ta'lim texnologiyasining modeli

O`quv vaqti: 80 minnut	Talaba soni
O`quv mashg`ulotining tuzilishi Ma' ruza rejasi	1 O'zbek adabiy tanqidchiligi manbalari tasnifi 2. Poetik va ilmiy asarlardagi qarashlar. 3. Navoiy – mumtoz adabiy tanqidchilik boshlovchisi
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi : Talabalarda O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi manbalari xususida tushuncha hosil qilish.</i>	
Pedagogik vazifalar: YAngi mavzu bilan tanishtirish, mavzuga oid ilmiy	O`quv faoliyatining natijalari:</b> <b>Talabalar o'zbek adabiy tanqidchiligi manbalari haqida tasavvurga ega bo`ladilar, asosiy ma' lumotlarni

atamalarni ochib berish, asosiy maslalar bo'yicha tushunchalarni shakllantirish.	kospektlashtiradilar.
Ta'lim usullari:	BBB, "Klaster", ma'ruza
O'quv faoliyatini tashkil qilish shakli	Ommaviy
Ta'lim vositalari	Slaydlar, plakat, jadval
Qayta aloqa usullari va vositalari	Savol javob

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ishlash bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni		
	O'qituvchining		Talabaning
1 bosqich 1.1 O'quv xujjatlarini to'ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min). 1.2 O'quv mashg'ulotiga kirish (10min)	1.1 O'zbek adabiy tanqidchiligi manbalarii haqida ma'lumotlar beriladi. O'quv mashg'ulotiga kirish davomida dastlab talabalarga BBB jadvali taklif etiladi va uning <i>Bilaman, Bilishni xoxlayman</i> grafalari to'ldiriladi.		Tinglashadi. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. Adabiy tanqidchilik manbalari bo'yicha dastlabki tushunchalarini ifodalovchi ma'lumotlarni BBB jadvaliga tushiradilar
	<i>Bilaman</i>	<i>Bilishni hohlayman</i>	

2 bosqich Asosiy 50 min	2.1. Jadvalning ikkita grafasi to'ldirilganidan so'ng ma'ruza boshlanadi. O'zbek adabiy tanqidchiligi manbalari tasnifi bo'yicha tushunchalarni o'zgarib borishi. 2.2. Tanqid tarixiga asos bo'lgan dastlabki manbalar va ularning o'ziga xos xususiyatlariga izox berish. 2.3. Navoiy – mumtoz adabiy tanqidchilik boshlovchisi Jadval yordamida tushuntirish olib borish.			Konspekt yozishadi, tinglashadi, Poetik va ilmiy asarlardagi qarashlar rejasi bo'yicha doskada klaster tuzishadi. Mavzu bo'yicha savollar beradilar.

Tanqidchilarning mukammal, etuk asarlari haqida fikr yuritiladi. Kursda mumtoz o'zbek tanqidchiligining sharh, talqin, tafsir, tazkira, hasbi hol singari, hozirgi o'zbek tanqidchiligining davrlari, sotsializm, metod, tahlil, yondashuv yo'nalishlari haqida ma'lumot beriladi. XXI asr tanqidchiligida sinergetika, globallashuv, milliylik singari masalalarga e'tibor qaratiladi. O'zbek adabiy tanqidchiligi SHarq adabiy-estetik tafakkuri silsilasida muxim o'rin tutadi. Uning shakllanishi va taraqqiyoti turkiy va fors xalqlarining adabiy qarashlari bilan chambarchas bog'liqdir. Bu qarashlarning ildizlari qadim zamonlardan boshlangan bo'lib, davrlar o'tishi bilan

voqelikka estetik munosabat ham o'zgarib, takomillashib borgan, og'zakilikdan yozma shakllarga o'tgan. Bu tarixiy jarayonda adabiyot va u haqdagi fikrlar yonma-yon davom etib keladi. Natijada ularni yaxlit ifodalovchi qarashlar hosilasi adabiyotshunoslikni, ya'ni estetikaning muhim bir qismini vujudga keltirdi. Adabiy-tanqidiy tafakkur tushunchasi esa adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlaridan biri- adabiy tanqidning tadrijiy takomilini nazarda tutadi. Adabiy tanqid Aristotel (mel.av.384-322) davridan beri adabiyotshunoslik bilan aloqador soha sifatida turli tarixiy-ijtimoiy sharoit, adabiy oqim va metodlar bilan bog'liq holda turfa xarakter kasb etib kelar ekan, o'zbek adabiy tanqidining ilk zamini va manbalarini tayinlashda ham bu jihatdan ko'z yumib bo'lmaydi.

Adabiy-tanqidiy tafakkur tarixiga qanchalik chuqurroq nazar tashlansa, unda adabiyot tarixi, nazariyasi va tanqididagi sinkretik (qorishiq) xarakter shunchalik yorqin namoyon bo'ladi. Davrlar o'tishi bilan esa adabiyotshunoslik qismlarining tabaqalashuvi, xar birining mustaqil sohaga (butunlay uzoqlashmagan holda) aylana borish jarayoni kuzatiladi. Bu hol, tabiiyki, xar bir xalq adabiy-tanqidiy qarashlarining o'ziga xosligi, g'oyaviy-badiiy darajasi va tarixiy-madaniy sharoitga aloqador boshqa omillar bilan bog'likdir.

Adabiy tanqid qadimdan SHarq xalqlarining adabiyotshunosligi tarkibida shakllandi va rivojlandi. U muayyan davr adabiy jarayoni, badiiy asar yoxud ijodkorlar haqidagi qarashlarning ifodachasi sifatida badiiy ijodga ta'sir ko'rsatdi, adabiy-nazariy fikrlar rivojiga ko'maklashdi.

Badiiy ijod adabiyotshunoslikning ham, tanqidning ham asosiy ob'ekti ekanligi ulardagi mustaqil fikrlash tarzini inkor etmaydi, aksincha o'zaro aloqadorlikni taqoza qiladi. Adabiyotshunoslik badiiy ijodning tadrijiy takomili tarixini, nazariy muammolari va umuman qonuniyatlarini o'rgansa, adabiy tanqid odatda adabiy jarayon va yozuvchi ijodini ma'lum estetik tamoyillar asosida baholaydi, uni anglashga qaratiladi, nazariy fikrlarga o'z ulushini qo'shadi.

Adabiy tanqid badiiy ijod tufayli mavjud ekan, demak uning zamini, manbalarini belgilashda adabiyotning yuzaga kelish sharoiti, tarixiy-madaniy asoslari inobatga olinishi kerak. Zero, badiiy asarning ilk yaratuvchisi xalq bo'lganidek, bu asarlarga muayyan munosabat bildiruvchi ham xalqdir. SHu jihatdan adabiyotning boshlanishi folklorda ekanligini tan olar ekanmiz, badiiy ijod haqidagi fikrlarning (garchi ibtidoiy bo'lsa ham) ildizlari xalq donishmandligiga borib taqalishi tabiiydir. SHunday ekan, o'zbek adabiy tanqidining manbalarini badiiy ijod taraqqiyoti bilan bog'lik ravishda shakl jihatdan ikkiga ajratish mumkin: 1) Og'zaki, 2) YOzma manbalar. Bulardan og'zaki shakl juda qadimiy bo'lib, kishilarning muayyan asarlardan zavqlanishi, ta'sirlanishi yoxud qoniqmasligini ifodalovchi fikrlari, qator asarlar haqidagi nutq, suhbat, maqtovlar, bahslar va og'zaki baholashlar nazarda tutiladi. Xalq ommasining badiiy asarlarga og'zaki bahosi, tabiiyki, qadimgi xalq qo'shiqlari, termalar, epos

va boshqa folklor namunalariga ijobiy va salbiy munosabatidan boshlangan. Xalq insonparvarlik, vatanparvarlik, osayishtalik va boshqa ijobiy fazilatlarni ulug'lovchi asarlarni yuksak baholagan holda ayrim asarlardagi insonni tahqirlovchi va ja holatni targ'ib qiluvchi jihatlarni rad etgan

Og'zaki mushoira va adabiy anjumanlar suhbatlari keyinchalik mumtoz adabiyotga o'tib, yozma manbalarda aks etdi. Jumladan Navoiy, Xusayn Voiz Koshifiy, Xondamir, Vosifiy, Sovajiyarning asarlarida buning ko'plab namunalari bor.

Umuman, badiiy asarlar haqidagi an'naviy og'zaki fikrlar bugungi adabiy tanqidchiligimizda yozma shaklda kitobxon taqrizi tarzida uchraydi.

O'zbek adabiy tanqidining shakllanishidagi ikkinchi yozma manba ancha ko'lamdor bo'lib, adabiy va ilmiy xarakterdadir. Bu hol adabiy-tanqidiy qarashlarning, yuqorida ta'kidlanidek, o'tmishda qorishiq holda bo'lganligi, ular turli til, asar va yo'nalishlardagi manbalarda turfa saviyada va maqsadlarda bitilgani bilan izohlanadi. Ularda badiiy so'zning mohiyati, tasvir uslublari, obrazli fikr, she'riy san'atlar, qofiya va aruz ilmi, ijodkorlar tasnifi, xos belgilari, adabiy jarayon xususiyatlari kabi masalalar keng o'rin olgan. Tanqidiy fikrlar ana shu masalalar asnosida adabiyot tarixi va nazariyasi bilan bog'liq holda ifoda etilgan. O'zbek adabiy tanqidiga zamin bo'lgan asosan turkiy va fors tillaridagi yodgorliklarni ifoda mohiyatiga ko'ra ikki guruhga ajratishni ma'qul ko'rdik:

- 1) She'riy asarlar.
- 2) Ilmiy-nazariy asarlar, maqolalar.

Birinchi guruhga mansub asarlar shakl jixatdan turlicha bo'lib, g'azal, qit'a, masnaviy, soqiynoma kabi janrlarni, muqaddimotni shuningdek epik asarlardagi ayrim boblarni, faxriyani o'z ichiga oladi. Ikkinchi guruh esa ilmiy adabga oid asarlardan, tazkira, nasixatnoma, manoqiblar va risola va maqolalardan iborat.

She'riy asarlardagi adabiy-tanqidiy fikrlar so'z qudrati, she'r va shoirlik fazilatlari, muayyan ijodkorlar asarlariga munosabatini aks ettiradi. Bularga konkret asarlar tarkibidagi qator bandlar yoki bo'limlar hamda maxsus she'rlar bag'ishlanishi mumkin. Ko'pincha bu jihatdan qit'a, soqiynoma va masnaviy qo'l keladi. Jumladan, Navoiyning "Xazoyinul- maoniy" sidagi soqiynomada Hasan Ardasher, SHayx Suxayliy, Tufayliy va boshqalarning ijodiyoti, badiiy salohiyatidagi o'ziga xosliklar, shu bilan birga ayrim shoirlar asarlaridagi qusurlar haqida ma'lumotlar beriladi

Mumtoz adabiyotda yaratilgan dostonlar tarkibdagi ayrim fasl va boblarda adabiy- tanqidiy fikrlar asosan shoirlik va nazm haqida boradi. SHu munosabat bilan badiiy ijod xususida qator mulohazalar tug'iladi. Firdavsiyning "SHohnomasi", Nizomiy "Panji Ganji", YUsof XosHojib-

ning "Qutadgu bilik", Navoiy "Xamsa"si, "Lison ut-tayr"i, Nishotiyning "Husn va Dil" dostoni va boshqa epik asarlarda buning yorqin namunalari bor.

She'riy asarlarga, xususan devonlarga muallif tomonidan nas-riy yo'lda bitiladigan muqaddimalarda ham adabiy-tanqidiy fikr-lar aks etadi. Ular devon mazmuniga yoki uning tuzilishiga oid ayrim jihatlarni izohlaydi yoxud to'ldiradi. Bunday muqaddimalarning klassik namunasi Navoiyning "Bade' ul-bidoya", "Navodir ul-nihoya" va "Xazoyinul-maoniy" devonlariga, mashhur shoir Ogahiyning "Tavizul oshiqin" devoniga bitilgan muqaddimalaridir. Navoiy muqaddimalarida shoirning g'azal to'g'risidagi nazariy qarashlari, devon tuzish tartibi haqidagi fikrlari bilan birga hisrav Dehlaviy, Xoja Xofiz Xorazmiy, Sakkokiy, Lutfiy ijodi xususiyadagi qarashlari ham aks etganki, bular adabiy-tanqidiy tafakkur rivojiga ta'sir ko'rsatadi.

Muxtasar she'riy janrlar yoxud dostonlar tarkibida uchraydigan faxriya asosan shoirlar haqidagi qarashlarni ifoda etadi. Bunda muallif bir tomondan o'z ijodini biror mashhur shoir ijodi bilan tenglashtirsa, ikkinchi tomondan, o'z she'rlarining qiymati va ahamiyatiga ishora qiladi. Prof. B.Valixujayev yozganidek, badiiy ijodning ulkan namoyandalari faxriyaga murojaat etganda hech kimni kamsitmasdan, o'z ijodini mag'rurona namoyish etmasdan, boshqa shoir ijodining qiymati va ahamiyatini e'tirof etgan holda o'z she'riyati to'g'risida ham faxrlanib so'z yuritganlar.

XI asrdan boshlab ilmi adabning qismlari ayrim holda davom etib, aruz, qofiya va she'riy san'atlar haqidagi asarlar maydonga keldi. Abulhasan Saraxsiyning "Goyat ul-aruzayn", "Konz ul-kofiz", Muhammad Roduyoniyning "Tarjimon ul-baloga", Ahmad Manshuri Samarqandiyning "Ziynatnoma" asarlari shular jumlasidandir. Bular orasida Navoiyning "Mezonul avzon", Boburning "Aruz risolasi" alohida ajralib turadi.

Umuman eng qadimdan XX asrgacha SHarq G'arbda davom etgan estetik tafakkur, shu jumladan adabiy-tanqidiy qarashlar, ilmi naqada namunalari bo'lgan shakl va janrlar o'zbek adabiy tanqidining fan sifatida qaror topishiga zamin tayyorlagan omillardir. Ular orasida, tabiiyki, badiiy ijodni sharqona tafakkur asosida anglash tajribasi ustivor omildir.

Tayanch tushunchalar: adabiy-estetik tafakkur, tanqidchilik manbalari, adabiy-tanqidiy qarashlar, adabiy oqim, metod.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O'zbek adabiy tanqidi manbalari qanday tasniflanadi?
2. Adabiy-tanqidiy qarashlarni ifodalovchi she'riy parchalar qaysilar?

3. Ilmiy-nazariy janrlardagi qaysi asarlar adabiy tanqid manbalari sanaladi?
4. Ilmiy adabga oid asarlarni qisqacha ta'riflang.
5. Soqiynoma, faxriya, muqaddimotlardagi adabiy-tanqidiy fikrlarga namunalar yozing.
6. Alisher Navoiy va Davlatshoh Samarqandiy tazkiralari asosida muxtasar konspekt tayyorlang.

A D A B I Y O T L A R :

1. Davlatshoh Samarqandiy "SHoiralar bo'stoni ("Tazkirat ush-shuaro"), Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent. 1981.
2. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. UzFA nashriyoti. Toshkent. 1961.
3. Alisher Navoiy. "Xazoyin ul-ma'oni" deyoichasi. 3-jild.-Fan.Toshkent.1988. 9 - 22 b.

3 – MAVZU: ADABIY TANQIDNING O'ZIGA XOSLIGI

Ma'ruza mashg'uloti ta'lim texnologiyasining modeli

O`quv vaqti: 80 minnut	Talaba soni
O`quv mashg`ulotining tuzilishi Ma'ruza rejasi	1 O'zbek adabiy tanqidchiligi xususiyatlari 2. O'zbek adabiy tanqidchiligi taraqqiyoti 3. Ilmiy va badiiy tafakkurning tanqidchilikda namoyon bo'lishi
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi : Talabalarda O'zbek adabiy tanqidchiligi taraqqiyoti xususida tushuncha hosil qilish.</i>	
Pedagogik vazifalar: YAngi mavzu bilan tanishtirish, mavzuga oid ilmiy	O`quv faoliyatining natijalari: Talabalar O'zbek adabiy tanqidchiligi taraqqiyoti haqida tasavvurga ega bo'ladilar, asosiy ma'lumotlarni

atamalarni ochib berish, asosiy maslalar bo'yicha tushunchalarni shakllantirish.	kospektlashtiradilar.
Ta' lim usullari:	BBB, "Klaster" , ma' ruza
O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli	Ommaviy
Ta' lim vositalari	Slaydlar, plakat, jadval
Qayta aloqa usullari va vositalari	Savol javob

O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi

Ishlash bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni				
	O`qituvchining	Talabaning			
1 bosqich 1.1 O`quv xujjatlarini to`ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min). 1.2 O`quv mashgulotiga kirish (10min)	1.1 Psixologiya fanining predmeti O'zbek adabiy tanqidchiligi manbalarii haqida ma' lumotlar beriladi.O`quv mashgulotiga kirish davomida dastlab talabalarga BBB jadvali taklif etiladi va uning <i>Bilaman, Bilishni xoxlayman</i> grafalari to`ldiriladi. <table border="1" data-bbox="614 1966 1157 2040"> <tr> <td><i>Bilaman</i></td> <td><i>Bilishni hohlayman</i></td> <td><i>Bilib oldim</i></td> </tr> </table>	<i>Bilaman</i>	<i>Bilishni hohlayman</i>	<i>Bilib oldim</i>	Tinglashadi. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. Adabiy tanqidchilik manbalari bo'yicha dastlabki tushunchalarini ifodalovchi ma' lumotlarni BBB jadvaliga tushiradilar
<i>Bilaman</i>	<i>Bilishni hohlayman</i>	<i>Bilib oldim</i>			

2 bosqich Asosiy 50 min	2.1. Jadvalning ikkita grafasi to'ldirilganidan so'ng ma'ruza boshlanadi. O'zbek adabiy tanqidchiligi manbalari tasnifi bo'yicha tushunchalarni o'zgarib borishi. 2.2. Tanqid tarixiga asos bo'lgan dastlabki manbalar va ularning o'ziga xos xususiyatlariga izox berish. 2.3. Navoiy – mumtoz adabiy tanqidchilik boshlovchisi Jadval yordamida tushuntirish olib borish.			Konspekt yozishadi, tinglashadi, Poetik va ilmiy asarlardagi qarashlar rejasi bo'yicha doskada klaster tuzishadi. Mavzu bo'yicha savollar beradilar.

3 bosqich. YAkuniy natijalar 15 min.	3.1 Mavzu bo'yicha xulosa qilish. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi manbalarining shakllanishi, va tarmoqlari yuzasidan umumlashtiruvchi fikr bildiriladi. 3.2 Talabalarga BBB jadvalini bilib oldim grafasini to'ldirish taklif etiladi, va o'quv mashg'ulotning maqsadiga erishish darajasi taxlil qilinadi 3.3 Mavzu yuzasidan o'quv vazifasi beriladi. Amaliy mashg'ulotga tayyorlanish	O'rganilgan mavzu bo'yicha olgan ma'lumotlarni BBB jadvalini yakuniy grafasiga tushiradilar.
---	--	--

Adabiyotshunoslik, badiiy adabiyot va boshqa fanlar bilan aloqasi. O'zbek tanqidchiligi tarixida ilmi naqd, ilmi bad'i singarilarning o'zni adabiy tanqidning vazifasi tanqid qilish emas, go'zallikni kashf etish ekanligi. XX asr o'zbek tanqidchiligida asosan tanqid, vulgar tanqidchilikning avj olganligi.

Mustaqillik davri tanqidchiligida ilmiylik, mantiqlikning kuchayganligi. Adabiy tanqidiy asarlarda poetika, semiotika, matn masalasiga e'tibor qaratilayotganligi.

O'zbek adabiy tanqidchiligi uzoq tarixiy taraqqiyotga ega bo'lib, bu taraqqiyotni davrlashtirishda turlicha qarashlar bor.

O'zbek adabiy tanqidchiligi taxminan 11-12 asrlik qadimiy va boy tarixga ega. SHunday katta tarixga ega bo'lgan adabiy tanqidchiligimizni davrlashtirib o'rganish borasida mutaxassislarimiz bir to'xtamga kelishganlaricha yo'q. Vaholanki, bunday qadimiy va boy tarixga ega bo'lgan adabiy-nazariy qarashlarni puxta davrlashtirishsiz o'rganish g'oyatda mushkul. Bizningcha, adabiy-nazariy qarashlar tarixini dastlab ikki katta davrga ajratib o'rganish ma'qul: a) 9-10-asrlardan tortib 19 asr oxirlarigacha bo'lgan adabiy-tanqidiy qarashlar tarixi va b) XX asr o'zbek adabiy tanqidiy qarashlari tarixi. Adabiy-tanqidiy qarashlar tarixining **birinchi**

davrini shartli ravishda, **ilmi naqada** va **ikkinchi davrini xarakatdagi estetika** deb yuritish mumkin. Ayni choqda bu katta davrlarning har birini bir necha bosqichlarga ajratib o'rganish ma'qul ko'rinadi. CHunonchi, o'zbek adabiy tanqidchiligi tarixining birinchi davrini quyidagi bosqichlarga ajratib o'rgansa bo'ladi:

a) O'zbek adabiy tanqidchiligining tug'ilishi va shakllana borish bosqichi. Bu bosqich IX-XIV asrlarni o'z ichiga oladi. b) XV-XVI-asrlar adabiy-tanqidiy qarashlari – ilmi naqadaning yuqori bosqichi (A.Navoiyning estetik qarashlari); v) XVI-XIX-asrlarda o'zbek adabiy tanqidiy qarashlari. SHuningdek, o'zbek adabiy tanqidchiligining ikkinchi davri XX asr o'zbek adabiy-tanqidiy fikrlar tarixini ham bir necha bosqichga ajratib o'rganish mumkin. CHunonchi, a) Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiy tanqidiy qarashlari (1905-1917); b) Oktyabr to'ntarilishidan so'nggi davrdagi o'zbek adabiy tanqidiy qarashlari (1917-1941); v) Urushdan so'nggi davrda o'zbek adabiy tanqidchiligi (1945-2000).

“O'zbek sovet adabiy tanqidchiligi tarixi” (1987) ikki jildligi mualliflari o'zbek adabiy tanqidi bosib o'tgan yo'lni tubandagi davrlarga bo'lib tahlil etadilar:

1. O'zbek sovet adabiy tanqidining vujudga kelishi va ilk qadamlari (1917-1932);
2. O'zbek sovet adabiy tanqidi sotsialistik realizm estetikasi bilan qurollanish yo'lida (1932-1941);
3. Ulug' Vatan urushi davri o'zbek adabiy tanqidi tarixi (1941-1945);
4. Ulug' Vatan urushidan keyingi davr o'zbek adabiy tanqidchiligi (1945-1956);
5. Adabiy tanqidning tarixida yangi bosqichning boshlanishi (1956-1961);
6. Adabiy tanqidning tez va keng rivojlanish yo'liga kirishi (1962-1972);
7. O'zbek adabiy tanqidi yangi bosqichda (1972-1980).

O'z-o'zidan ko'rinayotirki, bunday davrlashtirishda sun'iylik ustuvor bo'lib, o'zbek adabiy tanqidining chinakam ilmiy tarixini – rivojlanish yo'lidagi haqiqiy manzarasi aks ettirilmagan. Bizningcha, (O.Safarov va boshqalar) o'zbek adabiy tanqidchiligi tarixining taraqqiyot yo'lini tubandagi bosqichlarga bo'lib o'rganishni taqozo etadi:

Birinchi bosqich – o'zbek adabiy tanqidchiligining paydo bo'lishi va shakllanishi tamoyillari (1905-1925);

Ikkinchi bosqich – o'zbek adabiy tanqidchiligi mafkuraviylashtirish jarayonida (1925-1950);

Uchinchi bosqich – o'zbek adabiy tanqidchiligi realizm uchun kurash yo'lida (1950-1980);

To'rtinchi bosqich – istiqlol mafkurasi va o'zbek adabiy tanqidchiligi (XX asrning 90-yillari va undan keyingi davr).

Bahodir Rahmonovning “O‘zbek adabiy tanqidchiligi” (2004) qo‘llanmasida o‘zbek adabiy tanqidchiligi taraqqiyotini quyidagicha davrlashtiradi: 1) sho‘ro davri o‘zbek adabiy tanqidchiligi; 2) ikkinchi jahon urushi davrida o‘zbek tanqidchiligi; 3) hozirgi o‘zbek tanqidchiligi.

Demak, “O‘zbek sovet adabiy tanqidi tarixi”da tanqid tarixi katta ikki davrga – 1917-56-yillar, ya’ni sovet tuzimi va sotsializm qurilishidamda ikkinchi jahon urushidan keyingi tiklanish davriga, ikkinchisi esa 1956 yildan keyingi davrga ajratilgan, ba’zi ishlarda XX asr o‘zbek adabiy-tanqidiy fikrlar tarixi “xarakatdagi estetika” deb atalib, u xronologik asosida 1905-17-yillar, 1917-41-yillar va urushdan so‘nggi yillar(1945-2000) tarzida belgilangan. N.Xudoyberganov, A.Rasulovlarning “O‘zbek sovet adabiy tanqidchiligi” (Toshkent, 1990) darsligida esa “muayyan problemalar, ilmiy-estetik, adabiy-tanqidiy maqolalarni diqqat markaziga chiqarib, tanqidchiligidir tarixining muhim sahifalari ko‘zdan kechirilgan”. Ko‘rayapmizki, adabiy tanqid tarixini davrlash tarixi (o‘zbek adabiyotini davrlash kabi) xususida yagona qat’iy to‘xtamga kelishgani yo‘q. Bunda, nazarimizda, adabiy tanqidning o‘ziga xos tub xususiyatlari, ilmiy va badiiy tafakkurning xosilasi sifatida o‘zak jihatlari davrlashtirish uchun asos qilinib olinishi kerak. SHularni hisobga olgan holda, o‘zbek adabiy tanqidining XX asrdagi taraqqiyot bosqichlarini quyidagicha belgilashni ma’qul ko‘rdik. Birinchi bosqich-o‘zbek adabiy tanqidchiligidir tug‘ilish va shakllanish davri (XX asr boshidan 1934 yil). Ikkinchi bosqich-o‘zbek adabiy tanqidchiligi sotsialistik realizm ijodiy metodi davrida (1935dan1980 yilgacha). Uchinchi bosqich-yangicha tafakkur va ijod erkinligi davrida adabiy tanqidchilik (1980-2000).

Albatta, bu uch katta bosqich tarkibida ham turli bosqichlar bo‘lishi mumkin. Masalan, milliy uyg‘onish, jadidchilik davri, 20-30-yillar, ikkinchi jahon urushi davri, turg‘unlik va milliy istiqloq davrlari kabi. Bular ham shartli bo‘lganligi sababli ma’ruzachi ularga o‘z hoxishiga ko‘ra ijodiy yondoshishi mumkin. Ammo har qanday yondoshua har bir davr tanqidchiligiga xos etakchi xususiyatlarni diqqat markazida bo‘lishiga mone’lik qilmaslik kerak.

XX asr o‘zbek tanqidchiligidir yangi, yuqori bosqich 80-yillarning ikkinchi yarmidan bugungi davrni qamrab oladi. Bu bosqich oshkoralik, demokratlashuv va milliy istiqloq kabi ijtimoiy o‘zgarishlar tufayli yuz bergan yangi tamoyillar bilan xarakterlanadi. Xususan, mustaqillik davrida mamlakatimiz xayotining barcha sohalarida yuz bergan sifat o‘zgarishlari badiiy adabiyotga ham, adabiyotshunoslikka ham ta’sir ko‘rsatdi

XX asr insoniyat ilmiy va badiiy tafakkuri tarixida alohida bosqichdir. Bu asr ijtimoiy tuzumlarning almashinuvi, turli sotsial larzalar, inson milliy ongining qaytadan uyg‘onishi kabi xususiyatlar bilan ajralib turadi. Bunday xususiyatlar ma’naviy hayotga ham aloqador bo‘lib, umumjahon tsivilizatsiyasini tashkil etuvchi milliy madaniyatlarda o‘ziga xos tarzda aks etadi. Insonning o‘zligini anglashga intilishining kuchayishi, ilmda esa ruhiy-psixologik taxlil yo‘nalishining kengayishi XX asr umuminsoniy tafakkuridagi muhim jihatdir. SHu orqali inson

ichki olamining pinhoni qatlamlariga chuqurroq nazar tashlash bilan birga ijtimoiy tuzum muammolariga ishora qilish tobora kuchayib bordi. Bu jarayonda shubhasiz badiiy ijod va uning ko'zgusi bo'lmish adabiy tanqid ham faol ishtirok etdi.

XX asrdagi ijtimoiy o'zgarishlarning yangicha ilmiy va badiiy tafakkurni, fikrlash tarzini taqozo qilish va uning oqibati sifatida ilm-fanda yangicha qarashlarning tug'ilishi o'zbek adabiyotida va "xarakatdagi estetika"- tanqidda ham o'z ifodasini topdi. Bu avvalo shu asrdagi tarixiy sharoit, iqtisodiy-madaniy, ma'naviy xayotdagi tub burilishlar, sifat o'zgarishlar natijasidir. XX asrdagi uch ijtimoiy tuzum-chorizm, sotsializm va milliy istiqlol davrlari o'zaro almashdi, har birining o'ziga xos ma'naviy

qiyofasi, tafakkur tarzi, badiiy-ilmiy fikrlash yo'nalishi bor edi. Lekin XX asrda umumjahon tafakkuriga xos ustivor yo'nalish va badiiy fikrlashning o'zak tarzi-realizm bo'lib qolaverdi. Uning atrofida va u bilan yonma-yon goh yashab, goh so'nib turgan turli oqim va metodlar haqida qanchalik gapirmaylik, baribir XX asr adabiy-badiiy ijodning yutuqlari avvalo realizm va realistik adabiyot bilan izohlanadi. Bu yutuqlarni realizmga xos universal tasvir imkoniyatlari, tarixiylik, haqqoniylik, sotsial va psixologik determenizm va badiiylik kabi tamoyillar ta'min etdi.

XX asr o'zbek xalqining ma'naviy hayotida ham o'chmas iz qoldirdi: yangi o'zbek adabiyoti va adabiy tanqidchiligi ana shu asrda shakllandi va yuqorida bayon etilgan umumjahon ilmiy-badiiy jarayonning ajralmas qismi sifatida, undagi ko'p jihatlarni milliy zaminda qabul qildi va rivojlantirdi.

60-70 yillardagi adabiy tanqidchilik rivojida qator jihatlar yorqin ko'rina boshlandi. Bular adabiy jarayonni yaxlit o'rganish, adabiy merosga yangicha munosabat, ruxiy-qiyosiy, tipologik, falsafiy-estetik taxlilga e'tiborning kuchayishi va janrlar turfaligining davom etishi.

Bu davrda keng tarqalayotgan badiiy asarga yaxlit sistema sifatida qarash, uni g'oyaviy-estetik taxlil qilish asosiy yo'nalishga aylandi. Bunday yondoshuv tanqidchilikdagi vulgar-sotsiologik taxlil va madhiyabozlikning umrini qiska qildi, asossizligini ko'rsatdi.

Madaniy merosga e'tiborning kuchaygani bu davr adabiy tan-qidchiligining muhim xususiyatlaridan biridir. Ayniqsa navoiyshunoslik va mumtoz adabiyot namoyandaari ijodini izchil o'rganish kuchaydi. Bu sohada V.Abdullaev, N.Mallaev, G.Karimov, P.SHamsiev, X.Sulaymonov, B.Valixo'jaev, A.Hayitmatov, A.Abdugafurov va boshqalar adabiyot tarixi bilimdonlari sifatida samarali ishladilar. Ular tomonidan o'zbek adabiyoti tarixiga oid monografiyalar, darsliklar tayyorlandi, mumtoz adabiyotimizning nodir asarlari nashr etildi, hozirgacha noma'lum bo'lgan ijodkorlar kashf etilib, ular merosi adabiyot xazinasini boyitdi. SHu davrda o'zbek adabiyoti tarixi besh tomligi, XX asr o'zbek adabiyoti ko'p tomligi, Navoiy asarlarining o'n besh tomligi kabi yirik tadqiqotlar maydonga keldi. SHu bilan birga mumtoz va zamonaviy

adabiyotning nazariy masalalarni tadqiq etish har qachongidan ham kuchaydi. Xususan adabiyotda an'ana va ijodiy xoslik, mazmun va shakl uygunligi, adabiy turlar va janrlar, poetika, kompozitsiya, badiiy til kabi masalalar adabiy tanqidida salmoqli o'rin tutdi. Adib mahoratini belgilash, xarakter yaratish tamoyillari haqida M.Qo'shjonov, badiiy asarni g'oyaviy-badiiy taxlil etishda O.SHarafiddinov, adabiyot nazariyasini yangi estetika asosida boyitishda I.Sulton alohida ajralib turdi.

XX asr o'zbek adabiy tanqidchiliginin yuqoridagi asosiy xususiyatlari (albatta ularning hammasi qamrab olinmadi) uzoq davom etgan adabiy-tanqidiy tafakkur rivoji zaminida tayyorlandi. Bu jarayon turli bosqichlarni o'z ichiga olib, har bir bosqichda muayyan xususiyatlar ustivor bo'lsa, ba'zilar shakllana boshladi. XX asrda bu jarayon taraqqiy etib, adabiy tanqidni fan sifatida shakllantirdi va taraqqiyot yo'liga chiqardi. Lekin adabiy tanqidning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini davrlashtirishda turli tamoyillar asos qilinib, bular orasida xronologik yondoshuv keng qo'llaniladi. "O'zbek sovet adabiy tanqidi tarixi"da (I-II tomlar.Toshkent.1987) tanqid tarixi katta ikki davrga - 1917-56 yillar, ya'ni sovet tuzumi va sotsializm qurilishi hamda ikkinchi jahon urushidan keyingi tiklanish davriga, ikkinchisi esa 1956 yildan keyingi davrga ajratilgan, ba'zi ishlarda XX asr o'zbek adabiy-tanqidiy fikrlar tarixi "harakatdagi estetika" deb atalib, u xronologiya asosida 1905-17 yillar, 1917-41 yillar va urushdan so'nggi yillar (1945-2000) tarzida belgilangan. N.Xudoyberganov, A.Rasulovlarning "O'zbek sovet adabiy tanqidchiligi" (Toshkent.1990) darsligida esa "muayyan problemalar, ilmiy-estetik, adabiy-tanqidiy maqsadlarni diqqat markaziga chiqarib, tanqidchilimiz tarixining muhim sahifalari ko'zdan kechirilgan". SHu mualliflarning "O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi" bo'yicha oliy maktablar uchun tuzgan dasturida (1987) tanqidchilik tarixi muhim hodisalar bilan bog'liq davrlar asosida belgilanib, yirik ikkita bosqichga ajratilgan. Ko'rayapmizki,adabiy tanqid tarixini davrlash tarixi (o'zbek adabiyotini davrlashtirish kabi) xususida yagona qat'iy to'xtamga kelishgani yo'q. Bunda, nazarimizda, adabiy tanqidning o'ziga xos tub xususiyatlari, ilmiy va badiiy tafakkurning hosilasi sifatida o'zak jihatlari davrlashtirish uchun asos qilinib olinishi kerak. SHunday taqdirda ham muayyan davr nazarda tutiladi, lekin tanqid takomilini ma'lum yillar emas, balki spetsifik belgilar, tanqidga xos ilmiy kashf etish tarzi belgilashi kerak. SHularni hisobga olgan holda, o'zbek adabiy tanqidining XX asrdagi taraqqiyot bosqichlarini (ularning mutloq to'g'ri ekanini da'vo qilmagan holda) quyidagicha belgilashni ma'qul ko'rdik. Birinchi bosqich -o'zbek adabiy tanqidchiligining tug'ilish va shakllanishi davri (XX asr boshidan 1934 yil).

Ikkinchi bosqich - o'zbek adabiy tanqidchiligi sotsialistik realizm ijodiy metodi davrida (1935 dan 1980 yilgacha).

Uchinchi bosqich - yangicha tafakkur va ijod erkinligi davrida adabiy tanqidchilik (1980-2000).

Albatta, bu uch katta bosqich tarkibida ham turli bosqichlar bo'lishi mumkin. Masalan milliy uyg'onish, jadidchilik davri, 20-30 yillar, ikkinchi jahon urushi davri, urushdan keyingi davr, turg'unlik va milliy istiqloq davrlari kabi. Bular ham shartli bo'lgani sababli ma'ruzachi ularga o'z xoxishiga ko'ra ijodiy yondoshishi mumkin. Ammo, har qanday yondoshuv har bir davr tanqidchiligiga xos etakchi xususyatlarni diqqat markazida bo'lishiga monelik qilmasligi kerak.

TAYANCH TUSHUNCHALAR

Realizm va romantizm – badiiy ijod metodlari

Germenevtika – talqin nazariyasi

“CHig'atoy gurunggi” – 20-yillardagi adabiy tashkilot

Ilmi g'ariba – asarlarni tushunishdagi yuksak ilm

Ontologiya – asarning mangu yashash ilmi

Haqqoniylik – adabiy tanqidning asosiy xususiyati.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. XX asr o'zbek adabiy tanqidchiligining dastlabki vakillaridan kimlarni bilasiz?
2. 30 - yillar adabiy tanqidchiligidagi asosiy masalalar qaysilar?
3. hozirgi adabiy tanqidchilarning eng mashhurlari kimlar?
4. XX asr o'zbek adabiy tanqidchiligida paydo bo'lgan yangi janrlarni xarakterlang.
5. XX asr o'zbek adabiy tanqidchiligi tarixini davrlashtirishga oid fikrlaringizni yozib keling.

A D A B I Y O T L A R :

1. 5. Safarov O, YO'ldoshev B, Ahmedova SH. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. Buxoro. 2003.
2. N.Xudoyberganov, A.Rasulov. O'zbek sovet adabiy tanqidchiligi. Toshkent. 1990.
3. A.Rasulov. Tanqidchilгимiz ufqlari. Toshkent. 1985.4. Kamalak. To'plam. Toshkent. 1990.

4 – MAVZU: O'ZBEK ADABIY TANQIDCHILIGIDA TAZKIRA

Ma'ruza mashg'uloti ta'lim texnologiyasining modeli

O`quv vaqti: 80 minnut	Talaba soni
O`quv mashg`ulotining tuzilishi Ma' ruza rejasi	1.Uslubiy yo`nalishlar haqida ma' lumot. 2. Rublitsistik yo' nali sh haqida 3.Falsafiy yo' nali sh va janrlar tahlili 4.Xissiy-obrazli yo' nali sh
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi : Talabalarda uslubiy yo' nali shlar haqida tushuncha hosil qilish.</i>	
Pedagogik vazifalar: Yangi mavzu bilan tanishtirish, mavzuga oid ilmiy atamalarni ochib berish, asosiy maslalar bo`yicha tushunchalarni shakllantirish.	O`quv faoliyatining natijalari:</b> Talabalar uslubiy yo' nali shlar haqida tasavvurga ega bo`ladilar, asosiy ma' lumotlarni kospektlashtiradilar.
Ta' lim usullari:	BBB, "Klaster" , ma' ruza
O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli	Ommaviy
Ta' lim vositalari	Slaydlar, plakat, jadval
Qayta aloqa usullari va vositalari	Savol javob

O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi

Ishlash	Faoliyat mazmuni
---------	------------------

bosqichlari, vaqti								
	O`qituvchining	Talabaning						
1 bosqich 1.1 O`quv xujjatlarini to`ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min). 1.2 O`quv mashgulotiga kirish (10min)	1.1 O'zbek adabiy tanqidda uslubiy yo'nalishlar haqida ma'lumotlar beriladi. O`quv mashgulotiga kirish davomida dastlab talabalarga BBB jadvali taklif etiladi va uning <i>Bilaman, Bilishni xoxlayman</i> grafalari to`ldiriladi. <table border="1"> <tr> <td><i>Bilaman</i></td><td><i>Bilishni hohlayman</i></td><td><i>Bilib oldim</i></td></tr> <tr> <td></td><td></td><td></td></tr> </table>	<i>Bilaman</i>	<i>Bilishni hohlayman</i>	<i>Bilib oldim</i>				Tinglashadi. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. Adabiy tanqidchilik manbalari bo'yicha dastlabki tushunchalarini ifodalovchi ma'lumotlarni BBB jadvaliga tushiradilar
<i>Bilaman</i>	<i>Bilishni hohlayman</i>	<i>Bilib oldim</i>						
2 bosqich Asosiy 50 min	2.1. Jadvalning ikkita grafasi to`ldirilganidan so`ng ma'ruza boshlanadi. O'zbek adabiy tanqidda uslubiy yo'nalishlar bo'yicha tushunchalarni o`zgarib borishi. 2.2. O'zbek adabiy tanqidda uslubiy yo'nalishlar ularning o'ziga xos	Konspekt yozishadi, tinglashadi, Poetik va ilmiy asarlardagi qarashlar rejasi bo'yicha doskada klaster tuzishadi. Mavzu bo'yicha savollar beradilar.						

	xususiyatlariga izox berish. 2.3. Publitsistik yo'nalish bo'yicha Jadval yordamida tushuntirish olib borish.	
3 bosqich. YAkuniy natijalar 15 min.	3.1 Mavzu bo'yicha xulosa qilish. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi i ti manbalarining shakllanishi, va tarmoqlari yuzasidan umumlashtiruvchi fikr bildiriladi. 3.2 Talabalarga BBB jadvalini bilib oldim grafasini to'ldirish taklif etiladi, va o'quv mashg'ulotning maqsadiga erishish darajasi taxlil qilinadi 3.3 Mavzu yuzasidan o'quv vazifasi beriladi. Amaliy mashg'ulotga tayyorlanish	O'rganilgan mavzu bo'yicha olgan ma'lumotlarni BBB jadvalini yakuniy grafasiga tushiradilar.

Bayoz, namuna, xotiralar, o'zbek adabiy tanqidchiligida biografik metod: hasbi hol, manoqib, tanqidiy ocherk, adabiy portret, badiiy lavhalar. Adabiy tanqid, nasr, nazm singari o'z mustaqil

janrlariga ega ekanligi. Tanqidning maqola, portret, ocherk singari janrlarida ko'plab asarlar yaratilganligida XXI asr o'zbek tanqidchiligida badii, xotira singari janrlarning avj olayotganligi. Taqriz poetikasidagi o'zgarishlar. Taqriz-o'y, taqriz-bahs, taqriz-dialog singarilar.

Badiiy tanqid asarlari turli uslubiy yo'nalishlar va janrlarda maydonga keladi. Uslubiy yo'nalishlar deganda badiiy tanqid asarlarining shakl va mazmun jihatdan o'zaro farqlarini, tanqidlashning bayon uslubidagi va masalaga yondoshishdagi o'ziga xosliklari yig'indisini tushunamiz. Uslublar tanqididagi dunyoqarashga o'ziga xos manerasiga tanlangan ob'ektni qo'llashimizda tahlillar etilishiga ham bo'liq. SHularga asosan adabiy tanqidchilik tarixida uchta uslubiy yo'nalish ma'lum: Publitsistik yo'nalish. Falsafiy yo'nalish. Hissiy-obrazli yo'nalish. Har bir tanqidlash o'z salohiyatiga ko'ra mana shu yo'nalishlarning biriga mansub bo'ladi. Bu yo'nalishlardan biri tanqidlash ijodida ustuvor qilsa boshqalari tendentsiya holda ko'rinishi mumkin. Adabiy tanqidchilikda eng ko'p tarqalgan uslub publitsistik yo'nalishdir. Bunday yo'nalishda hayot hodisalari va ularning tartibini tahlil etish birinchi o'rinda turadi. Bunday uslubiy yo'nalish talqinida ilmiy mushohada ya'ni akademizm uslubi ko'proq ko'zga tashlanadi. Publitsistik yo'nalishning eng yaxshi namunasi rus adabiy tanqidchiligida Belinskiy ijodida ko'rinadi. Uning tanqidiy asarlarida xususan, Pushkin, Lermontov ijodini tahlil etgan maqolalarida publitsistik ohang kuchli, ya'ni bu asarlar tahlili XIX asr ijtimoiy muhiti bilan krepostnoylik tuzumiga munosabat aspektida jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda olib qaraladi. Rus revolyutsion demokratlari CHernishevskiy, Dobrolyubov maqolalarida ham mana shunday publitsistik ohangni ko'ramiz. O'zbek adabiy tanqidchiligida publitsistik yo'nalish 20-yillardayoq boshlangan.

G'oyaviy-estetik yoxud sistemali tahlil. Adabiy tanqid adib ijodi yoki adabiy jarayonni baholash va anglash vazifasini tahlil orqali amalga oshiriladi. baholash-badiiy asarga turlicha yondoshishlar, taxlilning har xil shakllaridan foydalanish tufayli erishiladigan umumlashmalardir. Taxlil orqali badiiy ijodning, muayyan asarning badiiy-estetik qimmati, ijtimoiy mohiyati, voqelikni badiiy kashf etish xususiyatlari ochib beriladi. Bunda taxlilning mazmuni turli shakllar, metodlar va yondoshuvlar, vositalar orqali ifoda etiladi. Fan sifatidagi adabiy tanqidda goyaviy-estetik taxlil uning ustivor asosi va ko'lamdor turidir. 30-yillardan 50 yillarning o'rtalarigacha o'zbek adabiy tanqidchiligida g'oyaviy-estetik taxlil o'zini namoyon qila olmadi. SHu davrlardagi mafkuraviy kurash, vulgar sotsiologizmi, tor sub'ektiv qarashlar bunga monelik qilardi. Natijada bu davrda san'at asariga ko'pincha g'oyaviy tomondan yondoshib, uning badiiy-estetik jihatiga etarli e'tibor berilmadi.

G'oyaviy-estetik yoxud sistemali tahlil 50-yillarning o'rtalari va 60-yillar boshida rivojlana bordi. Bunga, bir tomondan, professional tanqidchilar saviyasi o'sganligi, tanqidiy-estetik fikr

rivoj topayotgani, ikkinchi tomondan, o'zbek adabiyotining turli janrlarida qator chinakam badiiy asarlar yaratilgani imkon berdi. Natijada sistemali tahlil faqat muayyan asarlargagina emas, balki ayrim nazariy masalalar, jumladan janrlar takomili, san'atkor mahorati muammolariga ham e'tiborni kuchaytiridi, o'rtamiyonachilik, madxiyabozlik kabi illatlarni fosh etish kengaya bordi. Bu sohada M.Qo'shjonov, O.SHarafiddinov, X.YOqubov, I.Sulton va sal keyinroq U.Normatov, B.Nazarov, S.Sodiq, S.Mamajanov, I.G'afurov, A.Rasulov, N.Xudoyberganov va boshqa tanqidchilar samarali faoliyat ko'rsatdilar. A.Qodiriyning " O'tgan kunlar", A.Qahhorning "Sinchalak", " O'g'ri", G'.G'ulom "SHum bola", O.YOqubovning " Diyonat", A. Oripovning "Ayol" asarlari o'zbek adabiy tanqidchiligidagi sistemali tahlilga ob'ekt bo'lib, ko'plab taqriz va tadqiqotlar maydonga keldi.

"Sinchalak" qissasi haqidagi g'oyaviy-estetik tahlilning eng yaxshi namunalari O.SHarafiddinov va M.Qo'shjonov qalamiga mansubdir. O.SHarafiddinovning "Kelajakka chorlovchi qissa" taqrizi uch qismdan iborat. Birinchi va ikkinchi qismlarda "Sinchalak"ning dolzarb mavzusi va zamonaviyligi haqida fikr yuritilsa, uchinchi qismda qissadagi g'oya, mavzuning ifodalanishi tarzi yoxud yozuvchi mahorati haqida bahs etiladi. Ularda munaqqid qissani chuqur, izchil sistema asosida taxlil qilar ekan, undan chinakam san'at asariga xos jihatlarni topa oladi, ijodkor mahoratini qissaning har bir qismidagi ifodasi misolida ko'rsata oladi. Natijada tanqidchining asarga tanqidning bosh mezoni- haqqoniylik va go'zallikni anglash talabi asosida yondoshgani, undagi ilmiylik nihoyatda teran va chuqur ekani namoyon bo'ladi.

Taniqli tanqidchi M.Qo'shjonovning g'oyaviy-estetik taxlil namunasi bo'lgan "Sinchalak" nomli taqrizda boshqacha yondoshuvni ko'ramiz. Avvalo taqrizHajmining ko'lamdorligi unga monografik ruh bag'ishlagan. Ikkinchidan, taqrizda tanqidchi ko'proq xush ko'radigan jihat-xarakterlar psixologizmi va hayot haqiqatining ifoda etilishiga asosiy diqqat qaratilgan. SHunga ko'ra taqrizning nazariy-amaliy xususiyatga ega ekanligi ko'rinadi. Taqrirda qissaning eng muhim nuqtalari va o'rinlari alohida ta'kidlanib, mazmunga munosabat bildiriladi. Lekin u qayta hikoya qilinmaydi, balki g'oya va badiiylik uyg'unligini ta'minlashda syujet, obraz, badiiy til, kompozitsiya kabi qismlarni tasvirlashda adib mahoratini ochib berishga xizmat qilgani uqtiriladi. Qissa qaxramonlari va voqealari o'z g'oyasi, izchil mantig'i nuktai nazardan individual, ayni choqda muayyan ijtimoiy guruhga mansub ekanliklari ishonarli tasvirlangani ko'rsatilgan. Saida, Qalandarov, Nosirov va boshqa obrazlar taxlili buning dalilidir. Umuman M.Qo'shjonov taqrizi sinchiklab taxlil qilish orqali kitobxon e'tibor bermaydigan oddiy detallar va iboralardagi katta mazmuning o'rnini belgilash jihatdan ham ibratlidir.

G'oyaviy-estetik taxlil faqat bir asarga bag'ishlangan taqriz va monografiyalardagina emas, balki problematik va obzor maqolalarda ham voqe bo'ladi. Bu yo'nalishning lirika sohasidagi ilk namunalaridan biri bo'lgan O.SHarafiddinovning " Zamon, qalb, poeziya" to'plamidan keyin

I.G'afurovning "She'riyat - izlanish demak", "YUrak-alanga", U.Normatovning "Nasrimiz ufqlari", M.Qo'shjonovning "Mohiyat va badiyat", shuningdek S.Mamajanovning G'afur G'ulom nasri, N.Xudoyberganovning o'zbek she'riyati haqidagi va boshqa ko'plab taqriz va obzor maqolalar maydonga keldi.

"Zamon, qalb, poeziya" to'plamida munaqqid 50-yillardagi o'zbek she'riyatini taxlil qilib, insonni to'la va butun murakkablikda tasvirlash lozim, degan fikrni ilgari suradi, poeziya tanqidchiligida birinchilardan bo'lib intellektual she'riyat, uning xususyatlari va namoyandalari haqida mulohaza qiladi. Intellektuallik-mushohadaning keng va teranligi, fikrning etuk va yangiligidir. Bu mezon keyingi davr she'riyati mohiyati va qiyofasini belgilashda keng qo'llaniladi. 60-yillarning ikkinchi yarmidan boshlangan yangicha fikrlash, inson va hayotni tadrijiy takomilida, barcha murakkabliklar bilan tasvirlash, haqiqatni aytishga intilish kabi xususiyatlar keyingi davrda ancha keng yoyildi. E.Vohidov, A.Oripov, O.Matjon, R.Parfi, X.Xudoyberdieva va boshqalarning shu ruhdagi asarlari adabiy tanqidchilik diqqatini tortdi.

80-90 yillarda g'oyaviy-estetik tahlilning qamrov doirasi yanada kengaydi, badiiy ijodning nazariy masalalarini yoritishda eng yaxshi asarlarni yaxlit tadqiq qilishga e'tibor kuchaydi. O.YOqubov, U.Hoshimov, SH.Xolmirzaev, T.Murod va boshqa adiblar nasriy asarlarining g'oyaviy-badiiy taxlili keyingi davr o'zbek prozasidagi izlanishlar va yangi xususiyatlarni izohlashga imkon berdi. Bu izlanishlar faqat asarlarning shakliga emas, balki g'oyaviy-mazmuni, insonni badiiy kashf etishdagi tafakkur kuchi va mahoratiga aloqador ekanligini ko'rsatmoqda. hozirgi tanqidchilikda ham sistemali taxlil estetik tafakkurning etakchi shakllaridan biri bo'lib qolmoqda.

Tarixiy-funksional yondoshuv. Adabiy tanqidda tahlil tamoyillariga nisbatan "metod", "Yondoshuv", "o'rganish" kabi iboralar ko'p uchraydi. Biz bu metod terminini badiiy adabiyot va tanqidda realizim va romantizmga nisbatan qo'llash keng tarqalganini nazarda tutib, tanqid tahliliga nisbatan "Yondoshuv" deb atashni ma'qol ko'rdik. Bular tarixiy-funksional, tarixiy-biografik va tarixiy tipologik yondoshuvlardir.

Tarixiy-funksional yondoshuv adabiyotshunoslik bilan tanqidchilikning o'zaro yaqin aloqadorligini ifodalaydi, munaqqidlar adabiyotshunoslik masalalari bilan ham shug'ullandilar. Ilmiy tafakkurning bu ikki shakli bir-birini to'ldiradi va boyitadi. Bunday yondoshuv mumtoz adabiyotning ham, hozirgi adabiyotning ham muayyan masalalarini tadqiq qilishga bab-baravar aloqadordir.

Bunday yondoshuv badiiy asardagi mangu yashovchilik, asrlar va avlodlarga dahldorlik fazilatlarini kashf etadi. Masalan, Alisher Navoiy ijodi bilan qiziquvchilar tarixiy funksional yondoshuvga amal qilishadi, ular shoir asarlarining hozirgi zamonga, zamondoshlarga ta'siri, bugungi kun uchun ahamiyati masalalariga diqqat qiladilar. Bunda tadqiqotchi adabiyotshunos-

tanqidchi sifatida ish ko'radi. A.Qayumovning "Alisher Navoiy", "Abu RAYhon Beruniy", "Farxod va SHirin", Saddi Iskandariy" asarlari ham adabiyotshunoslik, ham tanqidchilik asarlari sanaladi.

SHuningdek, 60-70- yillarda chop etilgan M.Abdurahmonovanning "Sobir Abdulla", U.Normatovning "SHuhrat", M.Alievning "Turob To'la", B.Imomovning "Po'lat Mo'min" kabi tarixiy-biografik yo'nalishdagi tadqiqotlari ham adabiy tanqidchilikdagi mazkur janrning kamolotini belgilovchi muhim ilmiy ishlar qatorida turadi. Umuman, xulosa qilib aytganda, XX asrning 60-yillaridan boshlab, adabiy-tanqidiy jarayonda yozuvchining o'rni masalasiga qiziqish kuchayib, bu sohada ko'plab ilmiy-biografik risolalar maydonga keldi. Iste'dodli tanqidchilar adabiy-tanqidiy ocherklar, ilmiy maqolalar tajribalari asosida ish ko'rib, ko'plab tarixiy-biografik monografiyalar yozib, mazkur janrni keng taraqqiyot yo'liga olib chiqdilar. SHu narsani ham alohida qayd qilish kerakki,60-70 yillarda adabiy merosni oldingi davrlardagidan ko'ra chuqurroq va keng ilmiy tarzda o'rganishning yangi bir mukammal va ko'tarilishi bosqichiga ko'chishida tarixiy-biografik yo'nalishdagi risolalar, ilmiy tadqiqotlar alohida o'rin tutadi. O'zbek adabiy tan- qidchiligidagi tarixiy-biografik yondoshuv asosida yaratilgan risolalarda jaxon tanqidchiligining bu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari ham o'zlashtirildi. Ularning samarali ta'siri ham o'zbek adabiy tanqidchiligida tarixiy-biografik yondoshuv janrining ilmiy-nazariy asoslarda keng rivojlanishi va balog'atga etishuvida muhim omil bo'lib xizmat qildi.

TAYANCH TUSHUNCHALAR

Uslubiy yo'nalish, publitsistik yo'nalish, falsafiy yo'nalish, xissiy-obrazli yo'nalish
Mushtaraklik-umumiyxususiyatlar, tipologik belgilar O'ziga xoslik – munaqqidga xos xislatlar, boshqalardan farqlanuvchii jihatlar Tarixiy – biografik – badiiy asarning ijodiy tarixi, takolim haqidagi tahlil

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. G'oyaviy-estetik tahlilning asosiy belgilarini bilasizmi?
2. Tarixiy-funksional, biografik va tipologik yondoshuvning umumiy va xos xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?
3. Sistemali taxlil namunalari bo'lgan maqolalarni ro'yxat qiling.
4. Tarixiy-funksional yondoshuvni Navoiy ijodiga tadbiq qilib, referat yozing.
5. Tarixiy-biografik yondoshuv asosida qaysi adiblar ijodi yoritilgan?

A D A B I Y O T L A R :

1. O'zbek sovet adabiy tanqidi tarixi. I-II jildlar. Toshkent. 1987.

2. A.Rasulov. Tanqidchiligimiz ufklari. Toshkent. 1985.
3. M.Qo'shjonov. Saylanma. I-II jildlar. Toshkent. 1979.
4. O.SHarafiddinov. haqiqatga sadokat. Toshkent. 1989.
5. Safarov O, YO'ldoshev B, Ahmedova SH. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. Buxoro. 2003.

5 – MAVZU: YANGI O'ZBEK TANQIDCHILIGINING TUG'ILISHI

Ma'ruza mashg'uloti ta'lim texnologiyasining modeli

O`quv vaqti: 80 minnut	Talaba soni
O`quv mashg`ulotining tuzilishi Ma' ruza rejasi	1. Yangi o'zbek adabiy tanqidchiligi 2.Uning asosiy xususiyatlari 3.Jadid tanqidchiligi
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi : Talabalarda Estetik tahlil haqida tushuncha hosil qilish.</i>	
Pedagogik vazifalar: Yangi mavzu bilan tanishtirish, mavzuga oid ilmiy atamalarni ochib berish, asosiy maslalar bo`yicha tushunchalarni shakllantirish.	O`quv faoliyatining natijalari:</b> <b>Talabalar Estetik tahlil haqida tasavvurga ega bo`ladilar, asosiy ma' lumotlarni kospektlashtiradilar.
Ta' lim usullari:	BBB, "Klaster" , ma' ruza
O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli	Ommaviy

Ta'lim vositalari	Slaydlar, plakat, jadval
Qayta aloqa usullari va vositalari	Savol javob

O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi

Ishlash bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni			
	O`qituvchining		Talabaning	
1 bosqich 1.1 O`quv xujjatlarini to`ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min). 1.2 O`quv mashgulotiga kirish (10min)	1.1 O`zbek adabiy tanqidchiligida estetik tahlil haqida ma`lumotlar beriladi.O`quv mashgulotiga kirish davomida dastlab talabalarga BBB jadvali taklif etiladi va uning <i>Bilaman, Bilishni xoxlayman</i> grafalari to`ldiriladi.		Tinglashadi. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. estetik tahlil haqida umumiy tushuncha rejasi bo`yicha dastlabki tushunchalarini ifodalovchi ma`lumotlarni BBB jadvaliga tushiradilar	
	<i>Bilaman</i>	<i>Bilishni hohlayman</i>		<i>Bilib oldim</i>
2 bosqich Asosiy 50 min	2.1. Jadvalning ikkita grafasi to`ldirilganidan so`ng ma`ruza boshlanadi. O`zbek adabiy tanqidda estetik tahlil bo`yicha		Konspekt yozishadi, tinglashadi, estetik tahlilning asosiy xususiyatlari rejasi bo`yicha	

	tushunchalarni o'zgarib borishi. 2.2. O'zbek adabiy tanqichiligida estetik tahlil ularning o'ziga xos xususiyatlariga izoh berish. 2.3. O'zbek adabiy tanqidchiligida estetik tahlil xususida jadval yordamida tu O'zbek adabiy tanqidchiligi shuntirish olib borish.	doskada klaster tuzishadi. Mavzu bo'yicha savollar beradilar.
3 bosqich. YAkuniy natijalar 15 min.	3.1 Mavzu bo'yicha xulosa qilish. O'zbek adabiy tanqidchiligida estetik tahlil yuzasidan umumlashtiruvchi fikr bildiriladi. 3.2 Talabalarga BBB jadvalini bilib oldim grafasini to'ldirish taklif etiladi, va o'quv mashg'ulotning maqsadiga erishish darajasi taxlil qilinadi 3.3 Mavzu yuzasidan o'quv vazifasi	O'rganilgan mavzu bo'yicha olgan ma'lumotlarni BBB jadvalini yakuniy grafasiga tushiradilar.

	beriladi. Amaliy mashgulotga tayyorlanish	
--	--	--

Yangi o'zbek tanqidchiligining taraqqiyoti bosqichlari: xususiyati, vazifasi, kommunistik mafkura tazyiqidagi tanqid: komfirqaning adabiyot, tanqid haqidagi qarorlari; sotsrealizm metodi, tanqidagi parokandalik. Adabiy tanqid adib ijodi yoki adabiy jarayonni baholash va anglash vazifasini tahlil orqali amalga oshiriladi. baholash-badiiy asarga turlicha yondoshishlar, taxlilning har xil shakllaridan foydalanish tufayli erishiladigan umumlashmalardir. Tahlil orqali badiiy ijodning, muayyan asarning badiiy-estetik qimmati, ijtimoiy mohiyati, voqelikni badiiy kashf etish xususiyatlari ochib beriladi. Bunda taxlilning mazmuni turli shakllar, metodlar va yondoshuvlar, vositalar orqali ifoda etiladi. Fan sifatidagi adabiy tanqidda goyaviy-estetik taxlil uning ustivor asosi va ko'lamdor turidir. 30-yillardan 50 yillarning o'rtalarigacha o'zbek adabiy tanqidchiligida g'oyaviy-estetik taxlil o'zini namoyon qila olmadi. SHu davrlardagi mafkuraviy kurash, vulgar sotsiologizmi, tor sub'ektiv qarashlar bunga monelik qilardi. Natijada bu davrda san'at asariga ko'pincha g'oyaviy tomondan yondoshib, uning badiiy-estetik jihatiga etarli e'tibor berilmadi.

G'oyaviy-estetik yoxud sistemali tahlil 50-yillarning o'rtalari va 60-yillar boshida rivojlana bordi. Bunga, bir tomondan, professional tanqidchilar saviyasi o'sganligi, tanqidiy-estetik fikr rivoj topayotgani, ikkinchi tomondan, o'zbek adabiyotining turli janrlarida qator chinakam badiiy asarlar yaratilgani imkon berdi. Natijada sistemali tahlil faqat muayyan asarlargagina emas, balki ayrim nazariy masalalar, jumladan janrlar takomili, san'atkor mahorati muammolariga ham e'tiborni kuchaytiridi, o'rtamiyonachilik, madxiyabozlik kabi illatlarni fosh etish kengaya bordi. Bu sohada M.Qo'shjonov, O.SHarafiddinov, X.YOqubov, I.Sulton va sal keyinroq U.Normatov, B.Nazarov, S.Sodiq, S.Mamajanov, I.G'afurov, A.Rasulov, N.Xudoyberganov va boshqa tanqidchilar samarali faoliyat ko'rsatdilar. A.Qodiriyning " O'tgan kunlar", A.Qahhorning "Sinchalak", " O'g'ri", G'.G'ulom "SHum bola", O.YOqubovning " Diyonat", A.

Oripovning "Ayol" asarlari o'zbek adabiy tanqidchiligidagi sistemali tahlilga ob'ekt bo'lib, ko'plab taqriz va tadqiqotlar maydonga keldi.

"Sinchalak" qissasi haqidagi g'oyaviy-estetik tahlilning eng yaxshi namunalari O.SHarafiddinov va M.Qo'shjonov qalamiga mansubdir. O.SHarafiddinovning "Kelajakka chorlovchi qissa" taqrizi uch qismdan iborat. Birinchi va ikkinchi qismlarda "Sinchalak"ning dolzarb mavzusi va zamonaviyligi haqida fikr yuritilsa, uchinchi qismda qissadagi g'oya, mavzuning ifodalanishi tarzi yoxud yozuvchi mahorati haqida bahs etiladi. Ularda munaqqid qissani chuqur, izchil sistema asosida taxlil qilar ekan, undan chinakam san'at asariga xos jihatlarni topa oladi, ijodkor mahoratini qissaning har bir qismidagi ifodasi misolida ko'rsata oladi. Natijada tanqidchining asarga tanqidning bosh mezonlari- haqqoniylik va go'zallikni anglash talabi asosida yondoshgani, undagi ilmiylik nihoyatda teran va chuqur ekani namoyon bo'ladi.

Taniqli tanqidchi M.Qo'shjonovning g'oyaviy-estetik taxlil namunasi bo'lgan "Sinchalak" nomli taqrizda boshqacha yondoshuvni ko'ramiz. Avvalo taqrizHajmining ko'lamdorligi unga monografik ruh bag'ishlagan. Ikkinchidan,taqrizda tanqidchi ko'proq xush ko'radigan jihat-xarakterlar psixologizmi va hayot haqiqatining ifoda etilishiga asosiy diqqat qaratilgan. SHunga ko'ra taqrizning nazariy-amaliy xususiyatga ega ekanligi ko'rinadi. Taqridda qissaning eng muhim nuqtalari va o'rinlari alohida ta'kidlanib, mazmunga munosabat bildiriladi. Lekin u qayta hikoya qilinmaydi, balki g'oya va badiiylik uyg'unligini ta'minlashda syujet, obraz, badiiy til, kompozitsiya kabi qismlarni tasvirlashda adib mahoratini ochib berishga xizmat qilgani uqtiriladi. Qissa qaxramonlari va voqealari o'z g'oyasi, izchil mantig'i nuktai nazardan individual, ayni choqda muayyan ijtimoiy guruhga mansub ekanliklari ishonarli tasvirlangani ko'rsatilgan. Saïda, Qalandarov, Nosirov va boshqa obrazlar taxlili buning dalilidir. Umuman M.Qo'shjonov taqrizi sinchiklab taxlil qilish orqali kitobxon e'tibor bermaydigan oddiy detallar va iboralardagi katta mazmuning o'rnini belgilash jihatdan ham ibratlidir.

G'oyaviy-estetik taxlil faqat bir asarga bag'ishlangan taqriz va monografiyalardagina emas, balki problematik va obzor maqolalarda ham voqe bo'ladi. Bu yo'nalishning lirika sohasidagi ilk namunalaridan biri bo'lgan O.SHarafiddinovning " Zamon, qalb, poeziya" to'plamidan keyin I.G'afurovning "SHe'riyat - izlanish demak", "YUrak-alanga", U.Normatovning "Nasrimiz ufqlari",M.Qo'shjonovning "Mohiyat va badiyat", shuningdek S.Mamajanovning G'afur G'ulom nasri, N.Xudoyberganovning o'zbek she'riyati haqidagi va boshqa ko'plab taqriz va obzor maqolalar maydonga keldi.

" Zamon, qalb, poeziya" to'plamida munaqqid 50-yillardagi o'zbek she'riyatini taxlil qilib, insonni to'la va butun murakkablikda tasvirlash lozim, degan fikrni ilgari suradi, poeziya tanqidchiligidagi birinchilardan bo'lib intellektual she'riyat, uning xususyaitlari va namoyandalari haqida mulohaza qiladi. Intellektuallik-mushohadaning keng va teranligi, fikr-

ning etuk va yangiligidir. Bu mezon keyingi davr she'riyati mohiyati va qiyofasini belgilashda keng qo'llaniladi. 60-yillarning ikkinchi yarmidan boshlangan yangicha fikrlash, inson va hayotni tadrijiy takomilida, barcha murakkabliklar bilan tasvirlash, haqiqatni aytishga intilish kabi xususiyatlar keyingi davrda ancha keng yoyildi. E.Vohidov, A.Oripov, O.Matjon, R.Parfi, X.Xudoyberdieva va boshqalarning shu ruhdagi asarlari adabiy tanqidchilik diqqatini tortdi.

80-90 yillarda g'oyaviy-estetik tahlilning qamrov doirasi yanada kengaydi, badiiy ijodning nazariy masalalarini yoritishda eng yaxshi asarlarni yaxlit tadqiq qilishga e'tibor kuchaydi. O.YOqubov, U.Hoshimov, SH.Xolmirzaev, T.Murod va boshqa adiblar nasriy asarlarining g'oyaviy-badiiy taxlili keyingi davr o'zbek prozasidagi izlanishlar va yangi xususiyatlarni izohlashga imkon berdi. Bu izlanishlar faqat asarlarning shakliga emas, balki g'oyaviy-mazmuni, insonni badiiy kashf etishdagi tafakkur kuchi va mahoratiga aloqador ekanligini ko'rsatmoqda. hozirgi tanqidchilikda ham sistemali taxlil estetik tafakkurning etakchi shakllaridan biri bo'lib qolmoqda.

TAYANCH TUSHUNCHALAR

Sistemali tahlil – har tomonlama batafsil tahlil

Mushtaraklik–umumiy belgilar	xususiyatlar,	tipologik
O'ziga xoslik–munaqqidga farqlanuvchii jihatlar	xos xislatlar,	boshqalardan
Tarixiy–biografik–badiiy tarixi, takolim haqidagi tahlil	asarning	ijodiy

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. G'oyaviy-estetik tahlilning asosiy belgilarini bilasizmi?
2. Tarixiy-funksional, biografik va tipologik yondoshuvning umumiy va xos xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?
3. Sistemali taxlil namunalari bo'lgan maqolalarni ro'yxat qiling.
4. Tarixiy-funksional yondoshuvni Navoiy ijodiga tadbiq qilib, referat yozing.
5. Tarixiy-biografik yondoshuv asosida qaysi adiblar ijodi yoritilgan?

A D A B I Y O T L A R :

1. O'zbek sovet adabiy tanqidi tarixi. I-II jildlar. Toshkent. 1987.
2. A.Rasulov. Tanqidchiligimiz ufklari. Toshkent. 1985.

3. M.Qo'shjonov. Saylanma. I-II jildlar. Toshkent. 1979.

4. O.SHarafiddinov. haqiqatga sadokat. Toshkent. 1989.

5. Safarov O, YO'ldoshev B, Ahmedova SH. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. Buxoro. 2003.

6-MAVZU: XX ASR II YARMIDAGI O'ZBEK TANQIDI

Ma'ruza mashg'uloti ta'lim texnologiyasining modeli

O`quv vaqti: 80 minnut	Talaba soni
O`quv mashg`ulotining tuzilishi Ma' ruza rejasi	1. XX asr II yarmi adabiy tanqidchiligi 2. 90-yillar adabiy tanqidchiligi 3. Yangi davr va tanqidchilik
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi : Talabalarda Estetik tahlil haqida tushuncha hosil qilish.</i>	
Pedagogik vazifalar: Yangi mavzu bilan tanishtirish, mavzuga oid ilmiy atamalarni ochib berish, asosiy maslalar bo`yicha tushunchalarni shakllantirish.	O`quv faoliyatining natijalari:</b> <b>Talabalar Estetik tahlil haqida tasavvurga ega bo`ladilar, asosiy ma' lumotlarni kospektlashtiradilar.
Ta' lim usullari:	BBB, "Klaster" , ma' ruza
O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli	Ommaviy
Ta' lim vositalari	Slaydlar, plakat, jadval

Qayta aloqa usullari va vositalari	Savol javob
---	--------------------

O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi

Ishlash bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni							
	O`qituvchining	Talabaning						
1 bosqich 1.1 O`quv xujjatlarini to`ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min). 1.2 O`quv mashg`ulotiga kirish (10min)	1.1 O`zbek adabiy tanqidchiligida estetik tahlil haqida ma`lumotlar beriladi.O`quv mashg`ulotiga kirish davomida dastlab talabalarga BBB jadvali taklif etiladi va uning <i>Bilaman, Bilishni xoxlayman</i> grafalari to`ldiriladi. <table border="1"> <tr> <td><i>Bilaman</i></td><td><i>Bilishni hohlayman</i></td><td><i>Bilib oldim</i></td></tr> <tr> <td></td><td></td><td></td></tr> </table>	<i>Bilaman</i>	<i>Bilishni hohlayman</i>	<i>Bilib oldim</i>				Tinglashadi. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. estetik tahlil haqida umumiy tushuncha rejasi bo`yicha dastlabki tushunchalarini ifodalovchi ma`lumotlarni BBB jadvaliga tushiradilar
<i>Bilaman</i>	<i>Bilishni hohlayman</i>	<i>Bilib oldim</i>						
2 bosqich Asosiy 50 min	2.1. Jadvalning ikkita grafasi to`ldirilganidan so`ng ma`ruza boshlanadi. O`zbek adabiy tanqidda estetik tahlil bo`yicha tushunchalarni	Konspekt yozishadi, tinglashadi, estetik tahlilning asosiy xususiyatlari rejasi bo`yicha daskada klaster						

	o`zgarib borishi. 2.2. O'zbek adabiy tanqichiligida estetik tahlil ularning o'ziga xos xususiyatlariga izoh berish. 2.3. O'zbek adabiy tanqidchiligida estetik tahlil xususida jadval yordamida tu O'zbek adabiy tanqidchiligi shuntirish olib borish.	tuzishadi. Mavzu bo'yicha savollar beradilar.
3 bosqich. YAkuniy natijalar 15 min.	3.1 Mavzu bo'yicha xulosa qilish. O'zbek adabiy tanqidchiligida estetik tahlil yuzasidan umumlashtiruvchi fikr bildiriladi. 3.2 Talabalarga BBB jadvalini bilib oldim grafasini to'ldirish taklif etiladi, va o'quv mashg'ulotning maqsadiga erishish darajasi taxlil qilinadi 3.3 Mavzu yuzasidan o'quv vazifasi beriladi. Amaliy	O`rganilgan mavzu bo'yicha olgan ma'lumotlarni BBB jadvalini yakuniy grafasiga tushiradilar.

	mashgulotga tayyorlanish	
--	-------------------------------------	--

Estetika, tanqidchilikdagi yangi tamoyillar. Milliy istiqlol davri o'zbek tanqidchiligi: tamoyillar, mezonlar, namoyandalari Abdurahmon Sa'diy, Vadud Mahmud, S. Husayn Oybek, I. Sulton, H. YOqubov, M. Qo'shjonov ijodi. O. Sharafiddinov, S. Mamajonov, U. Normatov, N. Karimov ijodi. Yangicha voqelik: sanoatdagina emas, qishloq xo'jaligida ham sho'ro hokimiyatining o'rnatilishi. Milliy – ozodlik harakatining avj olishi va uni shavqatsizlarcha bostirilishi. SHO'ro adabiy siyosatining joriy qilinishi. Komfirqa mafkurasi va uning qaror topishi.

Vaqtli matbuot: “Ishtirokiyun”, “Mehnatkashlar tovushi”, “Qizil bayroq”, “Qizil O'zbekiston”, “SHarq haqiqati” kabi gazetalar zo'r berib sotsializm g'oyalarini targ'ib qilgan. SHuningdek, “Inqilob”, “Bilim o'chog'i”, “Maorif va madaniyat”, “Er yuzi”, “YAngi yo'l” kabi jurnallar ham kommafura targ'ibi bilan band bo'lgan. Negaki vaqtli matbuot, radio eshittirish kompartiya qo'lida o'tkir mafkuraviy qurol edi. Gap shundaki, vaqtli matbuot, tabiiy ravishda, adabiy tanqidiy qarashlarni keng quloqch yoyishga imkon berdi. Lekin kompartiya adabiy tanqidni ham o'z manfaatiga xizmat qildirdi. Bu davr adabiy jarayonida “vulgar sotsiologizm” va “formalizm” oqimlari badiiy adabiyotga ham, adabiy tanqidchilikka Abdurahmon Sa'diy, adabiyotchi Otajon Hoshimlar “xalq dushmani”, “burjua ziyolisi maslakdoshi” deb e'lon qilindi.

Bu davr adabiyotda RKB(b) MKning 1925 yil 18 iyuldagi “Partiyaning badiiy adabiyot sohasidagi siyosati to'g'risida”gi rezolyutsiyasi, VKP(b) MKning 1932 yil 23 aprelda “Adabiy – badiiy tashkilotlarni qayta qurish haqida”gi qarori chiqdiki, bu hujjatlar adabiy jarayonda kuchli aks –sado berdi. Negaki, agar rezolyutsiya badiiy adabiyotni rasmiy ravishda partiyaviy deb e'lon qildi, adabiy jarayonda proletar adabiyotining gegemonligi belgilab qo'yildi. 1932 yildagi qaror esa bir markazdan turib, adabiy jarayonga partiya siyosatini joriy qilishga yo'l ochdi, sotsialistik realizmni umumsovet adabiyotning va adabiy tanqidchiligining yagona ijodiy metodi deb e'lon qilindi. SHu tariqa, YOzuvchilar Soyuzi tashkil etilib, adabiy jarayonga umumproletar

ishining “parrakchasi va vintchasi” deb qaralgan bo’lib qoldi. Kompartiya siyosatiga mos kelmaydigan g’oya qattiq taqiqlab qo’yildi. Qaysi bir ijodkor yoxud olim salgina bo’lsa-da komfirqa mafkurasiga oppozitsiyada bo’lsa, ular shavqatsiz ravishda repressiyaga uchradi. SHu tariqa, mamlakatda Stalin shaxsiga sig’inish avj oldi, erkinroq ijod qilishga intilgan yozuvchilar qatliomga duch keldi. Yirik adib va alloma Fitrat, erksevar milliy qahramon CHo’lpon, Qodiriy, Usmon Nosir qatl etilda; Botu, Xamid Sulaymon, Otajon Hoshim, SHayxzoda, Said Ahmad, SHukrullo va boshqa ijodkorlar nohaq jazolandilar; Oybek, H.Olimjon kabi ijodkorlar ko’p jafodir chekdilar. Ko’pgina yozuvchilar zamonasozlik qilishga majbur bo’lgan. Repressiya ishida komfirqa adabiy tanqidni ham qo’lidagi qurolga aylantirishga harakat qilgan.

Badiiy adabiyotning sinfiyligi va partiyaviyligi haqidagi ta’limot davlat siyosati darajasiga ko’tarilshi oqibatida adabiy jarayon ham, adabiy tanqidchilik ham katta ziyon ko’rdi.

SHunchalik daxshatli zug’um hukm surishiga qaramay badiiy adabiyot ham, adabiyotshunoslik ham katta ziyon ko’rdi.

YAngi tipdagi adabiy tanqidchilik o’zining ilk bosqichi – Milliy uyg’onish davrida, asosan, izlanish, yangilanish davrini boshidan kechirgan bo’lsa, 20-30-yillarda yangi tipdagi adabiy tanqidchilik to’la qaror topdi. Mumtoz adabiy tanqidchiligidimizdagi tazkira, debocha, masnaviy, holot, fahriya kabi janrlar o’rniga taqriz, maqola, portret, risola singari zamonaviy janrlar vujudga keldi.

Agar asrimizning boshlarida, hatto, 20-30-yillarda ham asosan adiblarning o’zlari tanqidchilik bilan shug’ullanishga majbur bo’lsalar (A.Qodiriy, Fitrat, CHo’lpon, Oybek, G’.G’ulom, H.Olimjon, Uyg’un, YAshin , keyinchalik faqat adabiy tanqidchilik bilan shug’ullanuvchi tadqiqotchilar: Otajon Hoshim, Vadud Mahmud, Sotti Xusayn, YUnus Latif, Miyonbuzruk Solihov, Olim SHarofiddinov, Hodi Zaripov, Izzat Sulton, YUsuf Sulton kabi olimlar ham etishib chiqdilar.

20-yillarda adabiy tanqidning vujudga kelish jarayonida bir-biridan tubdan farq qiladigan ikki tendentsiya bor edi. Ulardan biri – ilmiy izlanishlar yo’li: Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Abdurahmon Sa’diy, Lutfulla Olimiy, Olim SHarafiddinov, Otajon Hoshim, A’zam Ayyub kabi tanqidchilar; G’omil YOqubov, Oybek, YUnus Latif, SHokir Sulaymon kabilar mana shu yo’ldan bordilar.

Xullas, bu davrdagi sog’lom pozitsiyada mustahkam turgan adabiy tanqid, bir tomondan, adabiy jarayonga faol aralashib, o’zbek adabiyotini mumkin qadar taraqqiy ettirishga xizmat qilgan bo’lsa, ikkinchi tomondan kitobxonlarning estetik didini oshirishga yordam bergan. Uchinchidan, mafkuraviy janglar jarayonida adabiy tanqidchilikning o’zi ham chiniqa bordi.

Savol va topshiriqlar:

1. 20-yillar tanqidchiligiga xos xususiyatlar?
2. Siyosat va tanqidchilik?
3. 30-yillar tanqidchiligiga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
4. 20-30-yillarda qaysi tanqidchilar faol xizmat qildilar?

Adabiyotlar:

1. O'zbek sovet adabiy tanqidi tarixi. 1-tom. Toshkent. 1987. 3-30 betlar.
2. N. Xudoyberganov, A. Rasulov. O'zbek sovet adabiy tanqidchiligi. Toshkent. 1990.
3. O. SHarafiddinov. haqiqatga sadoqat. Toshkent. 1989. 367-398 betlar.
4. X. YOqubov. Tanqid va adabiyotshunoslik tarixiga bir nazar. Adabiyotimizning yarim asri. 1-kitob. Toshkent. 1967. 339-408 b.
5. Safarov O, YO'ldoshev B, Ahmedova SH. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. Buxoro. 2003.
6. Rahmonov B. O'zbek adabiy tanqidchiligi. Toshkent. 2004.

7-MAVZU: ABDURAUF FITRAT (1886-1938)

Ma'ruza mashg'uloti ta'lim texnologiyasining modeli

O`quv vaqti: 80 minnut	Talaba soni
O`quv mashg`ulotining tuzilishi Ma'ruza rejasi	1. Fitrat-O'zbek adabiyotshunosligi va tanqid- chiligining asoschisi. 2. Fitratning adabiyotshunoslik asarlariga umumiy sharh. 3. Mumtoz va XX asr adiblari ijodi Fitrat talqinida.
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi : Talabalarda Estetik tahlil haqida tushuncha hosil qilish.</i>	

Pedagogik vazifalar: Yangi mavzu bilan tanishtirish, mavzuga oid ilmiy atamalarni ochib berish, asosiy maslalar bo'yicha tushunchalarni shakllantirish.	O'quv faoliyatining natijalari: Talabalar Estetik tahlil haqida tasavvurga ega bo'ladilar, asosiy ma'lumotlarni kospektlashtiradilar.
Ta'lim usullari:	BBB, "Klaster", ma'ruza
O'quv faoliyatini tashkil qilish shakli	Ommaviy
Ta'lim vositalari	Slaydlar, plakat, jadval
Qayta aloqa usullari va vositalari	Savol javob

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ishlash bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchining	Talabaning
1 bosqich 1.1 O'quv xujjatlarini to'ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min). 1.2 O'quv mashg'ulotiga kirish	1.1 O'zbek adabiy tanqidchiligida estetik tahlil haqida ma'lumotlar beriladi. O'quv mashg'ulotiga kirish davomida dastlab talabalarga BBB jadvali taklif etiladi va uning <i>Bilaman,</i>	Tinglashadi. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. estetik tahlil haqida umumiy tushuncha rejasi bo'yicha dastlabki tushunchalarini ifodalovchi

(10min)	<i>Bilishni xoxlayman</i> grafalari to'ldiriladi. <table border="1" data-bbox="616 259 1153 521"> <tr> <td data-bbox="616 259 759 371"><i>Bilaman</i></td><td data-bbox="759 259 946 371"><i>Bilishni hohlayman</i></td><td data-bbox="946 259 1153 371"><i>Bilib oldim</i></td></tr> <tr> <td data-bbox="616 371 759 521"></td><td data-bbox="759 371 946 521"></td><td data-bbox="946 371 1153 521"></td></tr> </table>	<i>Bilaman</i>	<i>Bilishni hohlayman</i>	<i>Bilib oldim</i>				ma' lumotlarni BBB jadvaliga tushiradilar
<i>Bilaman</i>	<i>Bilishni hohlayman</i>	<i>Bilib oldim</i>						
2 bosqich Asosiy 50 min	2.1. Jadvalning ikkita grafasi to'ldirilganidan so'ng ma' ruza boshlanadi. O'zbek adabiy tanqidda estetik tahlil bo'yicha tushunchalarni o'zgarib borishi. 2.2. O'zbek adabiy tanqichiligida estetik tahlil ularning o'ziga xos xususiyatlariga izox berish. 2.3. O'zbek adabiy tanqidchiligida estetik tahlil xususida jadval yordamida tu O'zbek adabiy tanqidchiligi shuntirish olib borish.	Konspekt yozishadi, tinglashadi, estetik tahlilning asosiy xususiyatlari rejasi bo'yicha doskada klaster tuzishadi. Mavzu bo'yicha savollar beradilar.						

3 bosqich. YAkuniy natijalar 15 min.	3.1 Mavzu bo'yicha xulosa qilish. O'zbek adabiy tanqidchiligida estetik tahlil yuzasidan umumlashtiruvchi fikr bildiriladi. 3.2 Talabalarga BBB jadvalini bilib oldim grafasini to'ldirish taklif etiladi, va o'quv mashg'ulotning maqsadiga erishish darajasi taxlil qilinadi 3.3 Mavzu yuzasidan o'quv vazifasi beriladi. Amaliy mashg'ulotga tayyorlanish	O'rganilgan mavzu bo'yicha olgan ma'lumotlarni BBB jadvalini yakuniy grafasiga tushiradilar.
---	--	---

Abdurauf Abdurahim o'g'li (adabiy taxallusi "Fitrat"- tabiatning qayta yaralishi, tug'ma tabiat egasi) XX asr o'zbek milliy adabiyoti va adabiyotshunosligining tamal toshini qo'yan ijodkorlardan biridir.

U asli Buxorolik bo'lib, 1909 yilgacha eski maktab va madrasada, 1909-1914 yillarda Istambulda taxsil ko'rgan. "YOsh buxoroliklar" harakatiga boshchilik qilgan. 1921 yilgacha Toshkent, Samarqand, Qo'qon shaharlarida ilmiy-ijodiy, ma'rifiy ishlar bilan mashg'ul bo'lgan."CHig'atoy gurunggi" adabiy tashkilotida faoliyat ko'rsatgan, darsliklar, publitsistik maqolalar yozgan. 1923 yilgacha Buxoroda mas'ul lavozimlarda ishlagan. 1923-1924 yillarda Moskva va Leningrad sha harlarida yashagan, SHarq tillari nstitutida ishlagan. Turk, arab, fors tillarida dars berish jarayonida professorlikka saylangan. YUrtiga qaytgach, Buxoro va Farg'ona vodiysi bo'ylab ilmiy safarlarga chiqqan. Gazeta va jurnal taxririylatlari, lotin yozuviga o'tish qo'mitasida ishlagan. SHarq tillari va adabiyoti bo'yicha ma'ruzalar o'kigan. Bir qator tadqiqot ishlari bilan mashg'ul bo'lgan. 1937 yilda "xalq dushmani" sifatida nohaq ayblanib hibsga olingan, 1938 yil 4 oktyabrda asossiz tarzda otilgan. 1957 yilga kelib rasman oqlangan. Birok, 80-yillargacha asarlari deyarlik o'rganilmagan.

Fitrat qomusiy olim bo'lib, fanning bir qator so halari bilan keng shug'ullangan, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, adabiyot va san'at nazariyasi va tarixi, folklorshunoslik, dinshunoslik, tarix va etnografiya singari so halar bo'yicha olib borgan ishlari alohida qimmatga molikdir. Uning "Insoniyat haqida Navoiy qanday fikrda?" (1919) risolasi "YAssaviy maktabi shoirlari to'g'risida tekshirishlar" (Maorif va o'qituvchi" 1928 yil,5-6 son,49-52-betlar), "SHe'r

va shoirlik" adabiy muboxasasi ("Ishtirokiyun" 1919 yil, 24 iyul), "Mirzo Bedil" maqolasi), ("Tong" jurnali, 1920 yil 2-son), "Bedil bir majlisda" badiyasi. Moskva, 1923)6 "Qutadg'u bilik" maqolasi ("Maorif va o'qituvchi", 1925 yil, 2-son), "Navoiyning forsiy shoirligi ham uning forsiy devoni to'g'risida" 1924) maqolasi va boshqa tadqiqotlari Turkistonning qator shahar va qishloqlaridan to'plangan materiallarini tartibga solish, navoiyshunoslikka asos solish, bedilshunoslikning ilk qaldirgochlaridan biri sifatida faoliyat ko'rsatish singari nazariy umumlashma hamda lav halarga boy ekanligi bilan adabiyot ilmining tadjijiga xizmat qildi. SHular asosidagina Fitrat 20 yillarning o'rtalariga kelib sof adabiyot nazariyasiga oid izchil tadqiqotlar yaratdi. "Adabiyot qoidalari. Adabiyot muallimlari va adabiyot havaslilari uchun qo'llanma". 1926-yil. "Muqaddimat ul-adab", ("Maorif va o'qituvchi" 1926 yil, 7-8 sonlari), "Axmad YAssaviy" 1927-yil, "Umar Xayyom", "Qizil qalam" 1-kitob, 1928, "Fors shoiri Umar Xayyom" 1929, "Abulqosim Firdavsiy" (O'zbekiston sho'ro adabiyoti", 1934, 7-8-sonlar), "Ertaklar va haqiqatlar" ("Mash'ala", 1934 yil 1-son), va boshqa o'nlab ketma-ket chop qilingan maqolalari, 1936 yilda nashrga tayyorlangani holda qatog'on qilinguniga qadar chop etib ulgurmagan "Abulkosim Firdavsiy" nomli risolasi shuni ko'rsatadiki, Fitrat fors tilidagi adabiyotning mumtoz vakillari ijodi bilan ham jiddiy shug'ullangan. SHularga asoslanib, bemalol aytish mumkinki, Fitrat XX asr o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligining asoschisidir.

Uning o'z so'zlari bilan aytganda, "Turk dunyosini uygotish yo'lida jonini tikkan" ("Ishtirokiyun" 1919, 112-son) o'z davrining deyarlik barcha nashrlarida, ilmgoh va madrasalarida, to'garak va yig'inlarda, "CHig'atoy gurgungi" adabiy uyushmasida imlo borasida boshlangan bahslarga faol qatnashgan. U Qayum Ramazon va SHokirjon Raximiylar bilan hamkorlikda dastlabki "Ona tili" kursini yaratgan. Tilshunos olim sifatida esa o'z faoliyatini keyinchalik davom qildirib, "Sarf". 2-kitob, O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba. ("Sarfi zaboni to'chik" 1925) singari darslik va qo'llanmalar yaratdi, o'nlab maqolalar e'lon qildi. SHuningdek, 1918-1919 yillarda Toshkent dorumualliminida, 1923-1924 yillarda Moskva SHarq tillari institutida, 1927-1929 yillarda Samarqand dorumfununida tilshunoslik muammolaridan ma'ruzalar o'qidi. Fitratning ana shu faoliyatiga tayanib dadil aytish mumkinki, u hozirgi o'zbek tilshunosligining asoslarini yaratgan ulkan olimdir.

SHubxasiz, unga professorlik unvoni berilishida olimning tilshunoslikka oid tadqiqotlari ham nazarda tutilgan. Biroq uzoq yillar davomida uning tilshunoslikka oid ilmiy ishlari kengroq o'rganilmadi.

Fitrat 1917 yildayoq adabiyotshunoslikka oid nazariy fikrlarni umumlashtirishga, o'zbek adabiyoti tarixini majmualar tarzida jamlashga harakat qildi. "O'quv. Ibtidoiy o'quv maktablarining so'ng sinflari uchun" darslik kitobi shu tariqa yuzaga kelgan edi. U Navoiy dostonlarining qator qo'lyozma, toshbosma va litografik nusxalarini chog'ishtirib chiqish asosidagina Navoiyning insonparvarlik fikrlarini umumlashtirishga uringan edi. Fitrat Abdulqodir Bedil, Jaloliddin Rumi va boshqa ijodkorlarning hikmat va falsafasini teran anglagan, xalqimiz orasida keng targ'ib qilishga intilgan, boshqalarni ham bu yumushlarga yo'naltirishga uringan.

Fitrat Bedil haqidagi tadqiqotlarida nafaqat uning tarjimai holini bayon qiladi, balki falsafiy qarashlari, tasavvufga munosabati, asarlarining tasnifi, shoir sifatidagi uslubi singari masalalarni ham yoritadi. U tasavvuf va SHarq adabiyoti masalalariga jiddiy e'tibor qaratgan. Bedil falsafasining ko'p pinhon jihatlarini sharhlashdan ham maqsadi ana shu edi. U "Bedilning kitobi katta bir dengizdir-ki, har kim o'z idishiga yarasha bundan suv ko'taradir" - deb yozadi. (Bedil. 11-bet).

Fitrat Axmad Zaki Validi To'g'on bergan ishonchli ma'lumotlarga tayanib "Qutadgu bilik" ning jahon turkshunoslariga deyarlik noma'lum bo'lgan uchinchi ya'ni "Namangan nusxasi"ni topib taxlil etar ekan, V.Radlov, Tomson, Martin Xortman singari turkshunos olimlar bilan bahsga kirishadi. Asarning tarixiy qimmatini to'g'ri baholaydi. Kitobni o'qishda qo'yilgan ayrim nuqsonlarni tuzatadi.

Fitrat Buxoro va Samarqand kutubxonalarida samarali ishlab, 1924 yilda Muso Solijonov kutubxonasidan "Devoni Foni"ning nusxasini topadi. SHoirning "Tuxfatul Afkor"kasidasi, "Xamsatul mutaxayyirin", "Muxokamatul-lugatayin" singari asarlariga tayanib, Navoiyni Xofiz SHerozy, Xusrav Dexlaviy, Abdurahmon Jomiylar bilan bir qatarga qo'yadi. Hatto, ko'plab forsiy g'azallarga asoslanib, ularning matnini chuqur o'rgangan holda Bobur mirzo bilan bahsga kirishadi. Navoiyning forschadan kuchsizroq bo'lganligi haqidagi Bobur fikrlariga e'tiroz bildiradi. Fitratga qadar "Devoni Foni"ning qo'lyozmalari o'rganilmagan edi. Hatto uning qo'lyozmasidan olingan fotonusxalar ham Fitrat vafotidan keyin keltirilgan. SHu ma'noda shaxsiy kutubxonalardan topib o'rganilgan mazkur asar haqidagi olimning fikrlari g'oyatda qimmatlidir.

Buxorolik qozi Muhammad SHarif Sadrning kutubxonasidan ham forsiy devonni topadi. har ikkala devonni qiyoslar ekan, ularning aynan bir nusxa ekanligini aniqlaydi. Ko'p yillardan beri Navoiyga nisbat berilib kelinayotgan mazkur nusxaning Muhammad Muhsin nomli "Foni" taxallusli kishi qalamiga mansub ekanligini aniqlagan Fitrat ishonchli parchalar, asosli fikrlar keltirib, Navoiyning forsha haqiqiy devonni yangidan axtarish lozim degan chuqur ilmiy xulosalarga keladi.

Fitrat "Barmoq she'r tizimi" haqida to'xtalar ekan, ayrim tadqiqotchilar singari uni XX asr boshlarida aruzni isloh qilish tufayli paydo bo'lgan deb emas, balki qadimgi turk she'riyati bilan bog'lab izohlaydi. O'tmishda asosiy vazn o'lchovi bo'lgan barmoq she'r tizimining hozirgi zamon turkiy she'riyatida faol qo'llanilayotgani misollar bilan ko'rsatadi. Uning istiqbollari xususida to'xtalar ekan, aruz bilan bir qatorda asosiy she'r tizimi sifatida yashashga to'la haqlidir deb hisoblaydi. "Adabiyot qoidolari"da esa adabiyotshunoslikda keng qo'llanilayotgan istiloh va tushunchalarga nazariy jihatdan aniqlik kiritadi. Tushunchalarning bosh xususyaitlarini qisqa va jo'n ta'riflar bilan tushuntirib beradi. Umumiy hodisalardan xususiy tushunchalarni izohlashga tomon boradi. Aniq manbalarga murojaat qilib, tushunchalar isboti uchun adabiyot tarixidan ham, o'ziga zamondosh adiblardan ham misollar tanlaydi.

Fitrat "Aruz haqida"(1936) risolasida vaznni belgilaydigan foyilotun singari tilda ma'no anglatmaydigan so'zlar o'rniga doira ohanglariga xos (bak-baka-bum-bak) ni kiritadi. Bu hol asarning amaliyot uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Qolaversa, Fitratning anchagina etuk musiqashunos ekanligini ham namoyon qiladi. CHunki u aruz va musiqa o'rtasidagi yaqinlikdan kelib chiqqan edi. har holda olimning adabiyot nazariyasiga oid kuzatishlari bilan musiqashunoslikka doir tadqiqotlari o'rtasida muayyan ichki bog'lanish mavjud.

Fitrat o'z ilmiy faoliyatida jahon tarixida turkiy adabiyotning tamal toshini qo'ygan Maxmud Qoshgariy, YUsof Bolasoguniy (Xos Xojib), Ahmad YUgnakiy, Axmad YAssaviy va uning maktabiga mansub bo'lgan Sulaymon Boqirgoniy, Kamol SHayx, SHams O'zgandiy, Ubaydiy, Xudoydod, Faqiriy, Mashrab singari tasavvuf shoirlari, shuningdek Lutfiy, Navoiy, Bobur singari "buyuk turk" shoirlari ijodini o'rganish bilan mashg'ul bo'ldi.

Fitrat kotib CHalabiyning "Kashf o'z-zunun" asariga tayanib, Maxmud az-Zamaxshariyning "Muqaddimat ul-adab" asarini "Lug'ati Xorazmshohiy" deb isbotlaydi. Asarning turli kutubxonalaridagi nusxalarini qiyoslaydi. Arabcha, forsha, chig'atoycha so'zlarni izohlagani holda mug'ulcha so'zlarni tushunmaganidan qattiq afsuslangan Fitrat bu tilni o'rganishga astoydil kirishadi. Oradan o'n yillar o'tib tuzilgan "Qadimgi mo'g'ul tilining lug'a-ti" asariga Zamaxshariy ijodidan rag'bat olingan. U Zamaxshariy, Qoshgariy singari tilshunoslarning asarlarida uchraydigan mug'ulcha so'zlar lug'atini tuzgan bo'lsada, ko'plab asarlari qatori 1937 yilda Fitrat hibsga olinganida olib ketilgan. Fitrat bunday asarlarni "qabilaviy adabiyot namunolari" deb davrlashtiradi.

Feodallik davri, savdo sarmoyasi singari davrlarga yuqorida nomlari sanalgan adiblar bilan bir qatorda Rabguziy, Durbek, Otoy, Lutfiy, Xusayn Boyqaro kabi shoirlarni kiritadi. O'zbek adabiyotining XVI asrgacha tarixidan etarlicha manbalarni to'plash va nashr qildirishga zo'r bergan Fitrat "zamonaviy o'zbek adabiyoti faqatgina O'rta Osiyo turk adabiyotining boy merosiga tayangan holda yaratilishi kerak"- deb hisoblagan. Uning xizmatlari o'zbek adabiyoti

namunalari jamlash va chop etishdangina iborat bo'lmay, har bir bo'lim va boblarning avvalida kichikroq kirish maqolalari berish, tushunarsiz so'zlarni izohlash, zarur o'rinlarga sharh berishdan ham iboratki, qarayib 50 yil davomida adabiyot tarixini yaratishga uringan aksariyat o'zbek olimlari Fitrat izidan bordilar, uning xulosalariga tayandilar.

Fitrat madrasada talabalik yillaridan tortib to yirik tadqiqotlar yaratib, ulug' olim darajasiga kelgunga qadar tasavvuf ilmi bilan shug'ullandi. Xuddi ana shu ulug' e'tiqod Fitrat yaratgan badiiy va ilmiy asarlarning qat-qatiga singigan, ichdan yoritib, ularga nur bag'ishlab turgan. Bu ta'limotning ildizlarini YAssaviydan oldingi davrlar bilan bog'lagan Fitrat YAssaviy va Abduxoliq G'ijduvoniylar mansub bo'lgan oqimlarni bir-biridan farqlaydi. Birini dalada yashagan ko'chmanchi xalqlarga, ikkinchisini esa qishloq va sha harlarda o'troqlashgan xalqlarga mansub deb biladi. Ko'plab "manoqib" kitoblarga tayanib mazkur ikkita oqimni sharhlaydi. YAssaviy yashagan muhitga, uning hikmatlarining ta'sir doirasiga, ijodidagi tasavvufning darajasi hamda qimmatiga alohida e'tibor beradi. SHu maktabga mansub yigirmadan ortiq shoirlar xususida fikrlar bildiradi. Xususan, Sulaymon Boqirg'oniylar ijodiy merosi bilan bog'liq ayrim chalkashliklarga bar ham beradi. SHamsiddin O'zgandiy, Kamol SHayx Ikoniylar, Qul Ubaydiy, Mashrab, Xudoydod, Qul SHarif, Faqiriy va boshqa shoirlarning "Boqirg'on kitobi" (Qozon, 1906) ga kirgan asarlarini aniqlab, kitobdagi asarlarning hammasi ham Sulaymon ota Boqirg'oniylar taalluqli emasligini isbot qiladi. Nomlari ilm ahli uchun etarlicha ma'lum bo'lmagan ko'plab shoirlarning kimligini, qaysi davrlarda yashab, kimlar bilan aloqada bo'lganligini, vafotining sanasiyu qayerda dafn etilganliklarini zukkolik bilan aniqlaydi.

Fitratning "XVI asrdan so'ngra o'zbek adabiyotiga bir qarash" ("Alanga" 1929, 8-9-sonlar), Muhammad Solih ("Alangan", 1929, 10-son), Mashrab ("Ilmiy fikr", 1930, 2-son) singari maqolalarida e'lon qilish nasib bo'lmagan bo'lsa-da, Muqimiy, Furqat va boshqalar haqidagi tadqiqotlarida ham adabiyotimiz uchun muhim bo'lgan juda ko'p fikrlar ilgari surilgan.

Fitrat "Farhod va SHirin" to'g'risida nomli maqolasida Navoiy falsafasigagina emas, SHarqda mazkur mavzuga asos bo'lgan syujetning Firdavsiy "SHohnoma"si, Nizomiy, Xusrav Dextaviy Xamsalari matniga kirib kelganligiga diqqat qaratadi. Og'zaki va yozma adabiyotda bu syujetning paydo bo'lishi rivoyat, ertak, cho'pchak shakllaridagi ko'rinishlari, shuningdek ilk bor yozma adabiyotga kirib kelishi kabi masalalarni o'rinli qayd qilib o'tadi. Navoiy dostonining o'ziga xos jihatlari teran o'rganadi. Angalashiladiki, bu maqola qiyosiy taxlilning anchagina to'kis namunasi. Fitrat boshlab bergan mazkur metoddan keyinroq rus olimlari Konrad va V.M.Jirmunskiylar bordilar. Buning natijasida esa "Alisher Navoiy va SHarq adabiyotida Uygonish masalalari" singari ko'lamda tadqiqotlar yuzaga keldi.

Fitratning musiqa tarixiga bag'ishlangan risolasida Navoiydan oldin o'tgan va unga zamondosh bo'lgan yigirmaga yaqin musiqashunoslar haqida ma'lumot berilgan. Fitrat san'atshunos sifatida SHarq musiqasi, san'at turlari xususida ham qimmatli fikrlarni ilgari surgan. U nafaqat mumtoz adabiyot yoxud zamonaviy adabiyotning, san'atshunoslikning, adabiyot nazariyasining dolzarb muammolariga, balki teatr tanqidchiligiga xos masalalarga ham faol munosabat bildirgan. O'zbek adabiy-tanqidiy tafakkuri rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan olimdir. Uning adabiy jarayon haqidagi muhim izlanishlari sifatida "Muhit muhimligi" ("Literatura Sredney Azii" gazetasi, 1938 yil, 21 noyabr) nomli maqolasini ham alohida ta'kidlash o'rinlidir.

"O'zbek adabiyoti namunalari" kitobi bahonasida Fitrat shaxsi, faoliyati, siyosiy qarashlariga hujum qilgan Jalil Boybulatovga qarshi yozgan "YO'pishmagan gajaklar" (1929) nomli maqolasida Fitrat asarni taxlil etish, muallif mehnatini xolis baholash, noo'rin tarzda adabiyotni siyosatlashtirmaslik singari masalalarni o'rta qo'yadi. O'zini va ilm ahlini muqarrar fojialardan himoya qilishga astoydil urinadi. Adabiyotni nozik tushunadigan zukko mutaxassis sifatida namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, 80-yillarning oxirlaridan e'tiboran o'zbek adabiy tanqidchiligi tarixiy-funksional yondoshuv tamoyiliga asosan ish ko'rib, jadid adabiyotining aksariyat namoyandalari, xususan Fitrat ijodini ham qayta baholash yo'lidan bordi. Taraqqiyotning muayyan bosqichlarida etarlicha anglab etilmagan ko'plab adabiy-estetik yo'nalishlarga

yangicha munosabat tug'ildi. Fitrat haqida muayyan tasavvurlar beruvchi manbalarning qayta tiklanishi harakati istiqldan keyin ancha jonlandi. Natijada, o'zbek adabiyotshunosligining fitratshunoslik deb ataluvchi alohida tarmog'i shakllana boshlaydi. Uning boy ijodiy merosida namunalar e'lon qilindi, faoliyati esa ilmiy tadqiqotlarga mavzu bo'lib, muayyan darajada tadqiq etildi. Bu borada Erik Karimov, Begali Qosimov, Naim Karimov, Baxtiyor Nazarov, Ozod SHarafiddinov, Xamidulla Boltabaev, Ilhom G'aniev, SHerali Turdiev, Guljan Raximova singari o'nlab olimlarimiz astoydil mehnat qildilar.

TAYANCH TUSHUNCHALAR

Fitrat – O'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchilikning asoschisi

“Adabiyot qoidolari” – adabiyot nazariyasiga oid ilk qO'llanmalardan biri

“Ishtirokiyun” – 10 yillardagi gazetalardan biri.

“Aruz haqida” – Fitrat risolasi

Tasavvuf – ma'naviy poklanish haqidagi ta'limot.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O'tgan asrning 20-30- yillarida faoliyat ko'rsatgan adabiy tashkilotlar haqida nimalarni bilasiz?
2. Qomusiy olim deganda nimani tushunasiz? Nima uchun XX asr boshlarida olimlarimiz fanning turli so halari bilan baravar shug'ullanishgan?
3. "Qutadg'u bilik", "Devoni foniy" kitoblarining ilk tadqiqotchilari haqida nimalarni bilasiz?
4. SHe'riy vazn o'lchovlari haqidagi manbalarni qayta ko'rib chiqing.
5. Tasavvuf va tasavvuf adabiyoti namoyandalari mansub bo'lgan maktablarni aniqlang.
6. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixini davrlashtirishda Fitrat amal qilgan kontseptsyani aniqlang.
7. Tahlil metodlarini aniqlang, ularni bir-biridan farqli jihatlarini belgilashga harakat qiling.

A D A B I Y O T L A R

1. Hamidulla Boltabaev. "Abdurauf Fitratning hayoti va ijodi". Toshkent. 1992.
2. Ilhom G'aniev. "Fitrat. E'tiqod. Ijod." Toshkent. "Kamalak". 1994.
3. Safarov O, YO'ldoshev B, Ahmedova SH. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. Buxoro. 2003.

M A T N L A R

1. Fitrat. "Qiyomat". Toshkent. "O'zbekiston". 1967.
2. Fitrat. "Amir Olimxonning hukmronlik davri". Toshkent. 1992.
3. Fitrat. "Adabiyot qoidalari". Toshkent. "O'qituvchi". 1995.
4. Fitrat. "CHin sevish". (SHe'rlar, dramalar, maqolalar). Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1996.

8– MAVZU: ABDURAHMON SA'DIY (1889 - 1956)

Ma'ruza mashg'uloti ta'lim texnologiyasining modeli

O`quv vaqti: 80 minnut	Talaba soni
O`quv mashg`ulotining tuzilishi Ma`ruza rejasi	1. A.Sa' diy O'zbek adabiy professional tanqidchilarining ilk vakillaridan biri. 2. A.Sa' diyning 20-30 yillardagi adabiy-tanqidiy asarlari. 3. O'zbek adabiy tanqidiy fanining shakllanishida Sa' diyning rni.
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi : Talabalarda Estetik tahlil haqida tushuncha hosil qilish.</i>	
Pedagogik vazifalar: Yangi mavzu bilan tanishtirish, mavzuga oid ilmiy atamalarni ochib berish, asosiy maslalar bo`yicha tushunchalarni shakllantirish.	O`quv faoliyatining natijalari:</b> <b>Talabalar Estetik tahlil haqida tasavvurga ega bo`ladilar, asosiy ma`lumotlarni kospektlashtiradilar.
Ta'lim usullari:	BBB, "Klaster" , ma'ruza
O`quv faoliyatini tashkil qilish	Ommaviy

shakli	
Ta'lim vositalari	Slaydlar, plakat, jadval
Qayta aloqa usullari va vositalari	Savol javob

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ishlash bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni		
	O'qituvchining	Talabaning	
1 bosqich 1.1 O'quv xujjatlarini to'ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min). 1.2 O'quv mashg'ulotiga kirish (10min)	1.1 O'zbek adabiy tanqidchiligida estetik tahlil haqida ma'lumotlar beriladi. O'quv mashg'ulotiga kirish davomida dastlab talabalarga BBB jadvali taklif etiladi va uning <i>Bilaman, Bilishni xoxlayman</i> grafalari to'ldiriladi.	Tinglashadi. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. estetik tahlil haqida umumiy tushuncha rejasi bo'yicha dastlabki tushunchalarini ifodalovchi ma'lumotlarni BBB jadvaliga tushiradilar	
2 bosqich Asosiy 50 min	2.1. Jadvalning ikkita grafasi to'ldirilganidan so'ng ma'ruza boshlanadi. O'zbek adabiy tanqidida estetik	Konspekt yozishadi, tinglashadi, estetik tahlilning asosiy xususiyatlari	

	tahlil bo'yicha tushunchalarni o'zgarib borishi. 2.2. O'zbek adabiy tanqichiligida estetik tahlil ularning o'ziga xos xususiyatlariga izoh berish. 2.3. O'zbek adabiy tanqidchiligida estetik tahlil xususida jadval yordamida tu O'zbek adabiy tanqidchiligi shuntirish olib borish.	rejasi bo'yicha doskada klaster tuzishadi. Mavzu bo'yicha savollar beradilar.
3 bosqich. YAkuniy natijalar 15 min.	3.1 Mavzu bo'yicha xulosa qilish. O'zbek adabiy tanqidchiligida estetik tahlil yuzasidan umumlashtiruvchi fikr bildiriladi. 3.2 Talabalarga BBB jadvalini bilib oldim grafasini to'ldirish taklif etiladi, va o'quv mashg'ulotning maqsadiga erishish darajasi taxlil qilinadi 3.3 Mavzu yuzasidan	O'rganilgan mavzu bo'yicha olgan ma'lumotlarni BBB jadvalini yakuniy grafasiga tushiradilar.

	o`quv beriladi. mashgulotga tayyorlanish	vazifasi Amaliy
--	---	----------------------------

O'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligidan to'ng'ich avlodi vakillaridan biri Abdurahmon Sa'diy XX asr 1- yarmi adabiy-estetik tafakkuri rivojiga muhim hissa qo'shgan. U ustoz pedagog va mashhur filolog olim sifatida ilm ahliga keng tanilgan. A.Sa'diy 1906 yili Troitsk shahrida madrasani bitkazib, rus-tatar maktablarida muallimlik qildi. 1907-1911 yillarda Istambulda Turkiya davlat dorilfununida ta'lim oldi va yurtiga kelib pedagogik ish bilan shug'ullandi. U 1930 yilda professor unvoniga, 1944 yilda filologiya fanlari doktori ilmiy darajasiga ega bo'ldi. A.Sa'diy 1921-26 yillarda Toshkentdagi oliy va o'rta o'quv yurtlarida, 1930-56 yillarda Samarqand va Toshkent davlat universitetlarida o'zbek adabiyotidan dars berdi, yoshlarga murabbiylik qildi, adabiyot bo'yicha kafedralarning ilk tashkilotchilaridan biri bo'ldi.

Abdurahmon Sa'diy o'zbek adabiyotidan dastlabki darslik, qo'llanma va dasturlar tuzish bilan birga 20-30 yillarda adabiy jarayonda faol qatnashib, nazariy va tanqidiy fikrlar rivojiga munosib ulush qo'shdi. Uning adabiy qarashlarida rus (A.SHaligin, A.Potebnya, A.Veselovskiylar) hamda turk klassik adabiyotshunosligining ta'siri sezilarli bo'ldi.

Abduraxmon Sa'diy ilmiy ijod maydoniga yangicha ma'rifatparvarlik va mafkuraviy kurashlar kuchaygan murakkab tarixiy sharoitda kirib keldi. 20-yillardagi bu jarayonda turli g'oyaviy-badiiy qarashlarni ifodalovchi oqim va guruhlar o'rtasida yangi davr adabiyoti xususida qizg'in bahslar davom etmoqda edi. Bularda faol qatnashgan A.Sa'diyning ham qarashlarida ana shu murakkabliklar muayyan iz qoldirdi, uning ba'zi fikrlarida vulgar sotsiologizmning, adabiy merosni bir tomonlama baholashning izlari namoyon bo'ldi. Lekin bu qusurlar Sa'diy nazariy qarashlarining mohiyatini tashkil qilmadi.

A.Sa'diy ijodida adabiyotshunoslikning adabiyot tarixi, nazariyasi va tanqidining dolzarb masalalariga munosabat aks etadi. Bular taqriz, ilmiy maqola, adabiy obzor, adabiy portret, qo'llanma, monografiya va boshqa janrlarda bayon qilingan. Ular "Turkiston", "Inqilob", "O'zgarishchi yoshlar", "Qizil bayroq" va boshqa ro'znoma va jurnallarda hamda alohida nashrlar holida e'lon qilindi.

A.Sa'diyning nazariy tanqidiy qarashlarida 20-30- yillar o'zbek adabiyotshunosligida dolzarb bo'lgan madaniy adabiy meros va yangi adabiyotga munosabat, adabiy oqimlar va janrlar hamda san'at va adabiy tanqid nazariyasi kabi masalalar turar edi. Bularning muallif ijodidagi ifodasini mavzu va mohiyati jihatdan shartli ravishda quyidagicha guruhlash mumkin.

1. Adabiy meros va yangi adabiyot vakillari ijodiga munosabat (YAssaviy, Forobiy, Navoiy, Hamza, Qodiriy, CHo'lpon, H.Olimjon haqidagi maqolalar).

2. Nazariy - tanqidiy masalalar ("Amaliy va nazariy adabiyot darslari", " hikoya haqida", "Go'zal san'at dunyosida" va boshqalar).

3. Adabiy- tanqidiy obzor maqolalar va boshqalar.

20- yillarning birinchi yarmida A.Sa'diy ijodida o'tmish madaniy-adabiy merosi masalalari ustivor bo'lib, asosan mumtoz asarlarni targib qilish, ma'rifat yoyish maqsadi bilan birga bu asarlarning yangi davr ma'naviyatiga munosabati ham yoritilgan. Jumladan, muallifning "YAssaviy kim edi", "Abu Nasr bir Muhammad tarxon Forobiy" kabi maqolalarida ana shu fikr yorqin ifodalangan. Bu fikr muallifning "O'zbek madaniyati va maorifi qurultoyi munosabati bilan" deb atalgan maqolasida yanada konkret va kengroq bayon etiladi. U yozadi: "... yoshlarimizdagi go'zal san'at o'quvlari kuchayib, Turkistonda ijtimoiyat va inqilob yassaviylari, o'zgarish navoiylari, qo'zg'olonchi Muhammad Solixlari maydonga chiqsinlar". ("Qizil bayroq", 1922 yil, 16 mart). To'g'ri, Sa'diyning o'tmish klassiklari merosiga munosabatida ba'zan noxolislik, ijtimoiy tabaqalashni badiiy ijodga tadbiq etish hollari bo'lgan. Lekin 30- yillarning boshidagi tadqiqotlarida bunday qarashlar bar ham topa bordi, adabiy meros bilan yangi adabiyot o'rtasidagi vorislikka to'g'ri yondoshuv paydo bo'ldi. Bunga uning 1934 yilda nashr etilgan "O'zbek burjua adabiyoti (XIX - XX asrlar)" kitobiga kirgan "Adabiy meros ham uni o'rganish yo'limiz" maqolasi dalildir. Garchi kitobda Mu- qimiy va CHo'lpon haqidagi xato fikrlar bo'rtib tursada, ushbu maqola asrlar davomida yaratilgan adabiy boyliklarni ijodiy o'zlashtirishning ahamiyati to'g'ri ko'rsatilgan. Ayniqsa muallifning rus yozuvchilari o'zlarining burjua jamiyatidan qolgan adabiyotlari bilan tanishib, uning foydalanadigan nuqtalaridan kerakligini olganliklari kabi biz ham o'zbek burjua jamiyatidan qolgan adabiy merosimizni o'rganamiz, degan fikrlari shubhasiz, yangi adabiyot shakllanayotgan davr uchun alohida ahamiyatga ega edi. Munaqqid bu merosni proletariat nuqtai nazaridan tanqidiy ko'z bilan o'rganish zarurligini ta'kidlash tabiiydir.

20- yillar tanqidchiligida adiblar ijodini baholashda munaqqidlarning yondoshuvlari asosan uch usulda yo'naltirilgan edi. Bular "tanqidchining yozuvchi ijodi haqidagi kuzatishlari, yozuvchining asarlariga bahosi va tanqidchining tanqidchi maqolalariga munosabati. Adabiy tanqidning jonlanishida ijobiy rol o'ynagan usul, shubhasiz, sog'lom pozitsiyada turib yozilgan tanqidchining yozuvchi ijodi haqidagi xolisona fikridir" ("O'zbek sovet adabiy tanqidi tarixi", I-tom, Toshkent. Fan. 1987. 57-bet). Aytish kerakki, Hamza va Abdulla Qodiriy ijodlari xususida shunday ruhda yozilgan maqolalarning bir qismi Abdurahmon Sa'diy qalamiga mansubdir. Oktyabr to'ntarilishidan keyingi dastlabki davrlardagi adabiyot haqida yozar ekan, muallif Hamza ijodini yuqori baholaydi va uning "O'zbek ishchilari, mehnatkashlari, mazlumlari qayg'usi bilan yozilgan turli she'rlari, ashulalarini ma'qullab, ayrim parchalarini taxlil qilgan holda teatr repertuarlaridan keng o'rin olgan sahna asarlari bosilmaganligidan afsuslanadi. Uning "O'zida yurak shoiri bo'lish, muzikachilik va turli kuylar ixtiro etish, dramaturglik va artistlik yigilgan bir shaxsni ham biz hali yolg'iz hakimzoda o'rtoqda ko'ra olamiz" so'zlari ham yuqoridagi fikrni quvvatlaydi. ("Turkiston", 1924 y, 21 iyun). A.Sa'diyning ushbu maqolasidagi Abdulla Qodiriy haqidagi fikrlari ham xarakterlidir. U yozuvchini hikoyalar, ayniqsa hajviy hikoyalarning yosh va kuchli ustasi" sifatida ta'riflar ekan, yirik nasrdagi o'rniga ham yuksak baho beradi va bu she'riy (ya'ni badiiy) talant (A.Qodiriy - X.A.) "Inqilob jurnalida bosilgan "O'tgan kunlar" romani bilan o'zbek adabiyoti maydonida roman yozuvchilikning birinchi qadamini bosib yubordi", - deydi.

Yigirmanchi yillar adabiy tanqidchiligidagi tendentsiyalardan biri ilmiy izlanish, adabiy-nazariy muammolarga (fanniy tanqid) qiziqish yo'li edi. Bu yo'lda S.Ayniy, L.Olimiy, O.SHarafiddinov (Ayn), O.Xoshim qatorida

A.Sa'diy ham faol ishtirok etdi, adabiyot, san'atning ijtimoiy mohiyati, g'oyaviy-badiiy mundarijasi va janrlar masalalariga doir bahslarda birinchilardan bo'lib o'z fikrlarini bayon qildi. Uning bu sohadagi qarashlari "Amaliy va nazariy adabiyot darslari" (darslik). Ikkinchi bosmasi, Toshkent. 1925 y, "Go'zal san'at dunyosida", "Hikoya haqida", "Adabiyot masalalari va Ulug Oktyabrdan keyingi o'zbek adabiyoti" va boshqa kitoblar hamda maqolalarda bayon etilgan. Dastavval tanqid va uning mohiyati masalasi bo'yicha davom etgan fikrlarga munosabat bildirib, u Elbek, Ne'mat Xakim va boshqalardan farqli o'laroq tanqidning ijtimoiy vazifasi va tanqidchi salohiyati xususida ilmiy muloxaza yuritadi. "Fikriy ishchanlik tufayli tug'ilgan tanqid

san'at va she'riy nazariyalardan, go'zal san'at va adabiyot tarixidan, jamiyatning umumiy holati ruhiyasidan yaxshi xabardor bo'lish kerak"ligi haqidagi mulohazalari shubhasiz haqqoniy tanqidning muayyan qirralarini nazarda tutgani bilan qimmatlidir.

Abduraxmon Sa'diy adabiyot va san'at, umuman estetik qarashlarning sinfiyligi haqidagi fikrlar kuchaya boshlagan davrda yashadi. Bu hol uning qarashlarida ma'lum darajada aks etmasligi mumkin emasdi. Lekin u go'zallik tushunchasining tarixiy xodisa sifatida jamiyat xayoti bilan bog'liqligini alohida ta'kidladi. U san'at faqat ahlokiy g'oya ifodasi ekanligini rad qilar ekan, u san'at asarlari davrlar,... fikr-tuyg'ular, ijtimoiy hollarga muvofiq zuhur etishi va rivojlanishini ta'kidladi. Zero "go'zallik o'z-o'ziga bir ravishda borliqqa molik o'lgon tamom mustaqil bir narsa emas, balki bizning shuurimiz va yoki tushuncha va hukmlarimizning natijasidan iboratdir" ("Inqilob".1922 y. N 2. 39-41 betlar). Sa'diyning ushbu "Go'zal san'at dunyosida" maqolasining e'tiboriga loyiq jihati shundaki, muallif go'zallik haqidagi tasavvur qotib qolgan narsa emasligini, san'atning konkret davr bilan bog'liqligini va uning ideologik va ruhiy mohiyatini ham unutmaydi (O'zbek sovet tanqidi tarixi. I tom.70- bet).

Yigirmanchi va o'ttizinchi yillar tanqidchiligidagi adabiy janrlar, xususan nasr janrlari haqida kuzatishlarning kuchayishi tabiiy edi. Zero, bu davrda qator hikoya, roman va qissalar maydonga keldiki, bular adabiy tan- qidga oziq berdi, janr nazariyasiga qiziqisharni jonlantirdi. Bu jarayonda faol ishtirok etgan A.Sa'diyning ayniqsa hikoya va romanlar haqidagi fikrlari ajralib turadi. Uning "Amaliy va nazariy adabiyot darslari" kitobida badiiy nasr janrlari tasnifiga keng o'rin berilgan. Unda voqea-xodisalar bayoniga asoslangan epik asarlarni ikkiga - hikoya va romanga ajratib, har biriga xos jixatlarni epik ko'lamning hajmi va qaxramon xarakterini ifodalovchi lav halar soniga qarab belgilaydi. Bu janr xususiyatlarini aks ettiruvchi etuk hikoyalar sifatida A.Qodiriyning "Uloqda", "Otam va bolshevik", CHo'lponning "Oydin kechalarda", "Yo'l esdaligi" va Fitratning "Qiyomat" asarlarini tilga oladi.

Bu davrda povest (qissa) janri tabiatini belgilashga faol intilganlar A.Sa'diy va Fitrat edi. Sa'diy povestni roman darajasida katta bo'lmagan uzun hikoya deb atadi. Fitrat ham shu terminni (uzun hikoya) Elbekning "Qushchi Tursun" asariga nisbatan qo'llaydi (Fitrat, Adabiyot qoidalari.1926.116 bet albatta, bu ta'riflar povest mohiyatini ifodalamas ham janr muammolariga qiziqishning kuchayishiga turtki bergani shubhasizdir.

SHuningdek, roman janri atrofidagi muloqatlarni dastlab boshlaganlardan biri A.Sa'diy edi. Keyinchalik bunga Fitrat, Sotti Xusayn va boshqalar qo'shilishdi. Albatta, ularning fikrlari o'zbek adabiyotida yangi janr bo'lgan zamonaviy klassik romanning tub xususiyatlarini to'la ifodalab bermagan bo'lsa ham, uning ayrim jihatlariga (hajmi, mavzusi) oid asosli mulohazalardan ko'z yumib bo'lmaydi. Jumladan, Sa'diyning quyidagi fikrlari romanga xos muhim xossalardan birini - epik bayon ko'lamini to'g'ri ta'kidlagini bilan maroqlidir: "Roman hikoyadan ko'p uzun, keng, to'liq ham unda tasvir etilgan voqealar ko'p qatlamli bo'ladi. Romanlarda qahramonning butun umridagi yoki umrining ko'p ulushidagi voqea va hollari o'zining tegrasidagi kishilari bilan tasvir qilindi. ("Amaliy va nazariy adabiyot darslari".153-154 betlar). Sa'diyning romanlar tasnifi ham g'oyaviy tematik jihatni nazarda tutgan bo'lib, hozirgi tasnifdan ham farq qiladi. Munaqqid ularni realistik, fantastik, psixologik va tarixiy turlarga ajratar ekan, ular uchun eng zarur xususiyatni-romanda voqealar ham, shaxslar ham hayotning oddiy nusxasi, fotograf olgan rasmlar darajasida bo'lmasligini alohida ta'kidlaydiki, bu fikr hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

YAngi o'zbek adabiyotida adabiy oqimlar, jumladan futurizm munosabati masalasida ham A.Sa'diy fikrlari chuqur ilmiyligi bilan ajralib turadi. U XX asr boshida Evropada tug'ilib,yuksak texnika bilan bog'liq motivlarni tarannum etuvchi, o'tmish merosni inkor qiluvchi futurizm o'zbek adabiyotida oqim sifatida mavjud emasligini isbotlab berdiki, bu 20-yillar adabiy tafakkurida muhim xulosa edi.

A.Sa'diy ilmiy izlanishlarining salmoqli yakuni "Navoiy ijodi o'zbek klassik adabiyotining yuqori bosqichi" sarlav hali doktorlik dissertatsiyasi bo'ldi. 30-40 yillardagi ilmiy metodologik qusuri tufayli ushbu tadqiqotda yo'l qo'yilgan ayrim nuqsonlardan qat'iy nazar bu ish

navoiyshunoslikning jiddiy yutug'i sifatida baholandi, ulug' shoir merosini keng o'rganishning ibratli namunasi bo'ldi.

A.Sa'diy o'zbek tanqidchiligida obzor maqolalarining asoschilaridan biri hamdir.

Uning "o'zbek yosh shoirlari" turkumiga "Fitratning shoirligi", "Fitratning tomoshalik ham hikoyalari", "Imom G'azzoliy", "YAssaviy kim edi", "CHigatoy va o'zbek adabiyoti shoirlari" kabi maqolalari kirgan bo'lib, ularda ijodkorlar asarlaridagi muhim jihatlar sharxlangan. SHu bilan birga, u XX asr boshlaridagi o'zbek adabiyotining ko'p jihatlari va CHo'lpon, X.Olimjon, V.Maxmud asarlarini baholashda qator xatolarga yo'l qo'ydi. Bu xatolar o'z vaqtida ayrim adiblar (masalan Oybek) tomonidan ko'rsatildi. Lekin Sa'diyning o'zbek tanqidchiligi va adabiyotshunosligi tarixidagi o'rnini uning 20-30- yillar adabiy jarayondagi faolligi, adabiy-nazariy fikrlari, estetik qarashlari bilan o'zbek tanqidchiligining fan sifatida shakllanishi va rivojlanishidagi xizmatlari belgilaydi.

TAYANCH TUSHUNCHALAR

“Amaliy va nazariy adabiyot darslari” – Sa'diyning ilk qo'llanmasi

“Turkiston” – 20 – yillardagi gazetalardan biri

Epik janrlar – roman, qissa, hikoya.

Futurizm – XIX asrda Evropadagi adabiy oqim.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. A.Sa'diyning hayoti va faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
2. A.Sa'diyning adabiy-tanqidiy qarashlarida qanday masalalar ko' - tarilgan?
3. A.Sa'diy asarlarida adabiyot nazariyasining qaysi jihatlari haqida ma'lumot bor?
4. A.Sa'diyning "Amaliy va nazariy adabiyot darslari" kitobini o'qing.
5. A.Sa'diyning 20-30- yillar adabiyotshunosligidagi o'rnini belgilovchi xususiyatlarni yozib chiqing.

A D A B I Y O T L A R

1. A.Sa'diy. "Amaliy va nazariy adabiyot darslari". Ikkinchi bosmasi. Toshkent. 1925.
2. Olti yil ichida o'zbek she'riy adabiyoti. "Turkiston" gazetasi. 1924. 21 iyun.
3. O'zbek sovet adabiy tanqidi tarixi. I-tom. Fan. Toshkent. 1987. 32-147 b.
4. N.Mo'minova. Birinchi adabiyot darsliklari haqida. // O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent. 2000. N 4. 28-30 b.

9 – MAVZU: MATYOQUB QO'SHJONOV

Ma'ruza mashguloti ta'lim texnologiyasining modeli

O`quv vaqti: 80 minnut	Talaba soni
O`quv mashg`ulotining tuzilishi Ma`ruza rejasi	a) Hayoti va ijodi haqida. b) M.Qo' shjonovning 60-70 yillardagi tanqidiy asarlari. v) M.Qo' shjonov- mahoratshunos munaqqid. g) Oybek, Abdulla Qahhor, Abdulla Qo- diriy ijodi M.Qo' shjonov talqinida.
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi : Talabalarda Estetik tahlil haqida tushuncha hosil qilish.</i>	
Pedagogik vazifalar: Yangi mavzu bilan tanishtirish, mavzuga oid ilmiy atamalarni ochib berish, asosiy maslalar bo`yicha tushunchalarni shakllantirish.	O`quv faoliyatining natijalari:</b> <b>Talabalar Estetik tahlil haqida tasavvurga ega bo`ladilar, asosiy ma`lumotlarni kospektlashtiradilar.
Ta`lim usullari:	BBB, "Klaster" , ma`ruza
O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli	Ommaviy
Ta`lim vositalari	Slaydlar, plakat, jadval
Qayta aloqa usullari va vositalari	Savol javob

O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi

Ishlash bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni			
	O`qituvchining		Talabaning	
1 bosqich 1.1 O`quv xujjatlarini to`ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min). 1.2 O`quv mashgulotiga kirish (10min)	1.1 O`zbek adabiy tanqidchiligida estetik tahlil haqida ma`lumotlar beriladi.O`quv mashgulotiga kirish davomida dastlab talabalarga BBB jadvali taklif etiladi va uning <i>Bilaman, Bilishni xoxlayman</i> grafalari to`ldiriladi.		Tinglashadi. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. estetik tahlil haqida umumiy tushuncha rejasi bo`yicha dastlabki tushunchalarini ifodalovchi ma`lumotlarni BBB jadvaliga tushiradilar	
	<i>Bilaman</i>	<i>Bilishni hohlayman</i>		<i>Bilib oldim</i>
2 bosqich Asosiy 50 min	2.1. Jadvalning ikkita grafasi to`ldirilganidan so`ng ma`ruza boshlanadi. O`zbek adabiy tanqidda estetik tahlil bo`yicha tushunchalarni o`zgarib borishi. 2.2. O`zbek adabiy tanqidchiligida estetik tahlil ularning o`ziga xos		Konspekt yozishadi, tinglashadi, estetik tahlilning asosiy xususiyatlari rejasi bo`yicha doskada klaster tuzishadi. Mavzu bo`yicha savollar beradilar.	

	xususiyatlariga izoh berish. 2.3. O'zbek adabiy tanqidchiligida estetik tahlil xususida jadval yordamida tu O'zbek adabiy tanqidchiligi shuntirish olib borish.	
3 bosqich. YAkuniy natijalar 15 min.	3.1 Mavzu bo'yicha xulosa qilish. O'zbek adabiy tanqidchiligida estetik tahlil yuzasidan umumlashtiruvchi fikr bildiriladi. 3.2 Talabalarga BBB jadvalini bilib oldim grafasini to'ldirish taklif etiladi, va o'quv mashg'ulotning maqsadiga erishish darajasi taxlil qilinadi 3.3 Mavzu yuzasidan o'quv vazifasi beriladi. Amaliy mashg'ulotga tayyorlanish	O'rganilgan mavzu bo'yicha olgan ma'lumotlarni BBB jadvalini yakuniy grafasiga tushiradilar.

Bugungi o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligida faxrli o'rinlardan birini atoqli filolog olim Matyoqub Qo'shjonov egallaydi. Ilm dargohiga 50 - yillarda kirib kelgan alloma

hozirgacha ilmiy-estetik tafakkur rivojiga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Yangi-yangi asarlar bilan fanni boyitmoqda.

Turkmaniston Respublikasining Toshhovuz tumanida cho'pon oilasida tavallud topgan Matyoqub yoshligidan o'qishga tashna edi. To'liqsiz o'rta ma'lumot olgach, Chorjuy shahridagi o'qituvchilar tayyorlash texnikumida o'qidi. 1942 yilgacha maktabda muallimlik qildi. 1942-45 yillarda ikkinchi jahon urushida qatnashib jasorat ko'rsatdi va 1946 yilda O'rta Osiyo davlat uni

versitetining filologiya fakultetini imtiyozli diplom bilan bitkazdi. So'ngra o'z faoliyatini butunlay ma'naviy va ilmiy sohaga bag'ishladi. Toshkent davlat universitetida muallim va Fanlar akademiyasining Til va adabiyot institutida katta ilmiy xodim va direktor vazifalarida xizmat qildi. U O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Respublika Fanlar akademiyasining akademigi, Hamza nomidagi O'zbekiston Respublikasi davlat mukofoti sovrindoridir.

Matyoqub Qo'shjonovning adabiy tanqidchilik faoliyati "O'zbekiston madaniyati" gazetasining 1956 yil 4 aprel sonidagi "Bir tanqidiy - biografik ocherk haqida" nomli taqrizi bilan boshladi. Adabiyotshunos N.Vladimirovaning Zafar Diyor ijodiga bag'ishlangan ushbu ocherki haqidagi bu taq- riz yosh tanqidchining iqtidoridan nishona edi. SHundan keyin respublika gazetalarida, "SHarq yulduzi" jurnali sahifalarida M.Qo'shjonov imzosi bilan adabiyot va san'atning turli masalalariga bag'ishlangan maqolalar muntazam ko'rina boshlandi. Bular A.Muxtorning "Opa-singillar romani", Gulxaniyning "Zarbulmasal" va estetik did hamda badiiy asar kompozitsiyasi xususidagi kuzatishlar edi.

50- yillar oxirida M.Qo'shjonov adabiy jamoatchilikka keng tanila boshladi. 1957 yilda "Oybek romanlarida xarakterni tasvirlash mahorati" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. SHu tadqiqot asosida 1959 yilda monografiya chop etildi hamda o'nlab maqolalar gazeta va jurnallar sahifalarida e'lon qilindi. SHuningdek, o'sha davr adabiy jarayoni haqida boshqa adiblar asarlari haqidagi maqola va taqrizlari "O'zbekiston madaniyati", "Qizil O'zbekiston", "YOsh leninchi", "SHarq yulduzi", "O'zbek tili va adabiyoti" kabi vaqtli nashrlarda bosildi.

60- yillarda boshlab M.Qo'shjonovning ilmiy faoliyat ko'lami kengayib, mazmuni boyib, sayqal topib bordi. Buning dalili sifatida 1962 yilda "hayot va mahorat" nomli tadqiqoti yaratildi va shu asosda doktorlik dissertatsiyasi Himoya qilindi, tanqidchi ijodiy kamolatida yangi bosqich boshlandi.

Bu davrdan boshlab badiiy mahorat va san'atkor iqtidorining o'ziga xos xususiyatlari kabi masalalar tanqidchi qarashlarida ustivor bo'la boshladi. Binobarin "mahorat masalasini umumiy tarzda qo'yishdan ko'ra uni yozuvchilarning eng yaxshi asarlari misolida batafsil taxlil bilan ochib berishdek muhim va murakkab yo'lga ilk qadam bosgan tanqidchilarining biri Matyoqub Qo'shjonov bo'ldi" (O'zbek sovet adabiy tanqidi tarixi. 2 jildi, Toshkent 1987. 34 b). Bunday tahlil uchun Oybek va Abdulla Qodiriy va Abdulla Qahhordek yirik adiblar asarlarining tanlanishi tasodifiy emasdi - ular katta, o'rta va kichik nasrning, liro-epik va dramatik ijodning nodir namunalari edi. Munaqqidning "Jizn, xarakter, masterstvo" (1963) "Aybek" (rus tilida M.Bat bilan yozilgan. 1966-1976), "Oybek mahorati" (1965), "Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati" (1966), "Mahorat sirlari" (1968) kabi kitoblarda bu masalalar asosiy ob'ekt bo'ldi. M.Qo'shjonov badiiy asarlarni tahlil qilar ekan, o'z salaflarining bu haqdagi fikrlariga sinchkovlik bilan yondoshdi, nuqsonlarni ko'rsatish bilan birga ijobiy fikrlarni qo'llab, yanada boyitdi, umumiy xulosaga o'z ulushini qo'shdi. CHunonchi, Oybek ijodi haqida M.Qo'shjonovga qadar juda ko'plab maqolalar, qator monografiyalar yozilgan edi. Ayniqsa yirik adabiyotshunos X.YOqubovning "Oybek ijodi" asaridan keyin biron ish qilish mumkin emasdek tuyulardi. Lekin M.Qo'shjonovning ko'p yillik izlanishlari Oybek mahoratini yangi qirralarini ochib berdi, oybekshunoslikni yangi, yuqori bosqichga ko'tardi. Bu bosqichdagi qo'shjonovona kashfiyot shu bo'ldiki, u badiiy ijodda inson xakteri muammosiga yangicha yondoshib, uning nasriy va dramatik asarlardagi mavqeini, badiyat mezonini sifatidagi mohiyatini isbotladi, xarakter takomilida konflikt, syujet, kompozitsiya kabi badiiy unsurlarning rolini ko'rsatdi.

20-yillardan beri o'zbek adabiy tanqidchiligida keskin munozara va bahslar ob'ekti bo'lib kelgan Abdulla Qodiriy ijodiga munosabat M.Qo'shjonovni befarq qoldirishi mumkin emasdi. Chunki bu ulkan, novator adib ijodi faqat o'zbek adabiyotiga yangi romanlar olib kirgani bilangina emas, balki o'zining milliyliги, yuksak ideali va badiiy mahoratning namunasi ekanligi bilan ham noyob edi. Buni his qilgan munaqqid Qodiriy badiiy olamining ana shu jihatlarini qalamga oldi. Bu yo'ldagi izlanishlar oson kechmadi. A.Qodiriy ijodiy metodi, real voqelikka munosabati, bayon uslubidagi betakrorlik kabi masalalar xususidagi noto'g'ri qarashlarni rad etuvchi yo'l tanlandi-adib ijodini takomilda xolisona ko'rish, anglash va realizm asosida baholash yo'li!

Natijada M.Qo'shjonov birinchilardan bo'lib, (Izzat Sulton xizmatlarini e'tirof etgani holda) A.Qodiriy ijodi adabiyotimizda noyob hodisa, adib esa ulkan san'atkor ekanini ko'rsatdi. Bu o'rinda asosiy diqqat "O'tgan kunlar" romanining g'oyaviy-badiiy tahliliga qaratildi. Munaqqid adib mahoratini hayot voqelarini saralash, uning inson taqdiri va intilishlari bilan bog'liq jihatlarini tasvir markaziga qo'yish, obraz yaratish, badiiy tildan foydalanish, qahramonlar dunyosi, ruhiyatini ishonarli va ta'sirli tasvirlay olish va boshqalarda ko'radi.

Abdulla Qahhorning ko'p qirrali ijodiga oid barcha janrlardagi asarlari M.Qo'shjonov tadqiqotlarida alohida o'rin egallaydi. Adibning YOshlar bilan suhbat" deb atalgan publitsistik maqolalar to'plamiga yozilgan so'z boshi ham M.Qo'shjonov qalamiga mansub. A.Qahhorning hikoya, qissa, roman va dramaturgiya sohasidagi ijodi munaqqidning "Mahorat sirlari", "hayot va nafasat" hamda boshqa kitoblari keng yoritilgan. Bulardan birinchisida yirik nasriy asarlari haqida so'z borsa, ikkinchisida hikoyanavislik san'ati va dramaturgiyalik mahorati tahlil etiladi. CHuqur psixologik taxlil, o'ziga xos dalillash tarzi, badiiy vositalardan ustalik bilan foydalanish kabi xususiyatlar qahhorona mahorat unsurlari bo'lib, barcha turdagi asarlariga oid ekani alohida ta'kidlanadi. Bu jihatdan "Sarob" romani va "Sinchalak" qissalarining g'oyaviy-badiiy taxlili ibratli namunadir. Ko'pgina bahslarga sabab bo'lgan bu asarlarning ochilmagan yangi qirralari, yoritilmagan jihatlarini topishga muvaffaq bo'ldi, o'zining mustaqil ilmiy-ijodiy mustaqilligini namoyon etdi. Umuman 60-70 yillar o'zbek adabiy tanqidchiligini M.Qo'shjonovsiz to'la tasavvur qilish mumkin emas. Uning mahoratshunos olim sifatida keng tanilgani ham shundan dalolatdir.

70-yillar M.Qo'shjonov ijodidagi eng sermahsul davrlardan biri bo'ldi. Quddus Muhammadiy, Quddus Hikmat portretlari haqidagi kitoblardan so'ng Izzat Sulton haqidagi portret maqolasi, "Uroki masterstva" va "Ijod saboqlari", 1973 yilning o'zida esa "Abdulla Qahhor ijodida satira va yumor", "SHomil Alyadin" nomli kitob va risolalari chop etildi. Bular orasida ayniqsa "Ijod saboqlari" kitobi turli maqolalarni qamrab olgani, ilmiy-nazariy fikrlarning teranligi kabi fazilatlar bilan ajralib turadi. Munaqqid adabiyotning tajribali va navqiron namoyandalari asarlariga bir xil mezon - hayotiylik, haqqoniylik va mahorat asosida yondoshadi, har bir asarni hayot haqiqatining badiiy xarakterlar talqinidagi ifodasiga qarab baholaydi. Kitobda P.Qodirov, SH.Xolmirzaev, H.G'ulom, SHukrullo kabi yirik ijodkorlar asarlari qatori A.Oripov, O.Muxtarov ijodi namunalari ham keng tahlil etgan. Ayniqsa A.Oripov she'riyatidagi fikr salmog'i obraz va obrazlilikning betakrorligi kabi fazilatlar haqida yozadi.

M.Qo'shjonovning 70-yillarda chop etilgan "Ma'vo va mezon", "hayot va qahramon", "Mohiyat va badiyat", rus tilidagi "Talant qirralari", "Oybek", "Qalb va qiyofa" va boshqa kitoblari adabiyotshunoslik va tanqidchilikka munosib hissa bo'lib qo'shildi, ularning ufq doirasini yanada kengaytirdi, saviyasini oshirdi. "hayot va qahramon", "Ijod mas'uliyati" kitoblari ma'lum ma'noda muallifning tanlangan asarlari deyish mumkin. Ularda munaqqidning chorak asr davomida yaratgan ko'p sonli asarlaridan eng saralari o'rin olgan. "Hayot va qahramon" kitobidagi maqolalar nasr muammolaridan baxs etadi. Ularda adabiyotimizda jiddiy voqea bo'lgan mashhur asarlar- "O'tgan kunlar", "Qutlug qon", "Ulug' yo'l", "Sarob", "Quyosh qoraymas", "Qirq besh kun" kabi romanlar bilan birga, "Muqaddas" va "Erk" kabi el og'ziga tushgan qissalar ham keng taxlil etilgan.

"Iste'dod sahovati"ning o'ziga xosligi shundaki, unga poeziya haqidagi maqolalar va rus adabiyotiga oid badii halar ham kiritilgan. Bular avval o'zbek tilida e'lon qilingan bo'lsa ham, ba'zilari yanada qayta ishlangan va sayqallangan holda rus kitobxoniga moslab yozilgan, Hamzadan boshlab barcha mashhur adiblar to'grisida ma'lumotlar berilgan.

Adiblar ijodini yoxud muayyan asarni baholashda M.Qo'shjonov xolisona yo'l tutib, ularning yutuqlarini ham, nuqsonlarini ham teran va ishonarli dalillaydi, o'ta yuzaki, bo'sh asarlarni ilm odobi doirasida asosli tanqid qiladi. "Ijod mas'uliyati" kitobidagi "Davr talabi va ijod mas'uliyati", "hayot boshqa, xayol boshqa" sarlav hali maqolalari bunga misol bo'la oladi. Bularning birinchisi I.Raximga ochiq xat shaklida yozilgan bo'lib, unda adibning "Odam qanday toblandi" romani taxlil etiladi. Ikkinchi maqola esa Sayyorning "Hulkar" romani haqidadir. Tanqidchi haqqoniylik va yuksak ijod talabidan kelib chiqib, bu asarlardagi nuqsonlarni sanabgina o'tmaydi, balki sabablarini yorqin ko'rsatadi. Maqolalardagi fikrlar, ayrim xulosalar umumlashtiruvchi xususiyatga ega bo'lib, boshqa adiblar asarlari uchun ahamiyat kasb etishi jihatdan qimmatli edi.

YUqoridagi kitoblar munaqqidni fikrlash tarzidagi yana bir ibratli qirrani ifodalaydi. Bu - yozuvchi ijodiga, badiiy asarga yangicha yondashish bo'lib, g'oyaviy taxlil bilan badiiy taxlil o'zaro uyg'unlikda voqe bo'ladi, hayotiy mazmun go'zal shakldagina yuzaga chiqishi mumkinligiga alohida urg'u beriladi.

M.Qo'shjonovning "Qalb va qiyofa" nomli maqolalar to'plami ham mazmun, ham shakl jihatdan o'ziga xosligiga ega. Mazmundagi xoslik badiiy ijodning, muayyan asarning adib shaxsi, o'zligi bilan bog'liqligini oldingi o'ringa qo'yilishida, shakldagi xoslik esa nazariy qarashlarning alohida bobda yoritilishida ko'rinadi. Binobarin, muallif o'z izohida yozganidek, "badiiy ijodda quruq nazariya bo'lishi mumkin emas, u doim hayot tajribasiga, adabiyot esa ham hayot, ham ijod tajribasiga bog'liqdir. Ijod tajribasi esa doim tabiiy ravishda yozuvchi qalbi va qiyofasiga borib taqaladi. "Kitob tuzilishi ana shu fikrni ifodalashga qaratilgan uch bobdan iborat. Birinchi bob "Nazariy o'ylar", ikkinchi bob "Adabiyot zaxmatkashlari", uchinchi bob esa "Roman va zamon" deb ataladi. Munaqqid nazariy o'ylarining asosiy qismi badiiy asarda shakl va mazmun birligi, badiiylik mezonlari, she'riyatdagi uslubiy izlanish kabi dolzarb masalalarga bag'ishlangan. Adabiy ijodning bu qadim o'zak belgilarining o'zbek adabiyotidagi holati nasriy va poetik asarlar misolida yoritiladi. Bunda A.Muxtor, O.YOqubov, SH.Xolmirzaev, M.Qoriev, O.Muxtor va boshqalarning roman, qissa va ocherklari asosiy ob'ekt qilib olingan. Xususan "CHinor", "Billur qandillar", "So'nggi bekat", "Afrosiyob go'zali", "Yillar shamoli" kabi asarlardagi mazmun va shakl uyg'unligi, fikriy salmoqdorlik, ifodadagi individuallik kabi jihatlari atroflicha taxlil etiladi. Munaqqid haqli ravishda ta'kidlanganidek, badiiy asar avvalo unda shakl bilan ma'noning uyg'unligi tufayli nafis. Bu uyg'unlik yo'q joyda uning nafisligi buziladi. She'riyatdagi jo'nlik, bayonchilik shunday qusurlardan biri ekanini ko'rsatadi. Munaqqid o'sha davr she'riyatidagi yutuqlarini esa A.Oripovning falsafiy umumlashmalarga boy poetik fikrlarida, O.Matjon nazmidagi xal-qona ohanglarda, SHukrulloning insoniy tuyg'ular va holatlarning tabiiyligida va boshqa shoirlar asarlarida ko'radi. She'riyatdagi nuqsonlar esa, munaqqid nazdida, ikki yo'nalishda - so'z tanlashga yuzaki qarash va ortiqcha originallikka intilishda namoyon bo'ladi. Bu fikrlarning isboti sifatida qator she'rlar tahlil etiladi.

M.Qo'shjonov badiiy ijod va adabiy jarayonning sinchkov va faol tadqiqotchisi sifatida mashhur adiblardan tortib, yoshlarning va viloyatdagi ijodkorlarning kuzatishlarini ham nazardan qoldirmaydi. Uning Berdaq, Ayyomiy, Rahim Bekniyoz, Erkin Samandar va boshqalar ijodlari haqidagi maqolalari shular jumlasidandir. Ularning umum adabiyotga qo'shgan va qo'shayotgan hissasini ta'kidlab, adabiy hayotdagi o'rnini belgilashga harakat qiladi.

Ma'lumki, keyingi yigirma yil davomida ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar, demokratik tamoyillarning hayotimizga kirib kelishi badiiy-ilmiy ijodga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Adabiyotimizning mavzu doirasi kengayib, inson taqdiri va hayot butun murakkabligi bilan aks ettiriladigan bo'ldi. Bu ijobiy jarayonni adabiy tanqidchilik alohida ta'kidlab kelmoqda. Bunda ham M.Qo'shjonovning xizmatlari oz emas. U g'oyaviy-uslubiy izlanishlarni barcha adabiy

janrlarda teran ko'rmoqda. Xususan roman va qissalardagi epik tafakkurning tobora kengayib borishi keyingi davr namunalarida yorqin ko'rinayotganini alohida ta'kidlaydi. Xususan 80-yillarning ikkinchi yarmida yaratilgan O.YOqubovning "Oq qushlar, oppoq qushlar", S.Axmadning "Jimjitlik", M.Do'stning "Lolazor", shuningdek O'.Hoshimov va SH.Xolmirzaev romanlarida o'tgan davr fojialari ta'sirli fosh etiladi.

M.Qo'shjonov faoliyatida faqat badiiy adabiyotga emas, balki tanqidchilikka munosabat bildirish, uning takomil bosqichini kuzatib borish ham ibratlidir. Tanqidchining tanqidchi asariga munosabat an'anasi 30-yillardayoq boshlangan bo'lib, M.Qo'shjonov uni boyitib, kengaytirib kelmoqda. U I.Sulton, X.YOqubov, V.Zohidov kabi ustoz adabiyotshunos tanqidchilar hissasini ta'kidlagan holda, bu sohaga sal so'ngroq kirib kelgan U.Normatov, N.Xudoyberganov, I.G'afurov, A.Rasulov, P.SHeru hamedov va boshqalarning adabiy jarayon va muayyan asarlarni baholashdagi xizmatlarini alohida ta'kidlaydi. Xususan U.Normatovga xos faollik va ilmiy sinchkovlik, N.Xudoyberganovdagi fikriy kenglik va dadillik, I.G'afurovdagi o'tmish merosni ham, hozirgi jarayonni ham yaxshi bilishni alohida ta'kidlaydi. SHu bilan birga adabiy tanqidchilikdagi nuqsonlarni ham nazardan qochirmaydi. Bular tanqidchilarda mahorat etishmasligi, ba'zan asarlarni baholashda xolislik yo'qligi, taxlilda g'oyaviy-badiiy mezonlarga amal qilmaslik va boshqalar. Munaqqid ayniqsa A.Qodiriy, A.Navoiy merosi va tarixiy o'tmish haqidagi badiiy asarlarga munosabatdagi nuqsonlarga alohida diqqat qaratadi. Bularning yana bir sababini nazariy-ilmiy sayozlikda ko'radi. SHuning uchun ham munaqqid kitoblarning ko'pchiligida nazariy masalalarini alohida bob yoxud mavzular shaklida berilishi o'rindir. Xususan munaqqidning badiiy obraz, ideal qahramon, kompozitsiya, konflikt, adabiy til, dialog, kulminatsiya kabi nazariy tushunchalarga oid maqolalarning alohida ta'kidlash joizdir. Muhimi shundaki, bularning har biri o'zbek va jahon adabiyotidagi muayyan misollar va ularning konkret tahlili asosida sharh- lanadi, badiyatdagi o'rni belgilanadi.

Odatda, har bir tanqidchi ijodida muayyan etakchi mavzu va muammo bo'ladi. M.Qo'shjonovning ijodi ham bundan mustasno emas. Unda mashhur so'z san'atkorlari A.Qodiriy, Oybek va A.Qahhor (bunga keyinchalik CHo'lpon mavzusi ham qo'shildi) ijodlarning turli qirralari va badiiy mahorat hamda xarakter yaratish bosh mavzu va muammodir. Bular munaqqid ijodida salkam ellik yildan beri turli aspektlarda o'rganilib, yangicha qarashlar va mezonlar asosida takomillashib kelmoqda. Ayniqsa, adabiy hodisalarni keyingi davrdagi istiqlof mafkurasi, yangicha tafakkur va milliy g'oya asosida baholash tamoyillari shuni taqozo etmoqda. Munaqqidning so'nggi davr mahsullaridan biri "O'zbekning o'zligi" kitobida A.Qodiriy ijodiga ana shunday yondoshishning yorqin namunasini ko'ramiz.

M.Qo'shjonovning xizmatlaridan biri shundaki, u " harakatdagi estetika"ning deyarlik barchasi janrlarida ijod qilib, ularning takomiliga ko'- maklashib kelmoqda. Xususan nazariy obzor ("Qayta qurish va o'zbek romani", "Kitobning ikkinchi umri"), tematik va xronologik obzor (Ro'zimat Otaev, Emin Usmonov, Zoxir A'lam, X.SHayxov, R.Raxmanov ijodi haqidagi), tanqidiy-biografik ocherk, adabiy portret va ilmiy-biografik tadqiqot kabi janrlardagi asarlari ko'pchilikka ma'lum va mashhurdir. So'nggi yillarda yirik san'atkorlar va badiiy asarlar haqidagi xotiralarini esse janrida ham bayon etgan risolalar yaratdi. Uning keyingi uch yilda maydonga kelgan "Degish", "Alam", "Diydornoma" kitoblari, bir tomondan, olimning boy hayotiy tajribasini, undan chiqadigan saboqlarni, ikkinchi tomondan, Oybek, Abdulla Qahhor, Ibroxim Mo'minov, Vohid Abdullaev kabi ajoyib siymolar haqidagi xotiralarni gavdalantiradi.

M.Qo'shjonov fikr qamrovi keng ustoz adabiyotshunos va tanqidchidir. U hozir ham adabiy jarayon va uning dolzarb masalalarini ziyrak kuzatib kelmoqda. O'tgan yili uning S.Meliev bilan hamkorlikda "Abdulla Oripov" nomli kitobi kitobxonlarga tuhfa bo'ldi. Bugungi o'zbek she'riyatining zabardast vakili bo'lgan shoir ijodining mohiyati, o'ziga xos jihatlari, muallifning nazm va dramaturgiyadagi mahorati haqidagi yangi so'z deyish mumkin. Bundan tashqari, M.Qo'shjonov romanchilikdagi izlanishlariga sodiq qolib, "O'zbek romani" kitobini tayyorladi, nazariy qarashlarining mantiqiy davomi sifatida "Badiyatdan 12 saboq" nomli kitobi chop etilmoqda. Bular shubhasiz o'zbek adabiyotshunosligi ilmini yanada boyitishga, uning muhim masalalarini yangicha talqin qilishga hissa bo'lib qo'shiladi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. M.Qo'shjonov talqinida Oybek va A.Qodiriy ijodining qaysi jihatlariga alohida urg'u berilgan?
2. M.Qo'shjonov nega mahoratshunos olim deyiladi?
3. Adabiy-nazariy qarashlar qaysi muammolarga bag'ishlangan?
4. M.Qo'shjonovning keyingi davrda yaratgan asarlari qaysi va ular mazmunini bilasizmi?
5. A.Qahhorning mahorati aks etgan jihatlarini M.Qo'shjonov asarlaridan topib ko'chiring.
6. Xarakter va badiyat muammolari yoritilgan maqolalarni ro'yxat qiling.
7. "Bugungi adabiy jarayon M.Qo'shjonov nigohida" mavzusida ijodiy ish yozing.

A D A B I Y O T L A R

1. M.Qo'shjonov. hayot va mahorat. Toshkent. 1962.
2. M.Qo'shjonov. Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati. Toshkent. 1966.
3. M.Qo'shjonov. Saylanma. I-II jildlar. Toshkent. 1979.
4. M.Qo'shjonov. (S.Meliev hammuallif) Abdulla Oripov. Toshkent. 2000.

10– MAVZU: OZOD SHAROFIDDINOV -TANQIDCHI

Ma'ruza mashg'uloti ta'lim texnologiyasining modeli

O`quv vaqti: 80 minnut	Talaba soni
O`quv mashg`ulotining tuzilishi Ma' ruza rejasi	REJA: a) Hayoti va ijodi haqida ma' lumot. b) 60-yillardagi tanqidiy asarlari ("Zamon, qalb, poeziya" va boshqalar). v) O.SHarafiddinov-she' riyat tanqidchi- larining sardori (80-90 yillar) g) CHO' lpon ijodi O.SHarafiddinov talqinida.
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi : Talabalarda Estetik tahlil haqida tushuncha hosil qilish.</i>	

Pedagogik vazifalar: Yangi mavzu bilan tanishtirish, mavzuga oid ilmiy atamalarni ochib berish, asosiy maslalar bo'yicha tushunchalarni shakllantirish.	O'quv faoliyatining natijalari: Talabalar Estetik tahlil haqida tasavvurga ega bo'ladilar, asosiy ma'lumotlarni kospektlashtiradilar.
Ta'lim usullari:	BBB, "Klaster", ma'ruza
O'quv faoliyatini tashkil qilish shakli	Ommaviy
Ta'lim vositalari	Slaydlar, plakat, jadval
Qayta aloqa usullari va vositalari	Savol javob

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ishlash bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchining	Talabaning
1 bosqich 1.1 O'quv xujjatlarini to'ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min). 1.2 O'quv mashg'ulotiga kirish	1.1 O'zbek adabiy tanqidchiligida estetik tahlil haqida ma'lumotlar beriladi. O'quv mashg'ulotiga kirish davomida dastlab talabalarga BBB jadvali taklif etiladi va uning <i>Bilaman,</i>	Tinglashadi. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. estetik tahlil haqida umumiy tushuncha rejasi bo'yicha dastlabki tushunchalarini ifodalovchi

(10min)	<i>Bilishni xoxlayman</i> grafalari to'ldiriladi. <table border="1" data-bbox="616 259 1153 521"> <tr> <td data-bbox="616 259 759 371"><i>Bilaman</i></td><td data-bbox="759 259 946 371"><i>Bilishni hohlayman</i></td><td data-bbox="946 259 1153 371"><i>Bilib oldim</i></td></tr> <tr> <td data-bbox="616 371 759 521"></td><td data-bbox="759 371 946 521"></td><td data-bbox="946 371 1153 521"></td></tr> </table>	<i>Bilaman</i>	<i>Bilishni hohlayman</i>	<i>Bilib oldim</i>				ma' lumotlarni BBB jadvaliga tushiradilar
<i>Bilaman</i>	<i>Bilishni hohlayman</i>	<i>Bilib oldim</i>						
2 bosqich Asosiy 50 min	2.1. Jadvalning ikkita grafasi to'ldirilganidan so'ng ma' ruza boshlanadi. O'zbek adabiy tanqidda estetik tahlil bo'yicha tushunchalarni o'zgarib borishi. 2.2. O'zbek adabiy tanqichiligida estetik tahlil ularning o'ziga xos xususiyatlariga izox berish. 2.3. O'zbek adabiy tanqidchiligida estetik tahlil xususida jadval yordamida tu O'zbek adabiy tanqidchiligi shuntirish olib borish.	Konspekt yozishadi, tinglashadi, estetik tahlilning asosiy xususiyatlari rejasi bo'yicha doskada klaster tuzishadi. Mavzu bo'yicha savollar beradilar.						

3 bosqich. YAkuniy natijalar 15 min.	3.1 Mavzu bo'yicha xulosa qilish. O'zbek adabiy tanqidchiligida estetik tahlil yuzasidan umumlashtiruvchi fikr bildiriladi. 3.2 Talabalarga BBB jadvalini bilib oldim grafasini to'ldirish taklif etiladi, va o'quv mashg'ulotning maqsadiga erishish darajasi taxlil qilinadi 3.3 Mavzu yuzasidan o'quv vazifasi beriladi. Amaliy mashg'ulotga tayyorlanish	O'rganilgan mavzu bo'yicha olgan ma'lumotlarni BBB jadvalini yakuniy grafasiga tushiradilar.
---	--	--

Hozirgi o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligining peshqadam va taniqli namoyandalariidan biri Ozod SHarafiddinovdir. U respublikada xizmat ko'rsatgan fan arbobi, professor, Beruniy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofati sovrindori va zukko tarjimon hamdir.

Ozod SHarafiddinov 1929 yilda Toshkent shahrida xizmatchi oilasida tug'ildi. 1946 yilda o'rta maktabni oltin medal bilan bitkazgach, O'rta Osiyo Davlat universitetining filologiya fakultetiga o'qishga kirdi. 1951-54 yillarda Moskvada jahon adabiyoti institutining aspiranturasida tahsil oldi va 1955 yilda "Hozirgi o'zbek sovet poemalari" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. U 1955 yildan boshlab uzoq yillar mobaynida Toshkent davlat universitetida, dotsent va professor lavozimlarida xizmat qildi. hozir esa "Jahon adabiyoti" jurnalining bosh mu harriri, ko'plab gazeta va jurnallarning hay'at a'zosi.

Ozod SHarafiddinov o'zbek adabiyotshunoslari va professional tanqidchilarining 50-yillarda ko'zga ko'rina boshlagan vakillari sirasiga mansubdir. Garchi uning V.Mayakovskiy she'rlariga bag'ishlangan birinchi maqolasi 1950 yilda "Pioner" jurnalida bosilgan bo'lsa ham, chinakam tanqidchi sifatida shakllanishi elliginchi yillarning ikkinchi yarmidan boshlandi. Bu davrda u o'zbek she'riyatining g'oyaviy-badiiy mundariyasi, voqelikni badiiy tasvirlashda san'atkor dunyoqarashi, shoir mahorati kabi masalalarga alohida e'tibor berdi. Ana shu izlanishlarning samarasi o'laroq 1962 yilda tanqidchining "Zamon, qalb, poeziya" nomli ilk kitobi nashr etildi. Bu kitob adabiy jamoatchilik va tanqidchilik tomonidan iliq kutib olindi. Uning ahamiyati muallifni ilm ahliga talantli tanqidchi sifatida tanitganidagina emas, balki

kitobning teran mazmunli, fikrlarning asosli va tanqidchi mulohazalarining ilmiy-nazariy saviyasi ekanligida edi. Asar bir necha mustaqil maqolalardan tashkil topgan bo'lsa ham ularda tadqiq qilingan masalalarning o'zaro aloqadorligi tufayli u yaxlit tadqiqot-monografiyaga monandir. Maqolalarda munaqqid o'sha davr o'zbek she'riyatining etakchi tendentsiyalarini ishonarli aniqlay olgan, ularni Zulfiya, Mirtemir, SHayxzoda, E.Vohidov va boshqa shoirlar asarlarining taxlili misolida isbotlab bergan. Zamonaviylik, an'analarning yangilanishi, lirik qahramon ma'naviyatini boyishi, obrazlilikning rang-baranglashuvi kabi o'ziga xosliklar har tomonlama tahlil etilgan, ilmiy xulosalar umumlashtirilgan.

Ozod SHarafiddinov sal kam 50-yillik ilmiy-pedagogik faoliyatida 300 dan ziyod maqola va 20 dan ko'p kitoblar yaratdi. Ular badiiy ijodning o'ziga xosligi, adabiy janrlar evolyutsiyasi va rivoji, adabiy aloqalar, badiyat, til va mahorat kabi dolzarb muammolarga bag'ishlangan. Munaqqid maqolalarini shartli ravishda tubandagicha tasniflash mumkin:

1. Obzor maqolalar;
2. Ilmiy-nazariy problematik maqolalar;
3. Adabiy-portret maqolalar;
4. Tanqidiy-biografik ocherklar.

Bu maqolalar munaqqid ijodining butun rivoji davomi uchun xarakterli bo'lsa ham uning dastlabki bosqichida obzor maqolalar ustivor bo'lsa, keyingi davrlarda ilmiy-nazariy va portret maqolalar son va sifat jihatdan yuksalib bordi. Bularning hammasi uchun xos xususiyat tanqidiy fikrning nazariy va zamonaviy tafakkur bilan sayqallashuvidir. Bu jihatdan "Adabiy etyudlar" (1968), "YAlavbardorlar" (1974), "Iste'dod jilolari" (1976) va boshqa kitoblardagi maqolalar xarakterlidir. "Adabiy etyudlar" to'plamiga kirgan maqolalar turli mavzularda yozilgan bo'lib, munaqqidning teran ilmiy nigohi barchasi uchun umumiydir. Jumladan, "Birinch Mo'jiza" maqolasida adabiyotning o'ziga xos sehri, inson ma'naviy dunyosidagi o'rni tahlil etilsa, L.Tolstoy haqidagi maqolada daho rus yozuvchisi talantining yangi qirralarini kashf etiladi. "Do'stlik qonuni" maqolasida esa milliy adabiyotlar o'rtasidagi o'zaro aloqa va ta'sir jarayonning qonuniyatlari ochib beriladi. Taxlilning chuqurligi, fikr ko'lamining kengligi, adabiy hodisalar mohiyatini teran anglash va ifodalash hamda bayon usulining ravon va ta'sirli ekanligi boshqa maqolalarda ham aks etadi. Ayniqsa, A.Qahhor ijodi haqidagi "O'zbek ayolining taqdiri", Zulfiya ijodiy portretini gavdalantiruvchi "Qalbimizga yaqin shoira", Mamarasul Boboev she'riyatidan bahs etuvchi "SHoirning yo'li", P.Qodirovning "Qora ko'zlar" romani xususidagi "Ulg'ayish" maqolalarini alohida ta'kidlash zarur.

Ozod SHarafiddinov jahon badiiy va ilmiy tafakkuri miqyosida fikrlaydigan adabiyotshunos va tanqidchidir. U o'zbek adabiyoti hodisalarini rus va boshqa qardosh xalqlar adabiyotlari bilan qiyoslar ekan, har bir adabiyotga xos milliylik va umumbashariylikni teran xis qiladi. Uning "YAlavbardor" kitobiga kirgan Mehnat Qahramonlari M.SHoloxov, M.Tursunzoda, B.Kerbabaev, A.Korneychuk, A.Upit, P.Brovka ijodlari haqidagi maqolalarida bu holni yaqqol ko'ramiz. Bu yirik adiblarning ijodiy tajribasi XX asr adabiy tafakkurini boyitgan omillardan ekanligi ishonarli ko'rsatilgan.

Davr o'tishi bilan tanqidchining qiziqish doirasi kengayib bordi. 70-yillarning ikkinchi yarmigacha yaratilgan maqolalarida asosan she'riyat muammolari ustivorlik qilgan bo'lsa, keyinchalik nasr janrlariga, adiblar ijodiga bag'ishlangan maqolalar ko'paya bordi. Bular asosan portret maqolalar bo'lib, "Iste'dod jilolari" kitobida o'z ifodasini topdi. Ozod SHarafiddinov tanqidchining qiziqish ko'лами haqida shunday deydi: Olimlarning qiziqish doirasi faqat bitta shoir yoki yozuvchi ijodi bilan cheklanmaydi. Akademik D.Lixachevni eslaylik. U asosan qadimgi rus adabiyotidan mutaxassis. Biroq, u ayni choqda o'rta asrlar adabiyotini ham, XIX asr adabiyotini ham, sovet adabiyotini ham yaxshi biladi" (SHarq yulduzi, 1988. N 2. 180-bet). Bu so'zni shubhasiz Ozod akaning o'ziga ham tadbiq etsa bo'ladi. Tanqidchining A.Qahhor, G'.G'ulom, M.SHayxzoda, Mirtemir kabi turli uslubga ega ijodkorlar haqidagi portret maqolalari ular ijod yo'lining oddiygina tavsifidan iborat bo'lmay, balki adabiy-nazariy fikrlar, asarlaridagi go'zallik, nafosat sirlarini ham aks etadi. Xususan G'.G'ulom she'riyatidagi yuksak grajdanlik pafosi va nuqtadonlik, A.Qahhor qalamiga xos hayot ziddiyatlarini xolisona va

ishonarli tasvirlash hamda uslubiy mukammallik, M.SHayxzoda poeziyasidagi falsafiy nekillik va ehtiros, Mirtemir nazmidagi sharqona donishmandligu poetik halimlik va xalqona oxangdorlikni ta'kidlashi ana shundan dalolatdir. Umuman tanqidchi A.Rasulov o'rinli ta'kidlaganidek "Iste'dod jilolari" portret badiiy ijod sirlari haqidagi qo'llanmaga o'xshab ketadi. Tanqidchi badiiy adabiyot va xalq taqdiri, asarning tarbiyaviy ahamiyati, uni ichdan yoritib turadigan mahorat deb atalgan dunyoning tuzilishi kabi masalalar atrofida keng mushohada yuritadi" (A.Rasulov, "Ozod SHarafiddinov". Toshkent. 1980. 110-111 betlar). Bunday mushohadalar "Iste'dod jilolari"ning mantiqiy davomi bo'lgan "Abdulla Qahhor" sarlav hali kitobda yanada kengroq va teranroq taxlil etildi. Bunda novator yozuvchi ijodiga xos etakchi mushtarak xususiyatlarni yangicha ochib berishi, betakror individual uslub va badiiy tasvirdagi mahoratni sistemali tahlil asosida baholanishini ko'ramiz.

Ayniqsa, "Sinchalak" qissasining har tomonlama tahlili yozuvchi ijodining yangi qirralarini yorqin ko'rsatganligi bilan ajralib turadi. Umuman qissa yozuvchi ijodi haqidagi bu tadqiqot qahhorshunoslikda yangi so'z sifatida baholanishga loyiqdir. Umuman Abdulla Qahhorning nasriy va dramatik asarlari tanqidchi ijodining markaziy mavzularidan biri. U mavzuga bag'ishlangan maqolalarda munaqqid A.Qahhorning noyob talant ekanini isbotlab keladi.

Abdulla Qahhorning "Tobutdan tovush" komediyasining sahnaga qo'yilishi munosabati bilan, tanqidchining xotirlashiga, uning to'g'risida keskin maqola e'lon qilingan edi. Nazariy va amaliy jihatdan noto'g'ri bo'lgan maqolada Ozod SHarafiddinovning komediyani ma'qullovchi "G'azabli qahqaha" taqrizi ham tilga olingan edi. Lekin munaqqid cho'chimadi, o'z nazarini qattiq Himoya qildi, keyingi davr esa tanqidchi haqligini ko'rsatdi, komediya shu janrdagi asarlardan biri bo'ldi.

1979 yilda O.SHarafiddinovning "Talant-xalq mulki" va "Birinchi mo'jiza" kitoblari chop etildi. Bu asarlar tanqidchi etukligining yana bir namunasi bo'lib, ulardagi maqolalarda badiiy ijodning sehrli olami, she'riyatdagi g'oyaviy-badiiy izlanishlar, nasrdagi tafakkur ufoqlarining kengayishi, adabiy jarayondagi faollikning kuchayishi kabi o'ta dolzarb masalalar teranlik bilan yoritildi.

Tanqidchi faoliyatidagi yana bir jihat uning adabiyotga kirib kelayotgan yoshlar ijodiga e'tibor, ularning asarlariga munosabat orqali talantlarni qo'llab, katta ijodga yo'llashdir. Bu hol ayniqsa munaqqidning "Go'zallik izlab"(1985), "Haqiqatga sadoqat" (1989) kabi kitoblaridagi maqolalarda yaqqol ko'rinadi. "Nihollar" maqolasida boshlangan bu an'ana yuqoridagi kitoblarda yanada kengroq miqyosida davom etadi. "Go'zallik izlab"ning, "SHe'riyat hikmatlari", va "Nasrimiz jilolari" boblaridagi maqolalar kator yosh shoir va nosirlar asarlarining tahlilidan iborat. Munaqqid 70-yillar adabiyotida tobora sezilarli rol o'ynayotgan ijodkor yoshlarni shartli ravishda "70-yillar avlodi" deb ataydi va ularning vakillari - Usmon Azim, SHavkat Raxmon, Muhammad Solix, Muhammadjon Rahmon, Sulaymon Rahmonlarning ijodlarini taxlil ob'ekti qilib oladi. Zukko tanqidchi ulardan har birining asarlariga to'xtalar ekan, barchasiga xos mushtarak jihat borligini alohida ta'kidlaydi. Bu ulardagi adabiyot rivojida yangi sahifa ochishga hozirligi, avvalgi avlodlarga nisbatan yangi gap ayta olishlari va o'z ijodiy qiyofasiga ega bo'lishlaridir. SHu bilan birga, ular ijodiga qanot beradigan omillarni ham munaqqid nazardan qochirmaydi. Bular- yoshlar she'riyatida tabora kamol topayotgan teran fikr, hissiy jo'shqinlikni yo'qotmay, uni izlanish, tajriba va mahorat bilan qo'shib, doim she'riy yuksaklikka intilishdir.

70-80 yillarda o'zbek nasrida zamonaviy va tarixiy mavzularda turli janrlardagi g'oyaviy-uslubiy izlanishlar, adiblar mahoratining tobora yuksala borishi kabi xususiyatlar Ozod SHarafiddinov nazaridan chetda qolmadi. Bu jarayonni tanqidchi yirik adiblar asarlaridan tashqari yoshlar ijodida ham kuzatdi va ularni konkret nazariy muammolar aspektida ko'rsatishga harakat qildi. Jumladan, badiiylik mezoni sifatida xarakter va haqqoniylik, tarixiy va badiiy haqiqatning o'zaro munosabati, tarixiy shaxsning badiiy talqini, obrazlar takomilida individuallikning o'rni kabi masalalar Asqad Muxtor ("CHinor", "Buxoroning jin ko'chalari"), Eminjon Usmonov ("Mehrigiyo", "YO'lqin", "Tilla chanoq"), O'tkirHoshimov ("Dunyoning

ishlari"), Xudoyberdi To'xtabaev ("Qasoskorning boshi") va boshqa adiblarning hikoya, qissa va romanlari misolida taxlil etiladi.

Ozod SHarafiddinovning 1989 yilda nashr qilingan " haqiqatga sado- qat" asari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Unga muallifning keyingi yillarda yaratilgan adabiy-tanqidiy maqolalari kiritilgan. Unda yangi o'zbek adabiyoti uch avlodi vakillarining ijodiy izlanishlari, turli janrlardagi asarlari, mahorat muammolari haqida fikr yuritiladi. Maqolalar to'rt bobga bo'lingan bo'lib, ayrimlari avvalgi to'plamlarida ham uchraydi. CHamasi, muallif ularni saralab to'plamga kiritgan. SHu jihatdan kitobni saylanma asarlar sirasiga kiritish mumkin. Eng muhimi, asosan 80-yillardan keyingi davr mahsuli bo'lgan mu maqolalar tanqidchining ijodiy kamolatidan, tafakkur miqyosi kengayib, teranligi chuqurlashib borayotganidan guvohlik beradi. YAna bir xususiyati shundaki, to'plamga muallifning adabiy tanqidchilik, o'zbek tanqidchiligining ahvoli va vazifalari haqidagi maqolalari, suhbatlari ham kiritilganki, bu ayni muddaodir.

Birinchi bobning asosini she'riyatga oid maqolalar tashkil etadi. Jumladan, " Haqiqatga sadoqat", "Bir tilda gaplashaylik", "SHe'r ko'p, ammo shoirchi?", "YAngi avlod to'liqini", "Yo'l boshida" kabi maqolalarda munaqqid turli saviyadagi shoirlar asarlarini taxlil qilar ekan, umuman nazm rivojida ijobiylikni yuksak baholaydi. SHu bilan birga, ayrim shoirlarning talantsiz yozilgan she'rlarini, ba'zan ularga xolisona baho berilmayotganini ta'kidlaydi. Munaqqidning talant, iste'dod va uni tarbiyalashga oid fikrlari ibratlidir. Darhaqiqat, iste'dod dastavval o'z sohibiga hayotni oddiy odamlardan ko'ra chuqurroq idrok etishga, voqea va hodisalarning mohiyatini teranroq anglashga, olamning turfa xil qirralarini nozikroq his qilishga imkon beradi (" haqiqatga sadoqat". Toshkent. 1989. 52 bet). Munaqqid bunday iste'dodning Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matjon va boshqalar ijodidagi ifodasini keyinroq qator maqolalarida ko'rsatadi.

SHuningdek, O.YOqubov, O'.Hoshimov, T.Murod, P.Qodirov, I.Rahim, N.Aminov va boshqa adiblar ijodiga oid qator maqolalar muallifi ham Ozod SHarafiddinovdir.

Ozod SHarafiddinovning tanqidchi sifatidagi ibratli jasorati Abdulla Qahhor va CHo'lpon ijodi mohiyatini anglash va baholashda namoyon bo'ladi. Bu o'rinda "Sarob" romaniga bag'ishlangan "Ikkinchi cho'qqi" maqolasi va "CHo'lponning ijodiy yo'li" maqolasi bilan birga "CHo'lpon" (1991), "Istiqlof fidoyilari" (1993), "CHo'lponni tushunish" asarlari nazarda tutilmoqda. Abdulla Qahhor qalamiga mansub "Sarob" romani bilan bog'liq munozaralar 30-yillardayoq boshlangani ma'lum. Adib ijodidagi yangi bosqichning ibtidosi bo'lgan bu asar o'sha paytda adabiy tanqidchilik tomonidan xolisona baholanmagan edi. Tanqidchi maqolasida romanning ijodiy tarixi, xususan 1939 yilda ikki marta muhokama qilinishi va unga turlicha qarashlar ancha davom etgani batafsil bayon etiladi. Keyingi yillarda roman haqida M.Qo'shjonov, L.Qayumov, U.Normatov va boshqa tanqidchilar yirik tadqiqotlar yaratdilar. Ozod SHarafiddinov roman talqiniga oid fikrlarni umumlashtirar ekan, haqli ravishda uning asosini tashkil etgan niyat-xudbinlik yoxud individualizm illatini badiiy tadqiq qilish ekanini ta'kidlaydi va yozuvchi mahorati obraz yaratish, kompozitsiya, badiiy til, bayon uslubi kabi qismlarda tabiiy ifodalanganini konkret dalillar misolida asoslaydi. U romanni o'z vaqtida ma'qullagan Oybek, Izzat Sulton, SHokir Sulaymon, Konstantin Simonovlarning fikrlarini quvvatlab, bu roman o'zbek adabiyotida realistik metodning shakllanishida katta rol o'ynab, u Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanidan keyin o'zbek prozasi zabt etgan ikkinchi cho'qqi ekanini alohida uqdiradiki, bu romanning eng adolatli bahosidir.

XX asr o'zbek adabiyoti birinchi avlodning etuk namoyandalaridan biri Abdul Hamid CHo'lpon haqidagi eng salmoqli maqolalar turkumi ham Ozod SHarafiddinov qalamiga mansubdir. Darhaqiqat, salkam 30-yil davomida no-haq badnom etilgan daho so'z san'atkorining qayta kashf etilishi va yangidan o'zimizga qaytishida munaqqidning xizmatlari nihoyatda ulkandir. Ozod aka o'zining 1988 yilda yozgan "CHo'lponning ijodiy yo'li" maqolasida CHo'lpon ijodidagi turli asarlar bugungi adabiyotshunoslar uchun tadqiqot ob'ekti bo'lishi mumkinligini ta'kidlagan edi. Munaqqidning o'zi ana shu tadqiqotchilarning eng faollaridan biri sifatida izlanmoqda. U bir tomondan, CHo'lpon asarlarini nashrga tayyorlab,

so'zboshilar yozayotgan bo'lsa, ikkinchidan u haqida qator risolalar chop ettirdi. SHulardan biri "CHo'lpon" bo'lib, unda san'atkorning hayoti va ijod bosqichlari va takomili yoritilgan. Risola besh bobdan iborat. Birinchi bob CHo'lponning hayoti va ijod yo'liga umumiy sharhga, ikkinchi bob she'riy asarlari, uchinchi bob badiiy nasriga (Hikoyalar "Kecha va kunduz"romani), to'rtinchi bob dramaturg va teatr arbobi sifatidagi faoliyatiga, beshinchi bob esa tanqidchilik va tarjimonlik sohasidagi ishlariga bag'ishlangan.

Ozod SHarafiddinov bugungi adabiy jarayonni o'ta ziyraklik bilan kuzatilayotgan hozir javob tanqidchidir. U istiqlool davri adabiyoti haqida bahs etuvchi ko'plab maqolalar yozmoqda, adabiy jarayonga faol aralashmoqda. Keyingi davrda uning bugungi adabiyot qanday bo'lishi zarurligi, sovet davridagi adabiy tajribaga, til masalasiga munosabat va qator asarlar haqidagi teran maqolalari e'lon qilindi. Ijodni baholashda xolislik, murosa qilmaslik, yuksak talab bilan yondoshuv- uning faoliyatidagi bosh mezondir. Uning "Tilda hikmat ko'p", "Mag'zi puch so'zlardan bir tosh nari qoch" kabi maqolalarida bu hol ayniqsa bo'rtib turadi. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining 2000 yil 15 sentyabr sonida bosilgan yuqoridagi ikkinchi maqolada B.Boyqobilovning "O'zbeknoma" asarini maddohlik namunasi sifatida asosli tanqid qiladi.

Umuman, tanqidchining quyidagi so'zlari garchi bugungi adabiyotni nazarda tutib aytilgan bo'lsa ham, ular bizningcha badiiy ijodning butun taraqqiyoti uchun zarur talabdir : "Mustaqillik adabiyoti badiiy jihatdan juda yuksak darajada turishi, chinakam san'at asari bo'lmog'i, betakror nafosat va tengsiz go'zallik uning etakchi belgisi bo'lmog'i kerak".

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ozod SHarafiddinovning ilk adabiy-tanqidiy asarlarini bilasizmi?
2. "Zamon, qalb, poeziya" kitobida qanday masalalar ko'tarilgan?
3. CHo'lpon ijodi haqidagi tadqiqotlarning ahamiyati nimalarda ko'rinadi?
4. O.SHarafiddinov asarlarining ro'yxatini tuzib, qisqacha tavsiflang.
5. Adabiy tanqidning mohiyati haqidagi munaqqid fikrlari to'plab, muhokama eting.
6. "Ozod SHarafiddinov - hozirjavob tanqidchi" mavzusida referat yozing.

A D A B I Y O T L A R

1. "Zamon, qalb, poeziya". Toshkent. 1962.
2. Birinchi mo''jiza. Toshkent. 1979.
3. A.Rasulov. "Ozod SHarafiddinov". (adabiy portret). Toshkent. 1980.
4. A.Quljonov. Ilm va ijod olamida. Toshkent. 1980. 62-73 b.
5. O.SHarafiddinov. haqiqatga sadoqat. Toshkent. 1989.
6. O.SHarafiddinov. "Mag'zi puch so'zlardan bir tosh nari qoch".("O'zbekiston adabiyoti va san'ati". 2000. 15 sentyabr).

11- MAVZU: XX ASR II YARMIDAGI O'ZBEK TANQIDI. MILLIY ISTIQLOL DAVRI O'ZBEK TANQIDCHILIGI.

Ma'ruza mashguloti ta'lim texnologiyasining modeli

O`quv vaqti: 80 minnut	Talaba soni
O`quv mashg`ulotining tuzilishi Ma`ruza rejasi	REJA: 1. Estetika, tanqidchilikdagi yangi tamoyillar. 2. Milliy istiqlol davri o`zbek tanqidchiligi: tamoyillar, mezonlar, namoyandalari 3. U. Normatov, N. Karimov ijodi.
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi : Talabalarda XX asr II yarmi tanqidchiligi haqida tushuncha hosil qilish.</i>	
Pedagogik vazifalar: Yangi mavzu bilan tanishtirish, mavzuga oid ilmiy atamalarni ochib berish, asosiy maslalar bo`yicha tushunchalarni shakllantirish.	O`quv faoliyatining natijalari:</b> <b>Talabalar Estetik tahlil haqida tasavvurga ega bo`ladilar, asosiy ma`lumotlarni kospektlashtiradilar.
Ta`lim usullari:	BBB, "Klaster", ma`ruza
O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli	Ommaviy
Ta`lim vositalari	Slaydlar, plakat, jadval
Qayta aloqa usullari va vositalari	Savol javob

O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi

Ishlash bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni
----------------------------	------------------

	O`qituvchining	Talabaning						
1 bosqich 1.1 O`quv xujjatlarini to`ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min). 1.2 O`quv mashgulotiga kirish (10min)	1.1 O`zbek adabiy tanqidchiligida estetik tahlil haqida ma`lumotlar beriladi. O`quv mashgulotiga kirish davomida dastlab talabalarga BBB jadvali taklif etiladi va uning <i>Bilaman, Bilishni xoxlayman</i> grafalari to`ldiriladi. <table border="1"> <tr> <td><i>Bilaman</i></td><td><i>Bilishni hohlayman</i></td><td><i>Bilib oldim</i></td></tr> <tr> <td></td><td></td><td></td></tr> </table>	<i>Bilaman</i>	<i>Bilishni hohlayman</i>	<i>Bilib oldim</i>				Tinglashadi. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. estetik tahlil haqida umumiy tushuncha rejasi bo`yicha dastlabki tushunchalarini ifodalovchi ma`lumotlarni BBB jadvaliga tushiradilar
<i>Bilaman</i>	<i>Bilishni hohlayman</i>	<i>Bilib oldim</i>						
2 bosqich Asosiy 50 min	2.1. Jadvalning ikkita grafasi to`ldirilganidan so`ng ma`ruza boshlanadi. O`zbek adabiy tanqidda estetik tahlil bo`yicha tushunchalarni o`zgarib borishi. 2.2. O`zbek adabiy tanqidchiligida estetik tahlil ularning o`ziga xos xususiyatlariga izox berish. 2.3. O`zbek adabiy	Konspekt yozishadi, tinglashadi, estetik tahlilning asosiy xususiyatlari rejasi bo`yicha daskada klaster tuzishadi. Mavzu bo`yicha savollar beradilar.						

	tanqidchiligida estetik tahlil xususida jadval yordamida tu O'zbek adabiy tanqidchiligi shuntirish olib borish.	
3 bosqich. YAkuniy natijalar 15 min.	3.1 Mavzu bo'yicha xulosa qilish. O'zbek adabiy tanqidchiligida estetik tahlil yuzasidan umumlashtiruvchi fikir bildiriladi. 3.2 Talabalarga BBB jadvalini bilib oldim grafasini to'ldirish taklif etiladi, va o'quv mashg'ulotning maqsadiga erishish darajasi taxlil qilinadi 3.3 Mavzu yuzasidan o'quv vazifasi beriladi. Amaliy mashgulotga tayyorlanish	O'rganilgan mavzu bo'yicha olgan ma'lumotlarni BBB jadvalini yakuniy grafasiga tushiradilar.

Istiqlol millatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotida yangi bosqich, milliy tariximizda, turmushning barcha soxalarida yangi sahifa ochgan buyuk hodisa bo'ldi. Avvaliga chor xukumati, keyin sho'ro tomonidan yurgizilgan mustamlakachilik siyosati milliy tafakkurda og'ir asoratlar qoldirdi. Istiqlolga erishilgach, O'zbekiston raxbariyati ma'naviyat va ma'rifat ishlariga alohida e'tibor bergani, buni davlat siyosati maqomidagi vazifaga aylantirgani bejiz emas, balki ijtimoiy-tarixiy zarurat edi. Kishilar ongini

sho'ro mafkurasi asoratlaridan forig' etish, jamiyatimizning ertasini belgilaydigan yangi avlodni tarbiyalash kunning eng dolzarb vazifasiga aylandi. Tabiiyki, bunda adabiyot va san'atning, jumladan, tanqid va adabiyotshunoslikning ham faol ishtiroki zarur edi.

Tanqid va adabiyotshunoslik oldidagi eng dolzarb masalalardan biri o'tmish adabiy merosini ilmiy xolis o'rganish va qayta baxolash bo'lib qoldi. Uzoq yillar mobaynida boy adabiy merosimizga sinfiylik nuqtai nazaridan yondashildi, merosni «kerak-nokerak»ka ajratib chala o'rganildi, uni zamonga o'ta vulgar moslashtirib talqin qilindi. Buni, masalan, sho'ro zamonida adabiyotshunosligimizning alohdda sohasiga aylanib ulgurgan navoiyshunoslikda ham ko'rish mumkin edi: Navoiy asarlari to'la nashr etilmadi, chop etilganlaridan hamd va na'tlar qisqartirildi, talqinlar zamonga moslashtirildi. Bularning bari masalaning o'ta chigal va murakkabligidan dalolat beradi. To'g'ri, bu masala «oshkoralik» yillariyoq kun tartibiga qo'yilgan edi. Biroq unutmazlik kerakki, «oshkoralik» — «Qayta qurish», ya'ni sho'ro tuzumini saqlab qolishga yo'naltirilgan xarakterning bir qismi edi, xolos. SHunaqa ekan, «oshkoralik» sharoiti mazkur masalani atroflicha keng va ilmiy xolis o'rganishga imkon berishi mumkin emas, mabodo ilojsiz berganida ham, bu uzoqqa cho'zilishi mumkin emas. Istiqlool sharoiti mumtoz adabiy merosimizni atroflicha chuqur va ilmiy xolis o'rganishga to'la imkoniyat yaratdi. Avvalo shuki, bu masala ko'lami kengroq bo'lgan o'zlikni tanish, qadriyatlarni tiklash masalasining uzviy bo'lagi bo'lib qoldi. Prezidentimiz o'rtaga tashlagan «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» shiori bunda dasturulamal bo'lib qoddi. Zero, o'zining ildizlarini, ajdodlarini tanigan millatgina erkning, istiqloolning kadriga etadi, dunyoda ajdodlar sha'niga munosib joy olishga harakat kiladi. Istiklolning dastlabki yili xazrat Navoiy yubileyining juda katta tantanalar bilan nishonlangani, birin-ketin Amir Temur, Bahovaddin Naqshband, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom al-Farg'oniy, Imom Moturudiy kabi allomalarning, A.YAssaviy Ogahiy, Feruz kabi shoirlar tavallud to'ylarining o'tkaziliish katta voqea bo'ldi. SHunisi muhimki, bu yubileylar avvalgilaridek kampaniyabozlik yoki tantanabozlik bilangina cheklanib kolmadi, aksincha, mazkur zotlar bilan bog'liq qadamjolar tiklandi, ularning asarlari nashr qilindi, vaqtli matbuotda ularning hayoti va ijodi atroflicha yoritildi, ular haqida adabiy asarlar, hujjatli va badiiy filmlar yaratildi va h. Jumladan, «Qur'oni Karim»ning o'zbek tilida chop etilishi, Imom Buxoriy, Imom Termiziyning hadis ilmiga bag'ishlangan asarlarining e'lon qilingani mumtoz adabiyotni o'rganishda muhim ahamiyatta molik bo'ldi. Vaqtli nashrlarda N.Komilov, I.Xaqqulov, S.Rafiddinov kabi olimlarning tasavvuf ta'limoti asoslarvdan bahs etuvchi maqolalari muntazam berib boriddi, kitoblar chop qilindi. Ilgari «diniy-klerikal» yoki «saroy adabiyoti» tamg'alari bilan o'rgakilmay va ommalashtirilmay kelgan Rabg'uziy, YAssaviy, So'fi Olloyor, Huvaydo, Feruz, Amiriy kabi ijodkorlarning asarlari nashr etildi, ular haqida qator maqolalar yozildi. Ta'kidlash lozimki, adabiyot tarixiga oid bu ishlarning ommaviy-ma'rifiy xarakterda bo'lishini davrnnng o'zi taqozo etgan bo'lib, ayni shu xususiyati tufayligana ularni mohiyatan adabiy tanqidiy asarlar sanash mumkindir.

Istiqlol yillarida XX asr boshlaridagi adabiy jarayon, jadidchilik harakati, jadid adabiyoti masalalarini o'rganishga z'tibor yanada kuchaydi. Agar «oshkoralik» yillarida jadid ijodkorlarning «sho'ro voqeligini qabul qildi» qabilida talqin qilishga majbur bo'lingan bo'lsa, endilikda ularning asarlarini boricha talqin qilish imkoniyati yuzaga keldi. Mazkur masalani o'rganishda O.SHarafiddinov, N.Karimov, B.Qosimov, SH.Turdiyev, H.Boltaboev singari olimlar qatori shu yillarda ularning yoniga kirgan M.Qarshiboev, Z.Eshonova, D.Quronov, I.G'aniev, B.Karimov, U.Sultonov kabi o'nlab yosh tadqiqotchilar faol ish olib bordilar. Qatag'on qilingan ijodkorlarning asarlarini izlab topish, nashrga tayyorlash va qayta e'lon qilish borasida ko'p ishlar amalga oshirildi. Matbuotda jadid ma'rifatchilarning istiqlol yillarida ham dolzarbligini yo'qotmagan, ehtimol, qaytadan dolzarblik kasb etgan maqolalari, asarlari muntazam e'lon qilib borildi. Professor O.SHarafiddinov raqbarligida CHO'lponning «Adabiyot nadir?» nomli maqolalar to'plami, uch jildlik «Asarlar»i nashrga tayyorlandi va chop ztildi. Bu borada yangi tashkil qilingan «Ma'naviyat» nashriyoti, ayniqsa, katta ishlarni amalga oshirdi. Jumladan, «Istiqlol qahramonlari» seriyasida Bexbudiyning ikki jildlik (B.Qosimov nashrga tayyorlagan), A.Avloniyning ikki jildyaik (B.Qosimov nashrga tayyorlagan), Fitratning uch jildlik (H_.Boltaboev nashrga tayyorlagan) saylanmalari chop qilindi. Mazkur seriyani tayyorlagan B.Qosimov, U.Dolimov, S.Ahmedov, O.To'laboev, M.Tojiboeva kabi adabiyotshunoslarning fidokorona mehnati tufayli bugunga o'quvchi Sidqiy Xondaqliqiy, Ajziy, Kamiy, Ibrat, So'fizoda, YU.Saryomiy kabi ijodkorlar hakida ma'lumotga ega bo'ldi, ularning asarlari bilan tanishdi. Adabiyotshunos N.Karimov jadid adabiyoti namoyandalari, qatag'on yillarining dahshatlari haqida hujjatli ma'lumotlar beruvchi o'nlab maqolalar e'lon qildi. «SHahidlar xotirasi» restgublika xayriya jamg'armasining ta'sis etilishi bu yo'ldagi ipsharni yanada keng ko'lamda olib borish imkonini yaratdi.

Istiqlol yillarida XX asr boshlaridagi adabiy jarayon, jadidchilik harakati, jadid adabiyoti masalalarini o'rganishga z'tibor yanada kuchaydi. Agar «oshkoralik» yillarida jadid ijodkorlarning «sho'ro voqeligini qabul qildi» qabilida talqin qilishga majbur bo'lingan bo'lsa, endilikda ularning asarlarini boricha talqin qilish imkoniyati yuzaga keldi. Mazkur masalani o'rganishda O.SHarafiddinov, N.Karimov, B.Qosimov, SH.Turdiyev, H.Boltaboev singari olimlar qatori shu yillarda ularning yoniga kirgan M.Qarshiboev, Z.Eshonova, D.Quronov, I.G'aniev, B.Karimov, U.Sultonov kabi o'nlab yosh tadqiqotchilar faol ish olib bordilar. Qatag'on qilingan ijodkorlarning asarlarini izlab topish, nashrga tayyorlash va qayta e'lon qilish borasida ko'p ishlar amalga oshirildi. Matbuotda jadid ma'rifatchilarning istiqlol yillarida ham dolzarbligini yo'qotmagan, ehtimol, qaytadan dolzarblik kasb etgan maqolalari, asarlari muntazam e'lon qilib borildi. Professor O.SHarafiddinov raqbarligida CHO'lponning «Adabiyot nadir?» nomli maqolalar to'plami, uch jildlik «Asarlar»i nashrga tayyorlandi va chop ztildi. Bu borada yangi

tashkil qilingan «Ma'naviyat» nashriyoti, ayniqsa, katta ishlarni amalga oshirdi. Jumladan, «Istiqlol qahramonlari» seriyasida Bexbudiyning ikki jildlik (B.Qosimov nashrga tayyorlagan), A.Avloniyning ikki jildyaik (B.Qosimov nashrga tayyorlagan), Fitratning uch jildlik (H.Boltaboev nashrga tayyorlagan) saylanmalari chop qilindi. Mazkur seriyani tayyorlagan B.Qosimov, U.Dolimov, S.Ahmedov, O.To'laboev, M.Tojiboeva kabi adabiyotshunoslarning fidokorona mehnati tufayli bugunga o'quvchi Sidqiy Xondaqliqiy, Ajziy, Kamiy, Ibrat, So'fizoda, YU.Saryomiy kabi ijodkorlar hakida ma'lumotga ega bo'ldi, ularning asarlari bilan tanishdi. Adabiyotshunos N.Karimov jadid adabiyoti namoyandalari, qatag'on yillarining dahshatlari haqida hujjatli ma'lumotlar beruvchi o'nlab maqolalar e'lon qildi. «SHahidlar xotirasi» restgublika xayriya jamg'armasining ta'sis etilishi bu yo'ldagi ipsharni yanada keng ko'lamda olib borish imkonini yaratdi.

1994 yilda A. Qodiriy tavalludining 100 yilligi nishonlandi. Tanqid va adabiyotshunoslik mazkur sanani munosib kutib oldi, vaqtli matbuotda adib hayoti va ijodi to'g'risida yangi ma'lumotlar beruvchi, asarlarini yangicha talqin qiluvchi qator maqolalar e'lon qilindi. «Abdulla Qodiriyning badiiy dunyosi» kollektiv monografiyasi, U.Normatovning «Qodiriy bog'i», M.Qo'shjonovning «Qodiriy — erksizlik qurboni», «O'zbekning o'zligi» kabi asarlari qodiriyshunoslikda yangi bosqich bo'ldi.

12- MAVZU: XX ASR II YARMIDAGI O'ZBEK TANQIDI. MILLIY ISTIQLOL DAVRI TANQIDCHILIGI.

Ma'ruza mashg'uloti ta'lim texnologiyasining modeli

O`quv vaqti: 80 minnut	Talaba soni
O`quv mashg`ulotining tuzilishi Ma' ruza rejasi	REJA: 1. XX asr II yarmidagi o'zbek tanqidi. 2. Milliy istiqlool davri tanqidchiligi. 3. Mustaqillik davri tanqidchiligining B.Karim, N.Jabborov, U.Hamdami singari namoyandalari.
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi : Talabalardamustaqillik davri tanqidchiligi haqida tushuncha hosil qilish.</i>	
Pedagogik vazifalar:	O`quv faoliyatining natijalari:

Yangi mavzu bilan tanishtirish, mavzuga oid ilmiy atamalarni ochib berish, asosiy maslalar bo'yicha tushunchalarni shakllantirish.	Talabalar Estetik tahlil haqida tasavvurga ega bo'ladilar, asosiy ma'lumotlarni kospektlashtiradilar.
Ta'lim usullari:	BBB, "Klaster", ma'ruza
O'quv faoliyatini tashkil qilish shakli	Ommaviy
Ta'lim vositalari	Slaydlar, plakat, jadval
Qayta aloqa usullari va vositalari	Savol javob

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ishlash bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchining	Talabaning
1 bosqich 1.1 O'quv xujjatlarini to'ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min). 1.2 O'quv mashg'ulotiga kirish (10min)	1.1 O'zbek adabiy tanqidchiligida estetik tahlil haqida ma'lumotlar beriladi. O'quv mashg'ulotiga kirish davomida dastlab talabalarga BBB jadvali taklif etiladi va uning <i>Bilaman, Bilishni xoxlayman</i> grafalari to'ldiriladi.	Tinglashadi. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. estetik tahlil haqida umumiy tushuncha rejasi bo'yicha dastlabki tushunchalarini ifodalovchi ma'lumotlarni BBB jadvaliga

	<i>Bilaman</i>	<i>Bilishni hohlayman</i>	<i>Bilib oldim</i>	tushiradilar
2 bosqich Asosiy 50 min	2.1. Jadvalning ikkita grafasi to'ldirilganidan so'ng ma'ruza boshlanadi. O'zbek adabiy tanqidda estetik tahlil bo'yicha tushunchalarni o'zgarib borishi. 2.2. O'zbek adabiy tanqidchiligida estetik tahlil ularning o'ziga xos xususiyatlariga izoh berish. 2.3. O'zbek adabiy tanqidchiligida estetik tahlil xususida jadval yordamida tu O'zbek adabiy tanqidchiligi shuntirish olib borish.			Konspekt yozishadi, tinglashadi, estetik tahlilning asosiy xususiyatlari rejasi bo'yicha daskada klaster tuzishadi. Mavzu bo'yicha savollar beradilar.

3 bosqich. YAkuniy natijalar 15 min.	3.1 Mavzu bo'yicha xulosa qilish. O'zbek adabiy tanqidchiligida estetik tahlil yuzasidan umumlashtiruvchi fikir bildiriladi. 3.2 Talabalarga BBB jadvalini bilib oldim grafasini to'ldirish taklif etiladi, va o'quv mashg'ulotning maqsadiga erishish darajasi taxlil qilinadi 3.3 Mavzu yuzasidan o'quv vazifasi beriladi. Amaliy mashgulotga tayyorlanish	O'rganilgan mavzu bo'yicha olgan ma'lumotlarni BBB jadvalini yakuniy grafasiga tushiradilar.
---	--	---

Estetika, tanqidchilikdagi yangi tamoyillar. Milliy istiqlol davri o'zbek tanqidchiligi: tamoyillar, mezonlar, namoyandalari Abdurahmon Sa'diy, Vadud Mahmud, S. Husayn, Oybek, I. Sulton, H. YOqubov, M. Qo'shjonov ijodi. O. SHarafiddinov, S, Mamajonov, U. Normatov, N. Karimov ijodi xususida fikr yuritamiz. 1994 yilda A. Qodiriy tavalludining 100 yilligi nishonlandi. Tanqid va adabiyotshunoslik mazkur sanani munosib kutib oldi, vaqtli matbuotda adib hayoti va ijodi to'g'risida yangi ma'lumotlar beruvchi, asarlarini yangicha talqin qiluvchi qator maqolalar e'lon qilindi. «Abdulla Qodiriyning badiiy dunyosi» kollektiv monografiyasi, U.Normatovning «Qodiriy bog'i», M.Qo'shjonovning «Qodiriy — erksizlik qurboni», «O'zbekning o'zligi» kabi asarlari qodiriyshunoslikda yangi bosqich bo'ldi. Istiqlol millatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotida yangi bosqich, milliy tariximizda, turmushning barcha soxalarida yangi sahifa ochgan buyuk hodisa bo'ldi. Avvaliga chor xukumati, keyin sho'ro tomonidan yurgizilgan mustamlakachilik siyosati milliy tafakkurda og'ir asoratlar qoldirdi. Istiqlolga erishilgach,

O'zbekiston raxbariyati ma'naviyat va ma'rifat ishlariga alohida e'tibor bergani, buni davlat siyosati maqomidagi vazifaga aylantirgani bejiz emas, balki ijtimoiy-tarixiy zarurat edi. Kishilar ongini sho'ro mafkurasi asoratlaridan forig' etish, jamiyatimizning ertasini belgilaydigan yangi avlodni tarbiyalash kunning eng dolzarb vazifasiga aylandi. Tabiiyki, bunda adabiyot va san'atning, jumladan, tanqid va adabiyotshunoslikning ham faol ishtiroki zarur edi.

Tanqid va adabiyotshunoslik oldidagi eng dolzarb masalalardan biri o'tmish adabiy merosini ilmiy xolis o'rganish va qayta baxolash bo'lib qoldi. Uzoq yillar mobaynida boy adabiy merosimizga sinfiylik nuqtai nazaridan yondashildi, merosni «kerak-nokerak»ka ajratib chala o'rganildi, uni zamonga o'ta vulgar moslashtirib talqin qilindi. Buni, masalan, sho'ro zamonida adabiyotshunosligimizning alohdda sohasiga aylanib ulgurgan navoiyshunoslikda ham ko'rish mumkin edi: Navoiy asarlari to'la nashr etilmadi, chop etilganlaridan hamd va na'tlar qisqartirildi, talqinlar zamonga moslashtirildi. Bularning bari masalaning o'ta chigal va murakkabligidan dalolat beradi. To'g'ri, bu masala «oshkoralik» yillariyoq kun tartibiga qo'yilgan edi. Biroq unutmaslik kerakki, «oshkoralik» — «Qayta qurish», ya'ni sho'ro tuzumini saqlab qolishga yo'naltirilgan xarakterning bir qismi edi, xolos. SHunaqa ekan, «oshkoralik» sharoiti mazkur masalani atroflicha keng va ilmiy xolis o'rganishga imkon berishi mumkin emas, mabodo ilojsiz berganida ham, bu uzoqqa cho'zilishi mumkin emas. Istiqlool sharoiti mumtoz adabiy merosimizni atroflicha chuqur va ilmiy xolis o'rganishga to'la imkoniyat yaratdi. Avvalo shuki, bu masala ko'lami kengroq bo'lgan o'zlikni tanish, qadriyatlarni tiklash masalasining uzviy bo'lagi bo'lib qoldi. Prezidentimiz o'rta tashlagan «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» shiori bunda dasturulamal bo'lib qoddi. Zero, o'zining ildizlarini, ajdodlarini tanigan millatgina erkning, istiqloolning kadriga etadi, dunyoda ajdodlar sha'niga munosib joy olishga harakat kiladi. Istiklolning dastlabki yili xazrat Navoiy yubileyining juda katta tantanalar bilan nishonlangani, birin-ketin Amir Temur, Bahovaddin Naqshband, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom al-Farg'oni, Imom Moturudiy kabi allomalarning, A.YAssaviy Ogahiy, Feruz kabi shoirlar tavallud to'ylarining o'tkaziliish katta voqea bo'ldi. SHunisi muhimki, bu yubileylar avvalgilaridek kampaniyabozlik yoki tantanabozlik bilangina cheklanib kolmadi, aksincha, mazkur zotlar bilan bog'liq qadamjolar tiklandi, ularning asarlari nashr qilindi, vaqtli matbuotda ularning hayoti va ijodi atroflicha yoritildi, ular haqida adabiy asarlar, hujjatli va badiiy filmlar yaratildi va h. Jumladan, «Qur'oni Karim»ning o'zbek tilida chop etilishi, Imom Buxoriy, Imom Termiziyning hadis ilmiga bag'ishlangan asarlarining e'lon qilingani mumtoz adabiyotni o'rganishda muhim ahamiyatta molik bo'ldi. Vaqtli nashrlarda N.Komilov, I.Xaqqulov, S.Rafiddinov kabi olimlarning tasavvuf ta'limoti asoslarvdan bahs etuvchi maqolalari muntazam berib boriddi, kitoblar chop qilindi. Ilgari «diniy-klerikal» yoki «saroy adabiyoti» tamg'alari bilan o'rgakilmay va ommalashtirilmay kelgan Rabg'uziy, YAssaviy, So'fi Olloyor, Huvaydo, Feruz, Amiriy kabi ijodkorlarning asarlari nashr etildi, ular haqida qator maqolalar yozildi. Ta'kidlash lozimki, adabiyot tarixiga oid bu ishlarning ommaviy-ma'rifiy xarakterda bo'lishini

davrning o'zi taqozo etgan bo'lib, ayni shu xususiyati tufayligana ularni mohiyatan adabiy tanqidiy asarlar sanash mumkindir.

1994 yilda A. Qodiriy tavalludining 100 yilligi nishonlandi. Tanqid va adabiyotshunoslik mazkur sanani munosib kutib oldi, vaqtli matbuotda adib hayoti va ijodi to'g'risida yangi ma'lumotlar beruvchi, asarlarini yangicha talqin qiluvchi qator maqolalar e'lon qilindi. «Abdulla Qodiriyning badiiy dunyosi» kollektiv monografiyasi, U.Normatovning «Qodiriy bog'i», M.Qo'shjonovning «Qodiriy — erksizlik qurboni», «O'zbekning o'zligi» kabi asarlari qodiriyshunoslikda yangi bosqich bo'ldi. Istiqlol millatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotida yangi bosqich, milliy tariximizda, turmushning barcha soxalarida yangi sahifa ochgan buyuk hodisa bo'ldi. Avvaliga chor xukumati, keyin sho'ro tomonidan yurgizilgan mustamlakachilik siyosati milliy tafakkurda og'ir asoratlarni qoldirdi. Istiqlolga erishilgach, O'zbekiston xabarivati ma'naviyat va ma'rifat ishlariga alohida e'tibor bergani, buni davlat siyosati maqomidagi vazifaga aylantirgani bejjiz emas, balki ijtimoiy-tarixiy zarurat edi. Kishilar ongini sho'ro mafkurasi asoratlardan forig' etish, jamiyatimizning ertasini belgilaydigan yangi avlodni tarbiyalash kunning eng dolzarb vazifasiga aylandi. Tabiiyki, bunda adabiyot va san'atning, jumladan, tanqid va adabiyotshunoslikning ham faol ishtiroki zarur edi.


O`zbek tanqidchiligining fan sifatida 20-yillarda shakllanishi, tanqidchi likda matbuotning o`rni. 20-yillardagi tanqid haqida chiqqan qarorlar, ilk tanqidiy-nazariy ma`lumotlar, A.Sa`diy,O.Hoshim, Z.Bashir, S,Husayn qarashlari

Adabiy tanqidda metod uslubiy yo`nalishlar

Uslubiy yo`nalishlar haqida ma`lumot. Ularning publitsistik. Janrlar tahlili. 1972-yildagi tanqid to`g`risidagi qaror, uning ijrosi. O`zbek adabiy tanqidi ilmi

naqadadan boshlanib mustaqil fan darajasiga - adabiyotshunoslikning muhim sohasiga aylandi.

XX asr I yarmida o'zbek adabiy tanqid chiligi

Davr tanqidchiligiga umumiy sharh. Yangicha tanqidiy qarashlarning shakllanishi, tanqidchi lar faolligining oshishi. Bu tarixiy-adabiy jarayonda tanqid adabiyot tarixi va adabiyot nazariyasi hamda boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan mustahkam aloqada rivojlanib keldi, uning mohiyati va vazifalari to'la shakllandi

XX asr II yarmidan 1991 yillarda o'zbek tanqidchiligi

Davr adabiy hayotining xususiyatlari. Tanqidchi likning yangi bosqichga o'tishi. Adabiy meros va yangi asarlarga munosabat

Adabiy tanqidda tahlil tamoyillari

Bu davr tanqidchiligi gining asosiy xususiyatlari. Zamonaviylik, mahorat masalalari. Adabiyot va tanqid munosabati O'zbek adabiy tanqidining shakllanishidagi ikkinchi yozma manba ancha ko'lamdor bo'lib, adabiy va ilmiy xarakterdadir

Yozuvchi hayoti va ijodini baholovchi janrlar

Tahlil tamoyillari turlari. G'oyaviy-estetik, tarixiy funksional, tarixiy biografik yondashuv, tarixiy-tipologik tahlilning asosiy xususiyatlari. Bu xususiyat adabiy-tanqidiy qarashlarning, yuqorida ta'kidlanidek, o'tmishda qorishiq holda bo'lganligi, ular turli til, asar va yo'nalishlardagi manbalarda turfa saviyada va maqsadlarda bitilgani bilan izohlanadi.

Abdurauf Fitrat (1886-1938)

Janrlarga umumiy sharh. Adabiy jarayonni yorituvchi shakllar. Taqriz, adabiy obzor, problema tik maqola va essening xususiyatlari. Fitrat asarni taxlil etish, muallif mehnatini xolis baholash, noo'rin tarzda adabiyotni siyosatlashtirmaslik singari masalalarni o'rta qo'ya olgan olim ekanligi.

Abdurahmon Sa'diy (1889-1956)

Tanqidiy-biografik ocherk, adabiy portret, ilmiy-biografik tadqiqot haqida ma'lumot A.Sa'diy ijodida adabiyotshunoslikning adabiyot tarixi, nazariyasi va tanqidining dolzarb masalalariga munosabat aks etadi. Bular taqriz, ilmiy maqola, adabiy obzor, adabiy portret, qo'llanma, monografiya va boshqa janrlarda bayon qilingan.

Matyoqub Qo'shjonov- tanqidchi

U o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligining asos chisi ekanligi. M.Qo'shjonov birinchilardan bo'lib, (Izzat Sulton xizmatlarini e'tirof etgani holda) A.Qodiriy ijodi adabiyotimizda noyob hodisa, adib esa ulkan san'atkor ekanini ko'rsata olgan munaqqid ekanligi.

Ozod SHarafiddinov-tanqidchi

Sa'diy ilk professional tanqidchi ekani. Uning 20-30-yil-dagi adabiy-tanqidiy asarlari. Uning nazariy-tanqidiy qarashlari. Ozod SHarafiddinov sal kam 50-yillik ilmiy-pedagogik faoliyatida 300 dan ziyod maqola va 20 dan ko'p kitoblar yaratgan. Ular badiiy ijodning o'ziga xosligi, adabiy janrlar evolyutsiyasi va rivoji, adabiy aloqalar, badiyat, til va mahorat kabi dolzarb muammolarga bag'ishlangan.

MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT

Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., SHarafiddinov O. – 1999 yil "O'qituvchi" nashriyotida nashr qilingan "XX asr o'zbek adabiyoti tarixi" - Oliy o'quv yurtlari uchun darsligining mualliflari.

Sharafiddinov O. – o'zbek adabiy tanqidchiligining ulkan namoyandasi, O'zbekiston qahramoni, "Ijodni anglash baxti", "Birinchi mo'jiza", "Cho'lpon" kabi ko'plab asarlar muallifi

Normatov U - filologiya fanlari doktori, professor. Adabiyotshunos va munaqqid. "Nasrimiz ufqlari", "Nasrimiz an'analari", "Yangi o'zbek adabiyoti", "Umidbaxsh tamoyillar" kabi asarlar muallifi

Karimov N – filologiya fanlari doktori, professor, A.Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti XX asr adabiyoti bo'limi mudiri, "XX asr adabiyoti manzaralari", "Oybek", bir qancha darsliklar muallifi

Rasulov A.R. -Jahon adabiyoti va nazariya kafedrasi professori

Qahramonov Q. -Toshkent Davlat Pedagogika universiteti "Hozirgi o'zbek adabiyoti" kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Yo'ldoshev Q. -O'zMU Matnshunoslik, milliy uyg'onish va hozirgi o'zbek adabiyoti kafedrası professori

Rahmonov B. -filologiya fanlari nomzodi, "O'zbek adabiy tanqidchiligi" qo'llanmasi muallifi

FOYDALI MASLAHATLAR:

1. O'qituvchi o'quv jarayonida qo'llashi kerak bo'lgan holatlar:

1. o'qituvchi va talaba o'rtasidagi munosabatlarning o'zgarishi (hamkorlik pedagogikasi);
2. faqat "quloq solish" emas, balki "ishtirok etish yo'li orqali o'qitish;
3. faqat natijaga emas, balki jarayonga ham qarash;
4. o'qitishning zamonaviy yo'llari va usullarining keng "repertuariga" ega bo'lish;
5. empatiya va refleksiyani qo'llash;
6. tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullarini qo'llash;
7. shaxsga yo'naltirilgan, gumanistik pedagogikani o'zlashtirish va unga amal qilish;
8. talabalarni o'qishga undash va faollashtirishning zamonaviy usullarini qo'llash;
9. aniq mashg'ulot o'tkazish jarayonida, jumladan yaratish va izlanish-ijodiy darajalarida o'qitishning zamonaviy texnologiyalari va usullarini qo'llashning xilma-xilligi;
10. o'qitish natijalarini baholashning zamonaviy tizimini qo'llashni namoyish qilish.

2. Pedagogning zamonaviy metodik salohiyati quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- u faqat boshqalarni o'qitish bilan cheklanmasdan, o'zining mustaqil ta'limi bilan ham shug'ullanadi;
- uning ishi faqatgina o'quv dasturida ko'zda tutilgan ma'lumotni talabalarga etkazib berish bilan cheklanmaydi, balki turli usullarni qo'llab, talabalarni o'quv jarayonida faol qatnashishga undaydi. Buning uchun u o'zining hatti-harakatining an'anaviy modelini o'zgartirishi, o'zi ko'proq interaktiv bo'lishi kerak;
- o'qituvchi innovatsion va pedagogik texnologiyalardan foydalana olishi lozim, chunki hamma yangi o'quv usullari va shakllari ular bilan bog'liqdir;
- o'quv jarayonini tashkil etish ba'zi bir muomala ko'nikmalarini, kommunikabellikni, o'zgaruvchanlikni, mustaqil qarorlarni qabul qilishni, o'z faoliyatining natijalarini tanqidiy baholashni talab qiladi;
- Internet, masofaviy ta'lim rivojlanishi va ulardan foydalanuvchilarning soni ko'payishi bois, ularni o'qita oladigan maxsus mutaxassis - pedagoglar kerak bo'ladi.

1. Ma'lumotni qabul qilish, o'zlashtirish, qayta ishlashda talabaning intellektual imkonini hisobga olish:

- o verbal-lingvistik, so'z va til bilan bog'liq (yozma va og'zaki) qobiliyati;
- o mavzuiy-mantiqiy, deduktiv fikrlash, son va abstrakt belgilar bilan bog'liq;

- shaxsning o'z ichki refleksini qamrab olgan xususiyati, ma'naviy mavjudotni, o'zining "men"ligi ichki holatini anglashi;
- insonlararo munosabatlar, asosan muomala bilan bog'liq;
- fazoviy idrok, ob'ektiv ko'rib, u haqda aqliy zohiriy tasavvur hosil qilish xususiyati;
- fizik harakat va tanani boshqarish, jumladan harakatlarni nazorat qiluvchi miya mexanizmi bilan aloqador bo'lgan jismoniy-kinetik xususiyat;
- o'z ichiga ohangdorlik namunalarini jamlagan, uning ritmini his etishi bilan bog'liq musiqiy-ritmik xususiyat.

2. Ta'limda an'anaviy va zamonaviy yondashuvlarni qiyoslash:

An'anaviy yondashuv

1. Asosiy e'tibor o'qitish mazmuniga qaratilgan.
2. O'qituvchi – boshqaruvchi, talaba – boshqariluvchi
3. O'quv maqsadlari oldindan aniqlashtirilgan
4. O'qituvchi bilimlarini monolog orqali etkazadi
5. "Men bilamanki..." yondoshuviga urg'u beriladi
6. Talaba axborotni passiv holatda qabul qiladi
7. O'qituvchi to'g'ri javobni shakll holatda talab qiladi.
8. Mashg'ulotlarning "dasturlanganligi" va qat'iy tuzilmasiga amal qilinishi
9. Xatolarga "yuqoridan pastga" qarashadi
10. O'qituvchi faoliyati asosan avtoritar.
11. Asosiy e'tibor nazariyaga qaratilgan
12. O'qitishga o'quv fan-funksional yondashuv
13. Faoliyatning etarli bo'lmagan produktiv barqaror stereotiplari

Zamonaviy yondashuv

- Asosiy e'tibor o'qitishning mazmuniga va jarayoniga qaratilgan
- Talaba o'quv jarayonining faol ishtirokchisi
- O'quv maqsadlari muzokarada aniqlanib, kutilayotgan natija orqali aks ettiriladi.
- O'qituvchi o'quv jarayonining ishtirokchisi, dialog, poliloglarni qo'llaydi.
- "Men qanday bilaman" yondoshuviga urg'u beriladi.
- Talabalar bilimlarni faol qabul qiladi va o'zlashtiradi.
- O'qituvchi savolga turli xil javoblarni rag'batlantiradi.
- Mashg'ulotlar talabalarining imkoniyat va talablari doirasida tashkil etilishi
- Xatolarning ikki tomonlama taxlili va tajribaning oshishi.
- Pedagog faoliyatining usuli rag'batlantiruvchi, demokratik.
- Asosiy qismi amaliyotga asoslangan nazariy e'tibor
- O'qitishga muammoviy-fanlararo yondashuv
- Qo'llanilayotgan pedagogik usulning turli-tumanligi

5. O'qitishning vazifalarini tekshirish va baholash maqsadida quyidagi qadamlarni qo'llang:

1. har bir vazifalar guruhini "Dars yakunida talabalar quyidagilarni bajara olishlari lozim ..." - deb boshlang;
2. vazifalarni alohida raqamlang;
3. beriladigan vazifalarni quyidagi fe'llardan boshlang: sanab o'ting, eslang, so'zlab bering, ko'rsatib bering, tanlang, hisoblang va hokazo.;
4. har bir vazifani talaba so'zi bilan qo'ying (o'qituvchi atamasida emas);
5. topshiriqlar xilma-xilligidan qat'iy nazar faqat BITTA natijani ko'zlasin;
6. dars bosqichlarini shunday rejalashtiringki, toki u o'qituvchining o'tadigan dars bosqichlarini emas, balki "talabaning o'zini keyinchalik qanday tutishi kerakligiga ishora qilsin";

7. muammolarni shunday qo'yingki, uning echimini mezonlash va qanday qilib maqsadga erishilganligini aniqlash mumkin bo'lsin;
8. ular buni qila oladilarmi? – degan savol topshiriq berishdan oldin ishlatiladi (kerakli test topshiriqlarini tuzishda).

7. Talabalarga yordam bermoqchimisiz? Ularni quyidagilarga o'rgating:

- a) o'z oldiga haqiqatga yaqin maqsadlar qo'yishga;
- b) maqsadlarni o'z imkoniyatlari bilan o'zaro nisbatini aniqlashga;
- v) o'zining kuchli va kuchsiz tomonlarini bilishga;
- g) aniq hatti-harakatni belgilashga;
- d) sodir bo'lgan vaziyatni to'g'ri baholashga;
- j) shaxsiy dasturining bajarilishini, o'z hatti- harakatlari orqali maqsadiga yaqinlashayotganligini doimo tahlil qilib borishga.

8. O'z-o'zini motivlashtirish strategiyasi quyidagilardan iborat:

1. Strategiya: uzoq muddatli kelajakka reja tuzing.
- 2) SHERiklik: o'qish bo'yicha tanlangan sherik olganiga yarasha biror narsa beradigan bo'lsin.
- 3) Tarkiblashtirish: mashg'ulotlarni doim bir xil vaqt: soat, kun, haftada o'tkazing.
1. Taxminiy rejalash: o'qishdan ko'zlagan maqsad va vazifalaringizni umumiy tarzda aniqlang.
2. Motiv: o'qish mazmunini qanday qilib bugungi - ertangi kasbiy amaliyotingiz, yoki shunchaki kundalik turmushingiz bilan uyg'unlashtira olishingizni aniqlang.
- 6) Asta-sekinlik: o'qitish mazmunini oson o'rtacha va qiyin o'zlashtiriladigan qismlarga ajrating va uni o'zlashtirishni dastlab o'rtacha qiyinlikdagi, so'ngra qiyin va nihoyat eng oson qismini o'zlashtiring.
- 7) Qo'shimcha: o'qiyotgan materialga o'zingizning izohlaringiz va tarkibiy sxemalar bilan qo'shimchalar kiriting. Ehtimol, kimdir jur'at qilib bu haqda bahslashar.
1. Mukofot: topshiriqni bajarib bo'lgandan so'ng o'zingizga o'zingiz yoqimli so'zlar ayting.
2. Kengaytirish: sizga qiziqarli bo'lgan ayrim mavzularga oid qo'shimcha adabiyotlar o'qing yoki uni o'rtoqlaringiz va o'qituvchi bilan muhokoma qiling.
- 10) Tejamkorlik: bilim puxta bo'lishi uchun o'quv materialining asosiy mazmunini takrorlang, o'tilgan materialni mashqlar yordamida mustahkamlang.

Talabalarga quyidagilarni so'zlang:

1. o'z-o'zini hurmat qilish qancha yuqori bo'lsa, o'qish natijalari ham shuncha yaxshi bo'ladi;
 2. o'qishdagi muvaffaqiyatlar o'quv jarayonini tezlashtiradi;
 3. o'qishdagi muvaffaqiyatsizliklar esa o'qishni tashlab ketish istagini paydo qilishi mumkin;
- ruhiy tetiklik va qiziqish sezgilari o'qishni osonlashtiradi.

Ijodkor pedagoglar motivlarni vujudga keltirishga mohir bo'ladilar. Talabalar bunday o'qituvchilar to'g'risida quyidagi fikrlarni bildiradi: «Mashg'ulotlar doimo qiziqarli va turli shakllarda o'tadi, meni doim fikrlashga undaydi», «O'qituvchining o'z faniga qiziqishi meni nihoyatda hayron qoldirdi», «Mashg'ulotlar, ularda faqat quloq solib o'tirish emas, balki faol tarzda ishlash kerakligi uchun ham yoqadi».

Talabalarning bunday baholari o'qituvchiga juda yoqadi-da - to'g'ri emasmi? Zotan u aynan shunday natijaga erishish uchun ishlaydi.

O'qituvchi intizomiga chizgilar.

1. Ba'zilar muvaffaqiyati va ba'zilar muvaffaqiyatsizligini ta'kidlamaslik.
2. Kuchlilarni kuchsizlarga taqqoslamaslik.
3. Jamoa oldida talabani urishmaslik, ko'proq alohida suhbat qurish.
4. Kuchsiz talabalarning kichik yutug'ini sezish, biroq keskin ta'kidlamaslik.
5. Har bir talabadagi ijobiy uchqunni topib yokish va h.k.z. individual yondashish.

Quyidagi ko'rsatmalarga amal qiling:

1. talabalarni astoydil o'qishga o'rgatish, ularda tirishqoqlikni, kuchli irodani, maqsadga intiluvchanlikni tarbiyalash;
2. nihoyatda qiyin topshiriqlarning hal etilishini rag'batlantirish;
3. maqsad, vazifa, hisobot shakli, baholash mezonini aniq belgilashga o'rgatish;
4. burch va javobgarlik hissini rivojlantirish;
5. eng avvalo, o'ziga talabchan bo'lishga o'rgatish.

ME'YORIY HUJJATLAR:

1. OLIY TA'LIMNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI:

TA'LIM TO'G'RISIDA

1. UMUMIY QOIDALAR

1-modda. Ushbu qonunning maqsadi

Ushbu Qonun fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga qaratilgan.

2-modda. Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlari

Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonunda hamda boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

Qoraqalpog'iston Respublikasi ta'lim sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlaridagidan o'zgacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidolari qo'llaniladi.

3-modda. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplari.

Ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilinadi.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplari quyidagilardan iborat:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o'rta, shuningdek o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqqligi;
- ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

4-modda. Bilim olish huquqi

Jinsi, tili, yoshi, irqi, milliy mansubligi, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqei, turar joyi, O'zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat'i nazar, har kimga bilim olishda teng huquqdar kafolatlanadi.

Bilim olish huquqi:

- davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirish;
- ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda ta'lim olishni tashkil etish;
- ta'lim va kadrlar tayyorlash davlat dasturlari asosida bepul o'qitish, shuningdek, ta'lim muassasalarida shartnoma asosida to'lov evaziga kasb-hunar o'rgatish;
- barcha turdagi ta'lim muassasalarining bitiruvchilari keyingi bosqichdagi o'quv yurtlariga kirishda teng huquqlarga ega bo'lishi;
- oilada yoki o'zi mustaqil ravishda bilim olgan fuqarolarga akkreditatsiyadan o'tgan ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadi.

Respublikada istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilim olishda Uzbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega.

5-modda. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi

Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega.

Pedagog xodimlarni oliy o'quv yurtlariga ishga qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan Nizomga muvofiq tanlov asosida amalga oshiriladi.

Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish sud hukmiga asosan man etilgan shaxslarning ta'lim muassasalarida bu faoliyat bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmaydi.

6-modda. Ta'lim muassasasining huquqiy maqomi

Ta'lim muassasasini akkreditatsiyalash vakolatli davlat organi tomonidan attestatsiyaga asosan amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasaei yuridik shaxs bo'lib, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda barpo etiladi. Nodavlat ta'lim muassasasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda davlat akkreditatsiyasidan o'tgan paytdan boshlab yuridik shaxs huquklari va ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

Ta'lim muassasasi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan ustav asosida faoliyat ko'rsatadi.

Ta'lim muassasasi attestatsiya natijalariga binoan davlat akkreditatsiyasidan mahrum etilishi mumkin.

Ta'lim muassasalari o'quv-tarbiya majmualariga hamda o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari va uyushmalariga birlashishga haqsh.

Ta'lim muassasalari ustavda belgilangan vazifalariga muvofiq pulli ta'lim xizmatlari ko'rsatish, shuningdek tadbirkorlik faoliyatining boshqa turlari bilan shug'ullanishga haqli.

7-modda. Davlat ta'lim standartlari

Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

Davlat ta'lim standartlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

8-modda. Ta'lim berish tili

Ta'lim muassasalarida ta'lim berish tilidan foydalanish tartibi «Davlat tili haqida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinadi.

II. TA'LIM TIZIMI VA TURLARI

9-modda. Ta'lim tizimi

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;
- ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot mshlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;
- ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir.

10-modda. Ta'lim turlari

O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

- maktabgacha ta'lim;
 - umumiy o'rta ta'lim;
 - o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
 - oliy ta'lim;
 - oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim.

11-modda. Maktabgacha ta'lim

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va etuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-etti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'iy nazar boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi.

12-modda. Umumiy o'rta ta'lim

Umumiy o'rta ta'lim bosqichlari quyidagicha:

1. boshlang'ich ta'lim (1-1V sinflar);
2. umumiy o'rta ta'lim (1-IX sinflar).

Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandir. Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-yotgi yoshdan qabul qilinadi.

Umumiy o'rta ta'lim bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

Bolalarning qobiliyati, iste'dodini rivojlantirish uchun ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilishi mumkin.

14-modda. Oliy ta'lim

Oliy ta'lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi.

Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash oliy o'quv yurtlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar va oliy maktabning boshqa ta'lim muassasalarida) o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim ikki bosqichga: davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatlar bilan dalillanuvchi bakalavriat va magistraturaga ega.

Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha puxta bilim beradigan, o'qish muddati kamida to'rt yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir,

Fuqarolar ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni shartnoma asosida olishga haqlidirlar.

15-modda. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning yuqori malakali ilmiy-pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida (aspirantura, doktorantura, mustaqil tadqiqotchilik) olinishi mumkin.

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, ilmiy darajalar va unvonlar berish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

16-modda. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kasb bilimlari va ko'nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilashni ta'minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

18-modda. Oiladagi ta'lim va mustaqil ravishda ta'lim olish

Davlat oilada ta'lim olishga va mustaqil ravishda ta'lim olishga ko'maklashadi. Bolalarni oilada o'qitish va mustaqil ravishda ta'lim olish tegishli ta'lim muassasalarining dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi. Ta'lim oluvchilarga vakolatli davlat muassasalari tomonidan uslubiy, maslahat va boshqa yo'sinda yordam ko'rsatiladi.

III. TA'LIM JARAYONI QATNASHCHILARINI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH

20-modda. Ta'lim oluvchilarni ijtimoiy himoya qilish

Ta'lim muassasasida ta'lim oluvchilar qonun hujjatlariga va normativ hujjatlarga muvofiq imtiyozlar, stipendiya va yotoqxonada joy bilan ta'minlanadi.

21-modda. Ta'lim muassasalari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish

Ta'lim muassasalari xodimlariga ish vaqtining qisqartirilgan muddati belgilanadi, haqi to'lanadigan yillik uzaytirilgan ta'tillar va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar beriladi.

Ta'lim muassasalari ish haqiga mo'ljallangan mavjud mablag'lar doirasida mustaqil ravishda stavkalar, mansab okladlariga tabaqalashtirilgan ustama belgilashga hamda mehnatga haq to'lash va rag'batlantirishning turli shakllarini qo'llashga haqli.

IV. TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISH

25-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- 3.ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
- 4.ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qilish;
- 5.ta'limni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- 6.ta'lim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilash;
- 7.ta'lim muassasalarini akkreditatsiyadan, pedagog, ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibini belgilash;
- 8.boshqa davlatning ta'lim muassasalariga O'zbekiston Respublikasining hududida ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berish;
- 9.qonun hujjatlariga muvofiq xorijiy davlatlarning ta'lim to'g'risidagi hujjatlarini tan olish va bu hujjatlarning ekvivalent ekanligini qayd etish tartibini belgilash;
10. davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash;

11. davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash;
12. davlat grantlari miqdorini va ta'lim muassasalariga qabul qilish tartibini belgilash;
13. davlat oliy ta'lim muassasasining rektorlarini tayinlash;
14. ta'lim oluvchilarni akkreditatsiya qilingan bir ta'lim muassasasidan boshqasiga o'tkazish tartibini belgilash;
15. qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

V. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

32-modda. Ta'limni rivojlantirish fondlari

Ta'limni rivojlantirish fondlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari hisobidan tashkil etilishi mumkin.

33-modda. Xalqaro hamkorlik

Ta'lim muassasalari ta'lim muammolari yuzasidan xalqaro hamkorlikda ishtirok etadilar, chet davlatlarning tegishli o'quv yurtlari bilan bevosita aloqalar o'rnatish, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ular bilan qo'shma o'quv yurtlari tashkil etish huquqiga ega.

34-modda. Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY MAJLISINING QARORI «TA'LIM TO'G'RISIDA»GI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNINI AMALGA KIRITISH TARTIBI HAQIDA

O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi

QAROR QILADI:

- «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni e'lon qilingan kundan e'tiboran amalga kiritilsin.
- Belgilab quyilsinki, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning umumiy o'rta ta'lim olishga, uch yillik akademik litseylarda va kasb-hunar kollejlarda o'qishga hamda oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashga taalluqli 12, 13 va 14-moddalaridagi qoidalar Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan muddatlarda joriy etiladi.
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hukumat qarorlarini «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunga muvofiqlashtirsin, vazirliklar va idoralar mazkur Qonunga zid bo'lgan o'z normativ hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.
- Belgilab quyilsinki, qonun hujjatlari «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunga muvofiqlashtirilgunga qadar O'zbekiston Respublikasi amaldagi Qonun hujjatlarining mazkur Qonunga zid bo'lmagan qismi qo'llaniladi.
- 1992 yil 2 iyulda Qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 yil, № 9, 342-modda; 1993 yil, № 6, 268-madda) o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisining Raisi

E. XALILOV

Tashkent shahri, 1997 yil 29 avgust

**“O’ZBEK ADABIY TANQIDCHILIGI TARIXI” fanidan
BAHOLASH MEZONLARI**

Maksimal ball – 100

Saralash bali - 55

Reyting ishlanmasi

T/r	Nazorat turlari	Soni	Ball	Jami ball
I.	J.B.			
	1.1. Amaliy mashg`ulotni bajarish	2	8	16
	1.2. Seminar mashg`ulotni bajarish	2	8	16
	1.3. TMI – yozma referat yozish, ifodali o`qish, savol va topshiriqlar tayyorlash, ijodiy ish	1	8	8
II.	O.B.			
	2.1.Yozma ish (3 ta savol)	1	30 (10x3=30)	30
III.	Ya.B.			
	3.1. Yozma ish(3 ta savol)	1	30 (10x3=30)	30
	Jami			100

Joriy nazorat - 40 ball

Maksimal - 40 ball

Saralash - 22 ball

Baho	Foiz	Ball
“qoniqarsiz”	0-54	0-21
“qoniqarli”	55-70	22-28
“yaxshi”	71-85	28,4-34
“a`lo”	86-100	34,4-40

Oraliq nazorat 30 ball
Maksimal 30 - ball
Saralash - 16,5 ball

Baho	Foiz	Ball
“qoniqarsiz”	0-54	0-16,2
“qoniqarli”	55-70	16,5-21
“yaxshi”	71-85	21,3-25,5
“a`lo”	86-100	25,8-30

JN+ON – 70 ball
Maksimal - 70 ball
Saralash - 38.5 ball

Baho	Foiz	Ball
“qoniqarsiz”	0-54	0-37,8
“qoniqarli”	55-70	38,5-49
“yaxshi”	71-85	49,7-59,5
“a`lo”	86-100	60,2-70

Yakuniy nazorat - 30 ball
Maksimal - 30 ball
Saralash - 16.5 ball

Baho	Foiz	Ball
“qoniqarsiz”	0-54	0-16,2
“qoniqarli”	55-70	16,5-21
“yaxshi”	71-85	21,3 - 25,5
“a`lo”	86-100	25,8-30

JORIY NAZORAT - 40 ball

Joriy baholashda jami beshta nazorat bo`lib, ikkitatasi amaliy mashg`ulotni bajarish, ikkitatasi seminar mashg`ulotni bajarish va bittasi TMI – yozma referat yozish shaklida tashkil etiladi. 1.1. Amaliy mashg`ulotni bajarish bo'yicha yagona nazorat jarayonida talabaga quyidagi holatlarda 86-100 qo'yiladi:

- amaliy mashg`ulotda faol qatnashsa – 13.1-15
- amaliy mashg`ulot mavzusining maqsadi va mazmunini atroflicha yoritib olsa – 13.1-15
- bayonda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qoyilmasa – 8.6-10
- mavzu materialining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lsa – 8.6-10

- mavzu doirasida mustaqil mushohada yuritish, ijodiy fikrjash qobiliyatini namoyon eta olsa – 8.6-10
- berilgan 2 savolga aniq va lo`nda javob bera olsa – 8.6-10
- amaliy mashg`ulot konspekti puxta tayyorlangan bo`lsa – 4.2-5
- o`quv dasturida tavsiya qilingan asosiy va qo`shimcha adabiyotlarni o`zlashtirgan bo`lsa – 8.6-10
- mavzuni yoritishda internet tarmog`idan olingan ma`lumotlarga murojaat qilingan bo`lsa – 4.2-5
- axborotni to`plash, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanishni bilsa – 4.2-5
- tinglovchilar bergan 3 savolga to`liq javob bera olsa – 4.2- 5

Amaliy mashg`ulotni bajarish bo`yicha yagona nazorat jarayonida talabaga quyidagi holatlarda - 71-85 qo`yiladi:

- amaliy mashg`ulotda yaxshi qatnashsa – 10.6 - 13.0
- amaliy mashg`ulot mavzusining maqsadi va mazmunini yaxshi yorita olsa – 10.6- 13
- bayonda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va mantiqiy chalkashliklarga deyarli yo`l qoyilmasa – 7.1 - 8.5
- mavzu materialining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida yetarli tasavvurga ega bo`lsa – 7.1 - 8.5
- mavzu doirasida o`z tasavvurlari va bilimlarini bayon qila olsa – 7.1 - 8.5
- berilgan 2 savolga aniq javob bera olsa – 8.6- 9
- amaliy mashg`ulot konspekti yaxshi tayyorlangan bo`lsa – 3.2-4
- o`quv dasturida tavsiya qilingan asosiy va qo`shimcha adabiyotlarni qisman o`zlashtirgan bo`lsa – 7.1 - 8.5
- mavzuni yoritishda internet tarmog`idan olingan ma`lumotlarga murojaat qilingan bo`lsa – 3.2-4
- axborotni to`plash, saqlash, qayta ishlash va ulardan qisman foydalanishni bilsa –3.2- 4
- tinglovchilar bergan 3 savoldan 2 tasiga to`liq javob bera olsa –3.2- 4

Amaliy mashg`ulotni bajarish bo`yicha yagona nazorat jarayonida talabaga quyidagi holatlarda - 55-70 qo`yiladi:

- amaliy mashg`ulotda faol qatnashmasa – 8.2 – 10.5
- amaliy mashg`ulot mavzusining maqsadi va mazmunini yaxshi yorita olmasa – 8.2- 10.5
- bayonda ilmiylik va mantiqiylik saqlanmasdan, ayrim ilmiy xatolik va mantiqiy chalkashliklarga yo`l qoyilsa – 5.5-7.0
- mavzu materialining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida ma`lum ma`noda tasavvurga ega bo`lsa – 5.5-7.0
- mavzu doirasida o`z tasavvurlari va bilimlarini bayon qila olsa – 5.5-7.0
- berilgan 2 savolga qoniqarli javob bera olsa – 5.5-7.0
- amaliy mashg`ulot konspekti puxta tayyorlanmagan bo`lsa – 2.8-3.5
- o`quv dasturida tavsiya qilingan asosiy va qo`shimcha adabiyotlarni o`zlashtirmagan bo`lsa – 5.5-7.0
- mavzuni yoritishda internet tarmog`idan olingan ma`lumotlarga murojaat qilingan bo`lmasa – 2.8-3.5
- axborotni to`plash, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish malakasi kam bo`lsa –2.8-3.5
- tinglovchilar bergan 3 savoldan 1 tasigasa to`liq javob bera olsa –2.8-3.5

Amaliy mashg`ulotni bajarish bo`yicha yagona nazorat jarayonida talabaga quyidagi holatlarda - 0-54 qo`yiladi:

- amaliy mashg`ulotda faol qatnashmasa – 0 – 8.1
- amaliy mashg`ulot mavzusining maqsadi va mazmunini yetarli yorita olmasa – 0-8.1
- bayonda ilmiylik va mantiqiylik saqlanmasdan, ko`p ilmiy xatolik va mantiqiy chalkashliklarga yo`l qoyilsa – 0-5.4

- mavzu materialining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida tasavvurga ega bo'lsa – 0-5.4
- mavzu doirasida o'z tasavvurlari va bilimlarini bayon qila olmasa – 0.-5.4
- berilgan 2 savolga javob bera olmasa – 0-5.4
- amaliy mashg'ulot konspekti tayyorlanmagan bo'lsa – 0-2.7
- o'quv dasturida tavsiya qilingan asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni o'zlashtirmagan bo'lsa – 0-5.4
- mavzuni yoritishda internet tarmog'idan olingan ma'lumotlarga murojaat qilingan bo'lsa – 0-2.7
- axborotni to'plash, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish malakasi bo'lsa – 0-2.7
- tinglovchilar bergan 3 savoldan 1 tasigasa to'liq javob bera olsa – 0-2.7

1.2. Seminar mashg'ulotni bajarish bo'yicha yagona nazorat jarayonida talabaga quyidagi holatlarda - 86-100 qo'yiladi:

- seminar mashg'ulotda faol qatnashsa – 13.1-15
- seminar mashg'ulot mavzusining maqsadi va mazmunini atroflicha yoritib olsa – 13.1-15
- bayonda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qoyilmasa – 8.6-10
- mavzu materialining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lsa – 8.6-10
- mavzu doirasida mustaqil mushohada yuritish, ijodiy fikrjash qobiliyatini namoyon eta olsa – 8.6-10
- berilgan 2 savolga aniq va lo'nda javob bera olsa – 8.6-10
- seminar mashg'ulot konspekti puxta tayyorlangan bo'lsa – 4.2-5
- o'quv dasturida tavsiya qilingan asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni o'zlashtirgan bo'lsa – 8.6-10
- mavzuni yoritishda internet tarmog'idan olingan ma'lumotlarga murojaat qilingan bo'lsa – 4.2-5
- axborotni to'plash, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanishni bilsa – 4.2-5
- tinglovchilar bergan 3 savolga to'liq javob bera olsa – 4.2- 5

Seminar mashg'ulotni bajarish bo'yicha yagona nazorat jarayonida talabaga quyidagi holatlarda - 71-85 qo'yiladi:

- seminar mashg'ulotda yaxshi qatnashsa – 10.6 - 13.0
- seminar mashg'ulot mavzusining maqsadi va mazmunini yaxshi yoritib olsa – 10.6- 13
- bayonda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va mantiqiy chalkashliklarga deyarli yo'l qoyilmasa – 7.1 - 8.5
- mavzu materialining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida yetarli tasavvurga ega bo'lsa – 7.1 - 8.5
- mavzu doirasida o'z tasavvurlari va bilimlarini bayon qila olsa – 7.1 - 8.5
- berilgan 2 savolga aniq javob bera olsa – 8.6- 9
- seminar mashg'ulot konspekti yaxshi tayyorlangan bo'lsa – 3.2-4
- o'quv dasturida tavsiya qilingan asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni qisman o'zlashtirgan bo'lsa – 7.1 - 8.5
- mavzuni yoritishda internet tarmog'idan olingan ma'lumotlarga murojaat qilingan bo'lsa – 3.2-4
- axborotni to'plash, saqlash, qayta ishlash va ulardan qisman foydalanishni bilsa – 3.2- 4
- tinglovchilar bergan 3 savoldan 2 tasiga to'liq javob bera olsa – 3.2- 4

Seminar mashg'ulotni bajarish bo'yicha yagona nazorat jarayonida talabaga quyidagi holatlarda - 55-70 qo'yiladi:

- seminar mashg'ulotda faol qatnashmasa – 8.2 – 10.5
- seminar mashg'ulot mavzusining maqsadi va mazmunini yaxshi yoritib olmasa – 8.2- 10.5
- bayonda ilmiylik va mantiqiylik saqlanmasdan, ayrim ilmiy xatolik va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qoyilsa – 5.5-7.0
- mavzu materialining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida ma'lum ma'noda tasavvurga ega bo'lsa – 5.5-7.0

- mavzu doirasida o'z tasavvurlari va bilimlarini bayon qila olsa – 5.5-7.0
- berilgan 2 savolga qoniqarli javob bera olsa – 5.5-7.0
- seminar mashg'ulot konspekti puxta tayyorlanmagan bo'lsa – 2.8-3.5
- o'quv dasturida tavsiya qilingan asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni o'zlashtirmagan bo'lsa – 5.5-7.0
- mavzuni yoritishda internet tarmog'idan olingan ma'lumotlarga murojaat qilingan bo'lmasa – 2.8-3.5
- axborotni to'plash, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish malakasi kam bo'lsa – 2.8-3.5
- tinglovchilar bergan 3 savoldan 1 tasigasa to'liq javob bera olsa – 2.8-3.5

Seminar mashg'ulotni bajarish bo'yicha yagona nazorat jarayonida talabaga quyidagi holatlarda - 0-54 beriladi:

- seminar mashg'ulotda faol qatnashmasa – 0 – 8.1
- seminar mashg'ulot mavzusining maqsadi va mazmunini yetarli yorita olmasa – 0-8.1
- bayonda ilmiylik va mantiqiylik saqlanmasdan, ko'p ilmiy xatolik va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qoyilsa – 0-5.4
- mavzu materialining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida tasavvurga ega bo'lmasa – 0-5.4
- mavzu doirasida o'z tasavvurlari va bilimlarini bayon qila olmasa – 0-5.4
- berilgan 2 savolga javob bera olmasa – 0-5.4
- seminar mashg'ulot konspekti tayyorlanmagan bo'lsa – 0-2.7
- o'quv dasturida tavsiya qilingan asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni o'zlashtirmagan bo'lsa – 0-5.4
- mavzuni yoritishda internet tarmog'idan olingan ma'lumotlarga murojaat qilingan bo'lmasa – 0-2.7
- axborotni to'plash, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish malakasi bo'lmasa – 0-2.7
- tinglovchilar bergan 3 savoldan 1 tasigasa to'liq javob bera olsa – 0-2.7

TMIning bajarilish hajmi va sifatiga qarab badi. TMI – hisobot shakli berilgan mavzu bo'yicha referat shaklida olinadi. Talaba mustaqil ish hisobotini himoya qiladi.

TMI bo'yicha nazorat jarayonida talabaga quyidagi holatlarda - 86-100 qo'yiladi:

- mavzuning maqsadi va mazmunini atroflicha yorita olsa – 13.1-15
- nazariy tushunchalarni amaliy yechimlarga tatbiq qila olsa- 8.6-10
- amaliy faktlardan xulosa va umumlashmalar qilish mahoratiga ega bo'lsa- 8.6-10
- bayonda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qoyilmasa – 8.6-10
- mavzu materialining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lsa – 8.6-10
- mavzu doirasida mustaqil mushohada yuritish, ijodiy fikrjash qobiliyatini namoyon eta olsa – 13.1-15
- ilmiy adabiyotlar bilan ishlash, ulardan havolalar keltirish malakasiga ega bo'lsa-8.6-10
- mavzuni yoritishda internet tarmog'idan olingan ma'lumotlarga murojaat qilingan bo'lsa – 4.2-5
- mavzu bo'yicha savollar mohiyatini to'la ochib bersa -4.2-5
- qo'shimcha 3 savolga aniq va lo'nda javob bersa -4.2-5
- imlo qoidalariga to'liq rioya qilsa -4.2-5

TMI bo'yicha nazorat jarayonida talabaga quyidagi holatlarda - 71-85 qo'yiladi:

- mavzuning maqsadi va mazmunini yaxshi yorita olsa – 14.2- 17
- bayonda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va mantiqiy chalkashliklarga deyarli yo'l qoyilmasa – 10.6 - 13.0
- mavzu materialining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida yetarli tasavvurga ega bo'lsa, nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay bilsa – 10.6 - 13.0

- mavzu doirasida mustaqil mushohada yuritish, ijodiy fikrjash qobiliyatini namoyon eta olsa – 10.6 - 13.0
- ilmiy adabiyotlar bilan ishlash, ulardan havolalar keltirish malakasiga ega bo`lsa - 10.6 - 13.0
- mavzuni yoritishda internet tarmog`idan olingan ma`lumotlarga murojaat qilingan bo`lsa – 3.5-4
- mavzu bo`yicha savollar mohiyatini yaxshi ochib bersa - 3.5-4
- qo`shimcha 3 savolga aniq javob bersa - 3.5-4
- imlo qoidalariga to`liq rioya qilsa - 3.5-4

TMI bo`yicha nazorat jarayonida talabaga quyidagi holatlarda - 55-70 qo`yiladi:

- mavzuning maqsadi va mazmunini ma`lum darajada yoritita olsa – 8.2 – 10.5
- mavzu materialining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida ma`lum ma`noda tasavvurga ega bo`lsa – 5.5-7.0
- mavzu doirasida o`z tasavvurlari va bilimlarini bayon qila olsa – 5.5-7.0
- bayonda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va mantiqiy chalkashliklarga deyarli yo`l qoyilmasa – 5.5-7.0
- berilgan 2 savolga qoniqarli javob bera olsa – 5.5-7.0
- nazariy muammolarning mohiyatini tushunsa - 5.5-7.0
- mavzu bo`yicha berilgan savollarni ma`lum darajada bilsa va javob bera olsa - 5.5-7.0
- mavzuni yoritishda internet tarmog`idan olingan ma`lumotlarga murojaat qilingan bo`lmasa – 2.8-3.5
- axborotni to`plash, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish malakasi kam bo`lsa –2.8-3.5
- tinglovchilar bergan 3 savoldan 1 tasiga to`liq javob bera olsa –2.8-3.5
 - ayrim imlo xatolariga yo`l qo`ysa - 2.8-3.5

TMI bo`yicha nazorat jarayonida talabaga quyidagi holatlarda - 0-54 qo`yiladi:

- mavzuning maqsadi va mazmunini yetarli yoritita olmasa – 0-8.1
- mavzu doirasida mustaqil mushohada yuritish, ijodiy fikrjash qobiliyatini namoyon eta olmasa – 0-8.1
- bayonda ilmiylik va mantiqiylik saqlanmasdan, ko`p ilmiy xatolik va mantiqiy chalkashliklarga yo`l qoyilsa – 0-5.4
- mavzu materialining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida tasavvurga ega bo`lmasa – 0-5.4
- mavzu doirasida o`z tasavvurlari va bilimlarini bayon qila olmasa – 0-5.4
- berilgan 2 savolga javob bera olmasa – 0-5.4
- ilmiy adabiyotlar bilan ishlash, ulardan havolalar keltirish malakasiga ega bo`lmasa
- mavzuni yoritishda internet tarmog`idan olingan ma`lumotlarga murojaat qilingan bo`lmasa – 0-2.7
- axborotni to`plash, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish malakasi bo`lmasa –0-2.7
- tinglovchilar bergan 3 savoldan 1 tasigasa to`liq javob bera olsa –0-2.7
- imlo qoidalariga rioya qilmasa -0-2.7

ORALIQ NAZORAT - 30 ball

2.1. Oraliq baholash yozma tarzda 1 marta o`tkazilib, bunda 3ta savolga javob berish so`raladi. Har bir savol uchun 10 ballgacha beriladi va 34, 33, 33 da baholanadi.

- Agar savol mohiyati to`la ochilgan bo`lsa, javoblar to`liq, aniq, ijodiy yondashgan holda yozilgan, fikrlar asosli, ixcham, to`g`ri va ravon bayon etilgan bo`lsa - 28-34. beriladi;
- Savolga umumiy tarzda javob berilgan, ammo ba`zi kamchiliklarga yo`l qo`yilgan bo`lsa, ayrim fikr va xulosalar to`liq yoritilmagan bo`lsa - 23-27. beriladi;
- Savolga javob berilgan, ammo chalkashliklarga yo`l qo`yilgan, imlo qoidalariga to`la rioya etilmagan bo`lsa - 18-22. beriladi;

- Savol mohiyati umuman ochib berilmagan, qator imlo xatolariga yo'l qo'yilgan bo'lsa - 0-17 beriladi

YAKUNIY NAZORAT - 30 ball

3.1. Yakuniy baholash yozma tarzda 1 marta o'tkazilib, bunda 3ta savolga javob berish so'raladi. Har bir savol 10 ballgacha beriladi va 34, 33, 33 da baholanadi.

- Agar savol mohiyati to'la ochilgan bo'lsa, javoblar to'liq, aniq, ijodiy yondashgan holda yozilgan, fikrlar asosli, ixcham, to'g'ri va ravon bayon etilgan bo'lsa - 28-34. beriladi;
- Savolga umumiy tarzda javob berilgan, ammo ba'zi kamchiliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, ayrim fikr va xulosalar to'liq yoritilmagan bo'lsa - 23-27. beriladi;
- Savolga javob berilgan, ammo chalkashliklarga yo'l qo'yilgan, imlo qoidalariga to'la rioya etilmagan bo'lsa - 18-22. beriladi;
- Savol mohiyati umuman ochib berilmagan, qator imlo xatolariga yo'l qo'yilgan bo'lsa - 0-17 beriladi